


The background of the cover is a photograph of a mosque. On the left, a tall, slender minaret rises, decorated with horizontal bands of gold and blue geometric patterns. To its right, a large, prominent green dome with a gold finial sits atop a building. In the foreground, several smaller, light-colored domes are visible, partially obscured by the main structures. The sky is a clear, pale blue, suggesting a bright day.

N.E. IBADULLAYEV

ZIYORAT TURIZMI

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR
VAZIRLIGI

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS
INSTITUTI

Samarqand iqtisodiyot va servis institutining
95 yilligiga bag‘ishlanadi

N.E. IBADULLAYEV

ZIYORAT TURIZMI

71010101-“ Turizm va mehmondo‘stlik” magistratura
mutaxassisliklarida tahsil olayotgan magistrlar uchun o‘quv qo‘llanma
sifatida tavsiya etilgan

SAMARQAND - 2025

UO‘K: 338.482.2(075)

I 13

KBK: 65.433ya73

N.E.Ibadullayev.

Ziyorat turizmi [Matn]: **o‘quv qo‘llanma** / Samarqand iqtisodiyot va servis instituti – Samarqand.: “STEP-SEL” MChJ nashriyoti, 2025 - 156 bet.

Mas’ul muharrir: i.f.d., professor Tuxliyev Iskandar Suyunovich

Taqrizchilar: i.f.d., professor **A.A.Eshtayev**
i.f.f.d., dotsent **S.A.Abduxamidov**

O‘quv qo‘llanma “Ziyorat turizmi” fanining o‘quv dasturi asosida tuzilgan. O‘quv qo‘llanmada mamlakatimizda turizm sohasini rivojlantirishda ziyorat turizmi, uning tarkibiy qismlarining o‘ziga xos xususiyatlari, mintaqalarda ziyorat turizmini rivojlantirish imkoniyatlari ilmiy nazariy jihatdan yoritib berilgan.

O‘quv qo‘llanmaning har bir mavzusi magistrlar tomonidan yaxshi o‘zlashtirilishi bo‘yicha tayanch so‘z va iboralar, mustaqil ishlash uchun savollar, amaliy mashg‘ulotlarga tayyorgarlik ko‘rishi uchun topshiriqlar berilgan.

O‘quv qo‘llanma oliy o‘quv yurtlarining “Turizm va mehmondo‘stlik” magistratura mutaxassisliklarida tahsil olayotgan magistrarga mo‘ljallangan. Undan shuningdek, talabalar, turizm sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan mutaxassislar va professor-o‘qituvchilar ham foydalanishlari mumkin.

O‘quv qo‘llanma institut Kengashining 2025-yil 28-martdagi majlisda muhokama qilingan va nashrga tavsiya etilgan. (8-sonli majlis bayoni).

ISBN: 978-9910-702-83-9

© N.E.Ibadullayev, SamISI. 2025 y.
© “STEP-SEL” MChJ nashriyoti. 2025 y.

KIRISH

Xizmat ko'rsatish va servis sohasi keng ko'lamga ega bo'lib, insonlar hayotini yaxshilashda muhim o'rin tutadi. Ushbu soha mamlakat iqtisodiyotida salmoqli o'rinni egallab bormoqda. Shu tufayli, so'ngi yillarda xizmat ko'rsatish va servis sohasini rivojlantirishga katta ahamiyat berilmoqda. Bu esa xizmatlar bozorida yangi istiqbolli xizmat turlarining, xususan, turizm xizmatlarining shakllanishiga ham sabab bo'lmoqda.

Bugungi kunda turizm jahondagi eng ko'p foyda keltiruvchi biznes turlaridan biriga aylangan. U bozor munosabatlarining ajralmas qismi bo'lib, danyoning ko'pgina mamlakatlarida tezkorlik bilan rivojlanib borayotgan tarmoqqa aylandi. Turizm sohasi jahon xo'jaligining transport, aloqa, savdo-sotiq, qurilish industriyasi, qishloq xo'jaligi, iste'mol mollari ishlab chiqaruvchi sanoat tarmoqlari bilan chambarchas holda rivojlanib, jahon iqtisodiyotida o'z o'rniga ega bo'lmoqda.

O'zbekistonda bozor munosabatlarini shakllantirishda xizmat ko'rsatish sohasidagi iqtisodiy munosabatlarning ham o'ziga xos roli bor. Chunki ushbu soha bozor sub'ekti sifatida tez rivojlanish bosqichida. Uning tarkibiy qismi bo'lgan turizm sohasi ham o'z o'rniga ega bo'lib bormoqda. Turizm mamlakatimiz iqtisodiyotida nisbatan yangi soha bo'lishiga qaramasdan o'z mavqeini mustahkamlab bormoqda. Bu kelajakda ham istiqboli porloq sohalardan biri bo'lib qoladi.

Mamlakatimizda turizm rivojlanishi jamiyatning yangilanish davriga to'g'ri keldi. Mazkur soha asta-sekinlik bilan sodir bo'layotgan o'zgarishlar jarayonini hisobga olgan holda bosqichma-bosqich rivojlanmoqda. Hozirgi sharoitda undagi ko'rsatiladigan xizmatlar sifatini yanada yaxshilash bosqichiga o'tilmoqda. Zero, rivojlangan mamlakatlar tajribasidan ma'lumki, iqtisodiyotning rivojlanishida turizm sohasi ham sezilarli o'ringa ega.

Turizm sohasining tarkibiy qismi bo'lgan turistik resurslar o'ziga xos xususiyatlarga ega. Zero, mazkur resurslar mamlakatning iqtisodiy-ijtimoiy hayotiga sezilarli darajada ta'sir qiladi. Bu soha mahalliy aholi

AXBOROT RESURS MARKAZI

43556

uchun ham katta ahamiyatga ega. Ular ish bilan ta'minlanadi, turli millat, elat va xalq vakillari bilan muloqotda bo'ladi va ularning turli an'ana va qadriyatlari bilan tanishadi, doimiy daromad olib turish, mahsulotlarni sotish imkoniyatlariga ega bo'ladi. Bulardan tashqari, mahalliy aholi imkon qadar o'zlarining an'ana va qadriyatlarini namoyish qilish uchun uni saqlab qoladilar va unitilganlarini tiklaydilar.

Bugungi kunda turizmi rivojlangan, kuchli turizm iqtisodiyotiga ega bo'lgan mamlakatlar turizmning barcha turlarini rivojlantirish choralari ko'rmoqda. Turizm industriyasining asosiy tuolaridan biri bo'lgan ziyorat turizmining milliy va xalqaro bozorlarda rivojlantirib borish, jaxon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvini ta'minlash dolzarb va bajarilishi zarur bo'lgan masalalardan biri sifatida qaralmoqda.

Respublikamizning ko'pgina mintaqalaridagi tarixiy, diniy-ziyosat obidalari, buyuk siymolar qabrlari, dahmalari, masjidu madrasalarini qaytadan tiklash va ta'mirlash ishlari keng miqyosda amalga oshirildi. Buning natijasida turistik resurslarning soni yanada ko'paydi va ularning ahvoli ancha yaxshilandi. Bu esa turizm sohasining rivojlanishida, ayniqsa ziyorat turizmning barqaror rivojlanishida muhim omilga aylanmoqda.

Ziyorat turizmini o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash va uni rivojlantirish istiqbollari belgilash maqsadida turizm ob'ekti sifatidagi "ziyosat" atamasining mohiyati va tabiatini anglab olish lozim. Adabiyotlarda bu atamaga turlicha ta'rif berilib, uning xususiyatlari hali-hanuzgacha to'liq yoritilmagan. Mazkur o'quv qo'llanmada xorijiy va mahalliy olimlar, tadqiqotchi va amaliyochilarning ziyorat turizmiga bergan ta'riflari o'rganilgan, mamalakatimizda hamda dunyo mintaqalarida ziyorat turizmini rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari yoritilgan.

I BOB. ZIYORAT TURIZMI: TUSHUNCHASI, MOHIYATI, TARKIBI VA RIVOJLANISHINING ASOSIY JIHATLARI

1.1. Ziyorat turizmi fanining predmeti, uslublari va vazifalari.

1.2. Ziyorat turizmi to'g'risida tushuncha.

1.3. Ziyorat turizmi fanining maqsadi va vazifalari.

1.1. Ziyorat turizmi fanining predmeti, uslublari va vazifalari

Mamlakatimizda turizmning istiqbolli turlarining rivojlanishini ta'minlash uchun uning har bir turini va turizm bozori xizmatlarining, ularni mexanizmlarini takomillashtirish, ular vositasida sohani rivojlantirish istiqbollari nazariy jihatdan tadqiq qilish talab qilinadi. Alohida qayd etish lozimki, ziyorat turizmi tarkibiga turistik resurslar va ziyorat turizmi faoliyati doirasida foydalanishi mumkin bo'lgan obyekt va jarayonlar kiritiladi.

Ma'lumki jahon iqtisodiyotida hozirgi davrda turizm eng serdaromad sohalardan biriga aylangan. Mehnatga layoqatli aholining bandligini ta'minlashda ham uning o'ziga xos o'rnini bor. Shu jihatdan ham, butun dunyo mamlakatlari mazkur sohani uzluksiz rivojlantirib kelmoqda.

Turizm sohasi jadal rivojlanayotgan mamlakatlar bunga turistik resurslardan samarali foydalanishni yo'lga qo'yganligi va uning barqaror rivojlanishini ta'minlab kelayotganligi tufayli erishmoqda. Xususan, mamlakatimizga ham turist sifatida tashrif buyuruvchilar soni yildan-yilga ko'paymoqda. Bu esa, O'zbekistonda ziyorat turizmidan samarali foydalanish, sohani zamon talablari darajasida rivojlantirish, ziyorat turizmidan samarali foydalanishning nazariy va amaliy jihatlarini tadqiq etishni taqozo qiladi.

Ma'lumki turizm nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy sohadir. Uning asosiy xizmati iste'molchiga iste'mol jarayonida ko'rsatiladi. Bu moddiy va nomoddiy ne'matlardan iborat bo'lib, turistlarning dam olishini, sog'lig'ini muhofaza qilishni ta'minlashga xizmat qiladi. Shuningdek, turizm aholining umumiy ma'lumotini, savodxonligi va madaniy-ma'naviy dunyoqarashini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.


Ziyorat turizmi asosi hisoblangan hududning tarixiy-arxitektura yodgorliklari, xalqlarning milliy madaniyati, o'ziga xos urf-odatlar, milliy an'analar, ma'naviyatini ko'rsatuvchi milliy boylikdir. Aynan ana shu qadimiy arxitektura yodgorliklari, madaniy ob'ektlar hamda ziyoratgohlarning qanday holatda ekanligiga qarab turizm sohasining rivojlanish istiqbollari belgilab olish hamda ziyorat turizmi salohiyati va imkoniyatlari haqida tasavvurni shakllantirish mumkin.

Turizmning holati, uning rivojlanish istiqbollari ushbu sohaga jalb qilingan turistik resurslardan samarali foydalanishga bog'liq. Mamlakat qanchalik turli-tuman turistik resurslarga boy bo'lsa, ziyorat turizmini rivojlantirish shuncha oson kechadi.

Turistik resurslar deyilganda, insonning jismoniy, ruhiy va aqliy kuchini tiklashi, intellektual salohiyatini rivojlantirish kabi ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan, turizm faoliyatini tashkil etishga asos bo'luvchi tabiiy, madaniy-tarixiy, ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa ob'ektlar tushuniladi. Turistik resurslarning mohiyati shundan iboratki, bu resurslar turistik mahsulot shakllanishiga asos hisoblanadi. Umumiy qilib aytganda, turistik resurslarga aniq hududda turistik faoliyatda foydalanish mumkin bo'lgan barcha yuqorida nomlari keltirilgan ob'ektlar kiradi.

Yangi O'zbekiston sharoitida turizm sektorini rivojlantirishga alohida urg'u berilmoqda. So'nggi yillarda O'zbekiston xalqaro sayyohlar orasida yangi turistik manzil sifatida tanilib bormoqda. Jumladan, O'zbekistonga xorijiy turistlarni yanada ko'proq jalb qilish maqsadida viza rejimini soddalashtirish chora-tadbirlari, yangi yo'nalishlarni ishlab chiqish, soha bilan bog'liq loyihalarga investitsiya kiritish, yirik tadbirlarni o'tkazish kabi amaliy ishlar olib borilmoqda. Masalan, 2023-yilda umumiy qiymati 9,5 trln. so'mlik 508 ta loyiha amalga oshirilganligi hisobiga jami 9492 ta yangi ish o'rni yaratildi. 183 ta yangi mehmonxona va 232 ta xostel faoliyati yo'lga qo'yilib, jami joylashtirish vositalari soni 5526 taga yetdi. Shuningdek, 452 ta oilaviy mehmon uyi tashkil qilinib, ularning umumiy soni 3458 taga yetdi. Turistlar uchun xizmat ko'rsatuvchi 810 ta yangi turistik

tashkilot va turagentlar faoliyati yoʻlga qoʻyilishi natijasida ularning soni 2649 taga yetdi. 2017-2023-yillar davomida Oʻzbekistonga xorijiy turistlar soni yil sayin ortib bordi. Xususan, 2017-yilda 2,7 mln. nafarni tashkil etgan boʻlsa, 2023-yilga kelib 6,6 mln. nafarni tashkil etdi, bu esa 2017-yilga nisbatan 2,5 barobarga, 2022-yilga nisbatan esa 1,3 barobarga oshganini koʻrishimiz mumkin¹ (1.1-rasm).



1.1-rasm. Oʻzbekiston Respublikasiga tashrif buyurgan xorijiy turistlar soni²

Respublikada mavjud turistik resurslarni samarali foydalanish uchun istiqbolli turlarini aniqlab olish lozim. Aynan shunday turlaridan biri ziyorat turizmi hisoblanadi. Bugungi kunda hukumat tomonidan ichki va xalqaro turizmni rivojlantirish uchun bir qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Turizm iqtisodiyotning strategik sektorlaridan biriga aylanib bormoqda. Oʻzbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2023-yil 16-20-oktabr kunlari Samarqandda boʻlib oʻtgan Butunjahon turizm tashkiloti Bosh Assambleyasining 25-sessiyasi ochilish marosimidagi nutqida ayni paytda Oʻzbekistonda 8 mingdan ortiq madaniy meros obektlari mavjudligi va ziyorat turizmi dasturi doirasida sayohatga keluvchilar sonini hozirgidan uch barobar koʻproqqa oshirish moʻljallayotganini taʼkidladi. Bu maqsadga erishish uchun esa

¹ <https://strategy.uz/index.php?news=1959&lang=uz2>

² <https://daryo.uz/k/2023/02/04/ozbekistonda-turizm-kecha-va-bugun>

ziyosat turizmi tizimining xususiyatlarini aniqlash, uning elementlarini tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi.³

Ziyosat turizmi subyektlari orasida sayyohlar alohida o‘rin egallaydi. Ularning o‘z ehtiyojlari va turni amalga oshirishga undagan motivlari ziyosatni belgilab beradi. Turizm jarayoni esa ziyosat turizmi subyektlarining tur davomida amalga oshiradigan yoki amalga oshirishi mumkin bo‘lgan turli xil faoliyatlarini o‘z ichiga oladi. Ziyosat turizmi obyektlari esa turizm mahsulotlarini ishlab chiqarish va sotish, turizm xizmatlarini ko‘rsatish bilan shug‘ullanadigan korxona va tashkilotlar, shuningdek, turistik resurslar majmuyidan iborat.

Ziyosat turizmi subyektlari quyidagilarni o‘z ichiga oladi:⁴

ziyosatchilar;

sayyohlarga xizmat ko‘rsatuvchi shaxslar va birlashmalar;

ziyosat turizmi industriyasi xodimlari, shuningdek, turizm sohasidagi yakka tartibdagi tadbirkorlar;

ijtimoiy guruhlar (turistik markaz va hududlardagi tub aholi);

ziyosat turizmi sohasidagi notijorat tashkilotlar (ilmiy va ta‘lim tashkilotlari, tadbirkorlik birlashmalari, turistik soha xodimlari va boshqalar);

turizm industriyasidagi yollanma ishchilar (ekskursiya gidlari, animatorlar, madaniyat mutaxassislari va boshqalar);

turizm sohasida huquqiy tartibga solishni amalga oshiruvchi davlat organi;

davlat va xalqaro tashkilotlar, hamda ularning ixtisoslashgan idoralari (BMT, UN TOURISM, UNESCO va boshqalar).

Ziyosat turizmi jarayonlari quyidagilar:

Sayyohlarning tashrif buyurgan mamlakatida 12 oygacha bo‘lgan muddatda erkin harakatlanishi;

³Soxibova M.X. Ziyosat turizmi tizimining xususiyatlari va uning elementlari. “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” № 00070. 2\2024. 317 b.

⁴Soxibova M.X. Ziyosat turizmi tizimining xususiyatlari va uning elementlari. “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” № 00070. 2\2024. 322-323 betlar.

Turistik faoliyat, turistlarga xizmat ko'rsatish bo'yicha tadbirkorlik faoliyatining boshqa turlari, sayyohlarning ma'rifiy va madaniy darajasini oshirishga yordam beruvchi faoliyat turladi va boshqalar;

Hokimiyat organlarining turistlar erkin harakatlanishini ijtimoiy tartibga solish hamda sayyohlarga xizmat ko'rsatish bo'yicha tadbirkorlik faoliyatini tashkil etishdagi faoliyati;

Xalqaro tashkilotlarning sayyohlikni xalqaro huquqiy tartibga solish sohasidagi faoliyati.

Ziyorat turizmi obyektlari majmui o'z ichiga quyidagilarni oladi:

Ziyorat turizmi resurslari;

Ziyorat turizmi industriyasi obyektlari: turoperatorlar, turagentlar, joylashtirish vositalari, transport, umumiy ovqatlanish, axborot tizimlari va boshqalar;

Turistik infratuzilma obyektlari: sayyohlarning sayohati va dam olishi uchun mo'ljallangan muhandislik, transport, ijtimoiy, innovatsion va boshqa infratuzilma obyektlari;

Turistik harakatlar, turizmni davlat tomonidan tartibga solish faoliyati uchun zarur bo'lgan boshqa moddiy va ma'naviy qadriyatlar, atrof-muhit elementlari.

Ziyorat turizmi industriyasi – bu ziyorat turizmi uchun mahsulot ishlab chiqaruvchi va xizmatlar ko'rsatuvchi korxonalar hamda tashkilotlarning tarmoqlararo majmuasidir. U quyidagilarni o'z ichiga oladi:

Ziyorat turizmiga oid xizmatlarni ishlab chiqaruvchi korxonalar;

Turistik mahsulotlarni ishlab chiqaruvchi va sotuvchi firmalar (turoperatorlar);

Sayohat agentlari tomonidan tuzilgan turizm mahsulotlarini sotuvchi kompaniyalar;

Turar joy xizmatlarini ko'rsatuvchi kompaniyalar (dam olish uylari, mehmonxonalar, motellar va boshqalar);

Umumiy ovqatlanish korxonalari (restoran, kafe, oshxona va boshqalar);

Turistlarga xizmat ko'rsatuvchi transport korxonalari;

Reklama va axborot tashkilotlari;

Xordiq chiqarish maskanlari (kino, teatr, konsert zallari, sport inshootlari va hokazo);

Tijorat yoki ijtimoiy asosda ziyorat turizmiga ixtisoslashgan davlat korxonalari.

Har qanday turizm yo'nalishini asosiy omillar majmuasiz: kapital, texnologiya, kadr va resurslarsiz yo'lga qo'yish mumkin emas. Bu holatda o'ziga xos va muhim omil bo'lib ziyorat turizmi resurslari xizmat qiladi. Turistik resurslar – turistik mahsulorni shakllantirish va talablarga javob beradigan tabiiy va texnogen obyektlar yig'indisidir. Turistik resurslarning mavjudligi mintaqada turizmni tashkil etish uchun hal qiluvchi omil hisoblanadi.

1.2. Ziyorat turizmi to'g'risida tushuncha

Ziyorat turizmi, uning kelib chiqish davri, mohiyati bo'yicha olimlar turli xulosalar berishgan. Ayrim olimlar ziyorat bu turizmning bir turi deb hisoblasa, boshqalari turizm ziyoratning bir turi ekanligini ta'kidlaydi. Boshqa olimlar bu ikki tushuncha umuman qarama-qarshi ma'noni anglatadi desa, ba'zilar esa so'zlar o'rtasida umuman farq yo'qligini ta'kidlaydilar.

Turizm va ziyorat orasidagi farq odatda mavhum bo'lib kelgan. Britaniyalik mashhur antropolog Victor va Edith Turnerlar bir necha yillik tadqiqotlari davomida turizm va ziyoratning farqini aniqlash jarayonida “turist yarim ziyoratchi, agar ziyoratchi yarim turist bo'lsa” degan xulosani tasdiqlashgan. Biroq, hanuzgacha bu ikki atamaning farqi aniq dalillarda keltirilmagan.⁵

Ziyorat turizmini o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash va uni rivojlantirish istiqbollari belgilash maqsadida turizm ob'ekti sifatidagi “ziyosat” atmasining mohiyati va tabiatini anglab olish lozim.

⁵ Kurbanova M.X. Ziyorat turizmiga ijtimoiy hodisa sifatida tarixiy-ilmiy yondashuv. Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar. № 00063. 1\2023. 420 b.

Adabiyotlarda bu atamaga turlicha ta'rif berilib, uning xususiyatlari hali-hanuzgacha to'liq yoritilmagan.

Diniy va ziyorat turizmning ta'riflari hamda mazmuniga turlicha yondashuvlar mavjud. Ziyorat turizmi ko'pchilik xorijiy tadqiqotchilar tomonidan diniy turizmning bir turi sifatida qaraladi. Jumladan, A.V.Babkin, M.B.Birjakov, T.T.Xristov kabi turizm sohasida ko'plab tadqiqotlar olib borgan olimlar diniy turizmning ikkita asosiy turdan iboratligini ta'kidlashganlar. Ya'ni ular ziyorat turizmi hamda o'rganishga oid ekskursion yo'nalishdagi diniy turizmni ajratib ko'rsatadi.

A.V.Babkin o'zining "Spesialniye vidi turizma" nomli o'quv qo'llanmasida "ziyosat turizmi muqaddas joylar, diniy markazlarga borayotgan turistlarga xizmat ko'rsatish va ularning ehtiyojlarini qondirish bilan bog'liq bo'lgan faoliyat turi"⁶ ekanligini keltirib o'tadi.

L.V.Baylagasov va M.I.Goppalar "O klassifikatsii palomnicheskogo turizma" mavzusidagi ilmiy maqolasida ziyorat turizmiga kengroq tushuncha sifatida qarashadi. Olimlarning fikricha, "ziyosat turizmi nafaqat din bilan bog'liq, balki mashhur kishilar qabri yoki uy muzeyini borib ko'rish, ularni xotirlashni ham o'z ichiga oladi"⁷ degan fikrni ilgari surishadi.

M.A.Vinokurovning fikricha, "diniy turizm (ziyosat turizmi) muhim diniy marosimlarda ishtirok etish uchun safarga chiqish, diniy yodgorliklar yoki boshqa dinlar tarixi va madaniyati bilan tanishish maqsadidagi turlar, shuningdek, mutaxassislarning din masalalari bilan bog'liq ilmiy safarlarini ko'zda tutadi"⁸.

K.A.Mazin "Palomnichestvo i religiozniy turizm: sravneniye skvoz prizmu tisyacheletiy"⁹ nomli ilmiy maqolasida ziyoratni turizm sifatida qarashga umuman qo'shilmaydi. Turizm ziyoratdan ancha yosh ekanligini ta'kidlab o'tadi.

⁶ Бабкин А.В. Специальные виды туризма. Ростов-на-Дону: Феникс, 2008. - 252 б.

⁷ Байлагасов Л.В., Гоппа М.И. О классификации паломнического туризма // Международный научный журнал «Символ науки», - 2016, - №10, - 192-194 б.

⁸ Винокуров М.А. Что такое туризм? // Известия Иркутской государственной экономической академии. - 2004. - № 3. 19-24 - б.

⁹ Мазин К.А. Паломничество и религиозный туризм: сравнение сквозь призму тысячелетий // Современные проблемы сервиса и туризма. - 2009. - № 4. - 8-24-б.

Campo Islom ensiklopediyasida musulmon mamlakatlaridagi diniy safarni ziyorat deb atagan, bu arab tilida “tashrif” va “tashrif buyurish” degan ma’noni anglatadi. Ziyorat atamasi odatda boshqa musulmon ziyoratgohlariga ixtiyoriy ravishda ziyoratga borish mazmunida qo‘llaniladi.

Undan tashqari “Ziyorat turizmi” tushunchasiga olimlar tomonidan turlicha ta’riflar berilgan (1.1-jadval).

Ziyorat turizmiga berilgan ta’riflarni o‘rgangan holda hamda tadqiqotlarimizdan kelib chiqib aytish mumkinki Ziyorat turizmi ma’lum bir dinga e’tiqot qiladigan insonlarning ma’nan va ruhan poklanish ehtiyojlarini qondirishga, shuningdek ziyorat ob’ektlari hamda jarayonlarini tomosha qilishga qaratilgan sayr-sayohat shaklidir. Ziyorat turizmi fenomenasi uzoq yillik ziyoratgohlarga ruhan poklanish maqsadida tashrif buyurishga ham bog‘liqdir.

1.1-jadval

“Ziyorat turizmi” tushunchasiga berilgan ta’riflar¹⁰

Barber (Barber, R. (1993). Pilgrimages. London: The Boydell Press.)	Ziyorat - ma’lum diniy maqsadlarga qaratilgan bo‘lib, muqaddas hududlarga tashrif buyurishni ko‘zlaydi hamda ruhiy va ichki e’tiqodga erishish maqsadida amalga oshiriladi.
Smit (Smith, V. L. (1992). Introduction. The quest in guest. Annals of Tourism Research, 19(1), 1–17.)	Ziyorat - atamasi diniy sayohat, ziyorat safari, ayniqsa, qabr yoki muqaddas joylarga tashrif buyurish demakdir. Biroq, u lotin tilidan “peregrinus” so‘zidan olinganligi sabab u sayyoh, muxojir, musofir, kelgindi va begona ma’nolarini ham beradi.
Eickelman va Piscatori (Eickelman, D. F., & Piscatori, J. (1990). Muslim travelers –	Ziyorat sayr-sayohat shakli bo‘lib, aholi harakatining bir turi. "Harakatlar" ma’lum tartib–qoidalar asosida yuzaga keladi. Ushbu harakat insonlarning katta hajmdagi


¹⁰ Beknazarov F.A. “O‘zbekistonda ziyorat turizmi imkoniyatlaridan foydalanish samaradorligini oshirish yo‘llari”. Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertasiya. Samarqand 2023 y.

Pilgrimage, migration and the religious imagination. London: Routledge.)	harakatlarini dunyo bo'ylab o'z ichiga oladi hamda har kungi sayohatlarga ta'luqlidir.
Islom yensiklopediyasi ("O'zbekiston milliy yensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti. Toshkent-2017)	Ziyorat - muqaddas joylarga, mozor va qabristonlarga borib muayyan rasm-rusumlarni bajarib kelish. Ziyorat marosimi, odatda qabr tepasida ayrim suralarni o'qib marhum haqiga duo qilish, shuningdek, hayr-ehson, sadaqa berish kabilardan iborat.
A.V.Babkin (Spesialnie vidi turizma. Rostov-na-Donu: Feniks, 2008. - 252 s.)	Ziyorat turizmi muqaddas joylar, diniy markazlarga borayotgan turistlarga xizmat ko'rsatish va ularning ehtiyojlarini qondirish bilan bog'liq bo'lgan faoliyat turi.
L.V.Baylagasov, M.I.Goppa (O klassifikatsii palomnicheskogo turizma // Mejdunarodniy nauchniy jurnal «Simvol nauki», - 2016, - №10. - 192-194 s)	Ziyorat turizmi nafaqat din bilan bog'liq, balki mashhur kishilar qabri yoki uy muzeyini borib ko'rish, ularni xotirlashni ham o'z ichiga oladi.
M.A.Vinokurov (Chto takoye turizm? // Izvestiya Irkutskoy gosudarstvennoy ekonomicheskoy akademii. – 2004. – № 3. – S. 19-24.))	diniy turizm (ziyosat turizmi) muhim diniy marosimlarda ishtirok etish uchun safarga chiqish, diniy yodgorliklar yoki boshqa dinlar tarixi va madaniyati bilan tanishish maqsadidagi turlar, shuningdek, mutaxassislarning din masalalari bilan bog'liq ilmiy safarlarini ko'zda tutadi.

Ziyorat - bu 1) ziyoratchi tomonidan uyushtiriladigan maxsus sayohat; 2) hurmat qilish uchun maxsus joylarga borish; 3) diniy

sabablarga ko'ra, ko'pincha uzoq davom etadigan muqaddas joylarga sayohat.¹¹

Tashqi safar o'z navbatida ichki safarni amalga oshirishga ko'maklashadi. Ichki sayohat jarayonida inson yomon xulqdan xushfelliikka qarab harakatlansa, inson nopoklik holatidan poklik darajasiga ko'tariladi, qalb tozalanib, ruhiy xotirjamlikka erishiladi (1.2. - rasm).



1.2.-rasm. Ziyoratning uzviy tuzilishi bo'yicha tasniflanishi¹²

Ziyorat - bu aniq belgilangan diniy maqsadlarga ega bo'lgan muqaddas joylarga sayohat qilish hisoblanadi. Ziyorat qadimgi zamonlardan beri ma'lum bo'lib, u yoki bu shaklda deyarli barcha dinlarda qabul qilingan. Shuningdek, dunyoviy va siyosiy ziyoratlar, yaqin yoki soxta ziyorat sohasidagi sayohatlar - diniy bayramlar va marosimlarni o'tkazish uchun tadbir turizmi, shuningdek, madaniy va diniy sifatida aniqroq tavsiflangan ma'rifiy maqsadlardagi ibodat joylariga tashkil qilinadigan turizm ham ma'lum. Ayni paytda barcha turdagi ziyoratchilar turizm industriyasi xizmatlaridan keng foydalanmoqda, shu yerning o'zida xizmat ko'rsatish va ekskursiyalar

¹¹ Kurbanova M.X. Ziyorat turizmiga ijtimoiy hodisa sifatida tarixiy-ilmiy yondashuv. Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar. № 00063. 1\2023. 420 b.

¹²Navruz-zoda Zebiniso (2020). Evaluation of Holy Places of the Regions for the Development of Pilgrimage Tourism.// Indonesian Journal of Law and Economics Review. Indonesia. IJLER 6 (0). doi:10.21070/ijler.2020.V6.493 V6.493. 365-370-r.

bilan bunday turlarni tashkil etish uchun maxsus sayyohlik kompaniyalari tashkil etilmoqda. Diniy tadbirlar va bayramlar paytida jadal ko‘payib borayotgan ziyoratchilar oqimi transport industriyasining shakllanishiga ta’sir ko‘rsatmoqda.

Ziyorat madaniy-diniy kognitiv (ko‘pincha ko‘ngilochar) yoki madaniy-tarixiy sayohatlardan farqli o‘laroq, dinning asoslari, ustunlari, aqidalari va qonunlariga, asrlar davomida shakllangan an‘analarga mos keladigan o‘z maqsadlariga ega. E’tiqod bilan belgilanadigan marosimning chuqur ma’naviy ma’nosi mavjud. Diniy ziyorat tarixan u yoki bu konfessiyaning diniy markazlari tomonidan tuzilgan maxsus ziyorat xizmatlari tomonidan amalga oshirilgan va hozirda ham amalga oshirilmoqda.¹³

Ziyorat insonning voqelikka muayyan munosabatini nazarda tutadi. Ziyoratchilarning psixologik xususiyatlari juda xilma-xildir. Ko‘p hollarda ziyoratchi allaqachon o‘rnatilgan qadriyatlar tizimiga ega bo‘lgan chuqur dindor shaxsdir. U o‘zining ma’naviy va axloqiy maqsadlariga erishish uchun odatdagi turmush tarzidan: ijtimoiy davradan, zavqlanishdan, oziq-ovqatdan bir muddat voz kechishga tayyor. Ziyorat g‘oyasi ma’lum bir qiyinchilik sharoitidagi amallarni, shu sharoitda bo‘lish uchun ixtiyoriy ravishda zimmasiga olgan majburiyatlarni nazarda tutadi. Bu insonning abadiy ruhiy nomi uchun vaqtinchalik va o‘tkinchi materialni qurbon qilishga tayyorligini anglatadi. Hinduizm, buddizm, nasroniylik va boshqa dinlarda piyoda ziyorat qilish, ayniqsa allaqachon mavjud yo‘llar bo‘ylab rivojlangan. Odamlar odatdagi yashash joylarida etarlicha marosim harakatlariga ega bo‘lmaganda, hajga boradilar. Ular sayohat qilishadi yoki muqaddas joylarga borishadi, ular o‘zlari uchun yanada mazmunli bo‘lgan yangi diniy joylarni boshdan kechiradilar.

Har xil ziyorat turlari mavjud. Ishtirokchilar soniga ko‘ra va oilaviy mansubligiga ko‘ra yakka, oilaviy va jamoaviy ziyoratlarga bo‘linadi. Davomiyligi bo‘yicha ziyoratlar uzoq va qisqa bo‘lishi mumkin. Ilgari,

¹³ Beknazarov F.A. “O‘zbekistonda ziyorat turizmi imkoniyatlaridan foydalanish samaradorligini oshirish yo‘llari”. Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertasiya. Samarqand 2023 y.

rus pravoslav qonunlariga ko'ra, 10 kundan ortiq davom etadigan sayohat ziyorat hisoblangan. Ziyoratchilar tashrif buyuradigan ob'ektlar qaysi davlatda joylashganiga qarab, ichki va xorijiy sayohatlar mavjud.

Xalqaro globallashuv sharoitida butun dunyoda turizm sohasini jadal rivojlantirish, kelajakni o'ylab unga qo'yilayotgan yirik investitsiya hisoblanadi.

Ziyorat turizmini o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash va uni rivojlantirish istiqbollari belgilash maqsadida turizm ob'ekti sifatidagi "ziyosat" atamasining mohiyati va tabiatini anglab olish lozim. Adabiyotlarda bu atamaga turlicha ta'rif berilib, uning xususiyatlari hali-hanuzgacha to'liq yoritilmagan. Biz mazkur dissertatsiya ishimizda xorijiy va mahalliy olimlar, tadqiqotchi va amaliyochilarning ziyorat turizmiga bergan ta'riflarini o'rganib, ilmiy mushohadalar asosida "ziyosat turizmi" tushunchasining takomillashgan ta'rifini ishlab chiqdik.

Tashqi safar o'z navbatida ichki safarni amalga oshirishga ko'maklashadi. Ichki sayohat jarayonida inson yomon xulqdan xushfelliikka qarab harakatlansa, inson nopoklik holatidan poklik darajasiga ko'tariladi, qalb tozalanib, ruhiy xotirjamlikka erishiladi.

1.3. Ziyorat turizmi fanining maqsadi va vazifalari

Ziyoratning fanda har xil tavsifga ko'ra tasniflangan bir necha turlari mavjud. Jumladan, ishtirokchilar soniga, davomiyligiga, mavsumiyligiga, obyektlariga, ziyoratgohning joylashgan joyiga hamda majburiy qilib belgilanishiga ko'ra tasniflanadi (1.2-jadval). Har xil ziyorat turlari mavjud. Yakka tartibdagi, oilaviy va guruhli ziyoratlar ishtirokchilar soni va oilaviy mansublik asoslari bilan farqlanadi. Muddati bo'yicha uzoq va qisqa ziyoratlarni belgilanishi mumkin. Ziyoratchilar tashrif buyuradigan obyektlar qaysi davlatda joylashganiga qarab, ichki va xorijiy sayohatlar mavjud.

Xususiyatiga ko'ra ziyorat turizmning turlari¹⁴

Ishtirokchilar soniga ko'ra	Davomiyligiga ko'ra	Mavsumiyligiga ko'ra	Obyektlariga asosan	Ziyoratgohning joylashgan joyiga ko'ra	Majburiylikka ko'ra
-individual; -oilaviy; -guruhli;	-uzoq muddatli; -qisqa muddatli;	-yil bo'yi; -diniy bayramlarga mo'ljallangan ziyorat;	-diniy ibodat joylari; -tabiiy muqaddas qadamjolar;	-ichki; -xorijiy;	ixtiyoriy; majburiy;

Ziyoratchilar odatda xizmat ko'rsatish darajasi va sifati, ovqatlanish va turar joy bo'yicha boshqa sayohatchilarga qaraganda ancha kam talablar qo'yadilar, misol uchun, musulmon dinida faqat halol bo'lishi talab etiladi. Ziyoratchilar cherkovlarning xonalarida, ashramlar hududida, chodirli shaharlarda (masalan, Mina shahri) tunashlari mumkin. Oziq - ovqat tanlovi odatda kichik va kamtarona hissada iste'mol qilinadi.

Ziyorat turizmini fan sifatida tahlil qilish sohani hududiy, iqtisodiy va ijtimoiy darajalarda vujudga keladigan munosabatlarini rivojlantirishga, turizm jarayoni subyektlari va obyektlari o'rtasidagi samarali o'zaro ta'sirga erishishga, shu bilan bir qatorda, fanning muammolarini hal qilishga imkon beradi. Bundan tashqari sohada muvaffaqiyatli xalqaro hamkorlikni yo'lga qo'yishga bevosita o'z hissasini qo'shadi.

Ziyorat turizmi fanining maqsadi - turizmning istiqbolli turlarini rivojlantirish zaruratidan kelib chiqqan holda talabalar ta'limi uchun ziyorat turizmi imkoniyatlari va ulardan foydalanish yo'llari bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiya va takliflarni yoritishdan iborat.

¹⁴ Kurbanova M.X. Ziyorat turizmiga ijtimoiy hodisa sifatida tarixiy-ilmiy yondashuv. Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar. № 00063. I/2023. 424 b.

Ziyorat turizmi fanining vazifalari quyidagilar:

Ziyorat turizmi tushunchasining mazmuni va mohiyatini, mintaqalarda ziyorat turizmi resurslari va ulardan foydalanish imkoniyatlarini yoritib berish;

xorijiy mamlakatlar hamda O'zbekistonda ziyorat turizmi industriyasining rivojlanish holatini hamda ziyorat turizmi imkoniyatlarini tahlil qilish;

xorijiy mamlakatlarda ziyorat turizmini rivojlantirishning tajribalari va ulardan O'zbekiston sharoitida foydalanish yo'llarini aniqlash;

ziyosat turizmini rivojlantirishda turizm infratuzilmasini tashkil qilish yo'llarini aniqlash;

Ziyorat turizmining tashkiliy-xuquqiy asoslarini yoritishdan iborat.

Ziyorat turizmini yo'lga qo'yishga tizimli yondashuv mahalliy va mintaqaviy darajada yangi texnologiya sifatida yondashish mumkin. Birinchidan, ziyorat turizmi ma'lum bir hududda faoliyat yuritayotgan iqtisodiy sohalar majmuasiga kiritilishi mumkin. Ikkinchidan, ziyorat turizmi mahsuloti tarkibiga faqat ma'lum bir manzilda ishlab chiqariladigan tovarlar va xizmatlar kiritiladi. Iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish sharoitida ijtimoiy hamjamiyat mahalliy turizm tizimini samarali boshqarishga intiladi.

Mazkur tizimni yaratishda ma'lum bir hududda faoliyat yurituvchi, o'zaro aloqada bo'lgan barcha subyektlar: hududiy rejalashtirish markazlari mutaxassislari, shaharsozlar, arxitektorlar, iqtisodchilar, sotsiologlar, geograflar, monitoring va muvofiqlashtiruvchi mahalliy tashkilotlar turistik resurslarni aniqlash va ularni samarali boshqarish jarayonida faol ishtirok etishlari lozim. Ushbu chora-tadbirlar kompleksi mahalliy turizm tizimi xalqaro turizm bozorlariga chiqishni rejalashtirayotgan sharoitda ayniqsa muhimdir.

Tayanch so'z va iboralar: Ziyorat, Ziyoratchilar, Ziyorat turizmi, Ziyorat turizmi subyektlari, Ziyorat turizmi obyektlari, Ziyorat turizmi jarayonlari, Ziyorat turizmi industriyasi, Ziyorat turizmining turlari.

Mavzuga doir savol va topshiriqlar:

1. Ziyorat turizmi fanining predmeti va vazifalari nimalardan iborat?
2. Ziyorat turizmi bo'yicha olimlarning qarashlarini aytib bering.
3. Ziyorat turizmi subyektlari nimalardan iborat.
4. Ziyorat turizmi obyektlari nimalardan iborat.
5. Ziyorat turizmi jarayonlari nimalardan iborat.
6. Ziyorat turizmi industriyasini mohiyatini tushuntirib bering.
7. Ziyorat turizmining turlariga tushuncha bering.
8. Ziyorat turizmi fanining maqsadini tushuntirib bering.
9. Ziyorat turizmi fanining vazifalari nimalardan iborat.

II BOB. TURLI DINLARDA ZIYORAT TURIZMI ASOSINI TASHKIL ETUVCHI DINIY MAROSIMLAR

2.1. Dinlarning paydo bo'lish tarixi.

2.2. Xristianlik (katolik, provaslav va protestant) dinida ziyorat bilan bog'liq qoidalar.

2.3. Yahudiy dinida ziyorat qilish bilan bog'liq qoidalar.

2.4. Buddizm dinida ziyorat qilish bilan bog'liq qoidalar.

2.1. Dinlarning paydo bo'lish tarixi

Hozirgi kunda dunyo bo'yicha har yili 200 mln.dan ortiq kishilar aynan ziyorat maqsadida jahondagi turli ziyoratgohlar va o'zlari uchun muqaddas hisoblangan maskanlarga borib, diniy sayohatlarni amalga oshirmoqda. Statistik ma'lumotlarga nazar tashlaydigan bo'lsak, yiliga 150 mln xristianlar, 45 mln musulmonlar, 40 mln. buddistlar va sintoistlar, 30 mln induistlar diniy ziyorat maqsadida sayohat qiladilar.¹⁵

Zamonaviy davlatlar va ularning chegaralari ziyoratlarning mazmunini emas, balki faqat shaklini belgilaydi. Bunday diniy sayohatlarda asosiy narsa ikki, uch yoki to'rtta davlatga emas, balki bir g'oya, tarixiy, falsafiy va me'moriy ildizlar birlashtirgan mintaqaga tashrifdir. Bu bir nechta mamlakatlarni qamrab olgan har qanday ziyorat yoki diniy sayohatning asosidir.

Agar Misr, Iordaniya va Isroil haqida gapiradigan bo'lsak, unda bu hududlarga sayohatlar Isroil xalqining tarixi va Muso bosib o'tgan yo'l bilan uzviy bog'liqdir. Xuddi shu narsani Isroil - Iordaniya - Suriya - Livan yo'nalishi bo'ylab sayohat qilish haqida ham aytish mumkin.

Vatikan katolik dinining jahon markazi bo'lib, Rimning markazida joylashgan sayyoradagi eng kichik shtatlardan biri hisoblanadi. U yerga ziyoratchi turistlar Papani, Avliyo Pyotr soborini, Vatikan muzeylarini, shiftini Mikelanjeloning o'zi chizgan Sistina kapellasini ko'rish uchun borishadi. Vatikanga kirish uchun kiyinish qoidalariga qat'iy rioya qilish talab qilinadi. Jumladan, qisqa yubkalar, shortiklar, futbolkalar kiyish

¹⁵Bozarov N. Ziyorat turizmi tarixi va uning turizm sohasida tutgan o'rni. Academic Research in Enducational Sciences. Volume 3. Issue 12. 2022. 541 b.

taqiqlanadi. Shuningdek, u yerda uzoq navbatlarning oldini olish uchun muzey chiptalarini oldindan onlayn harid qilish imkoniyati yaratilgan.

Quddus dunyodagi eng afsonaviy ziyorat turizmi rivojlangan shaharlardan biri bo'lib, ming yillar davomida ziyoratchilarni o'ziga jalb qilib kelmoqda. Bu yerda, turistlar Ibrohimiy dinlar, ya'ni yahudiylik, nasroniylik va islom dini vakillari uchun muqaddas bo'lgan joylarni topish mumkin. Bu yerda turistlar Yig'layotgan devor, Buyuk Hirod tomonidan qurilgan Ikkinchi Ma'badning qoldiqlari, Iso Masihning xochga mixlangan joyida qurilgan Muqaddas qabr cherkovini ko'rishi mumkin. Shuningdek, afsonaga ko'ra Muhammad payg'ambar osmonga ko'tarilgan tog' gumbazi masjidi islom olamining eng muhim ziyoratgohlaridan biri hisoblanadi. Xuddi shu qoya yonida uch din ham hurmat qiladigan Ibrohim alayhissalom o'g'lini qurbon qilishga hozirlik ko'rgan joy bor.

Makka islom olamidagi eng muhim ziyorat maskani hisoblanadi. Har bir haqiqiy mo'min umrida bir marta bo'lsa ham "haj" ya'ni Makka ziyoratiga borishni maqsad qiladi. Shahar markazida muqaddas Ka'ba joylashgan bo'lib, uning yonida butun dunyodan tashrif buyurgan musulmonlar ibodat qilish uchun to'planishadi.

Varanasi - buddizm, hinduizm va jaynizm uchun asosiy muqaddas shahar hisoblanadi. Afsonaga ko'ra, shahar muqaddas Gang daryosi qirg'og'iga tushgan Shiva xudosining ko'z yoshlari tufayli paydo bo'lgan. Varanasi aholisi va ko'plab ziyoratchilar Gang daryosini xudo deb bilishadi. Unda cho'milish ruh va tanani tozalaydi deb hisoblashadi. Xuddi shuningdek, yuqorida keltirilgan shaharlarning barchasi o'ziga xos ziyorat turizmini rivojlantirish salohiyatiga ega.

Diniy ziyorat o'rta asrlarga kelib, Salib yurishi shaklida o'ziga xos ommaviy xarakter kasb etdi. U musulmonlar qarshi kurash bayrog'i ostida, xristianlarning muqaddas joylarini ulardan ozod qilish shiori ostida o'tkazilgan. Ziyorat harakatlari XV – XVI asrlarda ancha faollashdi. Muqaddas yer (Quddus)ga borayotganlarning ko'pchiligi o'z maqsadlari va qiziqishlarini diniy ziyorat bilan niqoblashgan.

Uchta yirik dinlar va ular bo'yicha ayrim ma'lumotlar¹⁶

№	Din	Xristianlik	Islom	Buddizm
1	Paydo bo'lish vaqti va joyi	Eramizdan oldingi I asrda, Rim imperiyasi hukumronligi ostida bo'lgan Falastinda paydo bo'lgan.	Dunyo dinlarining eng yoshi bo'lib, VII asrda Arabiston yarim orolida yoki "Arablar yarim oroli"da – Al-Jazoirda paydo bo'lgan	Buddizm – dunyodagi eng yirik dinlar ichida qadimiy-laridan biri hisoblanib, mil. av. VI – V asrlarda Hindistonda vujudga kelgan.
2	Muqaddas kitobi	Injil – "Muqaddas kitob". Bibliya ikki qismga bo'lingan. Birinchi qism – "Eski ahd" – yahudiylar va nasroniylar hurmatga sazovor bo'lib, 50 ta kitobni o'z ichiga oladi. "Yangi ahd" – faqat xristianlar tomonidan hurmat qilinadi.	Musulmonlarning muqaddas kitobi "Qur'on" – Allohning kalomi, ilohiy xabarlar yozuvidir. Qur'onni odamlarga yetkazish maqsadida Muhammad s.a.v.ga farishta Jabroil orqali nozil bo'lgan.	Buddizm ta'limoti bir qator kitoblar shakliga keltirilgan to'plamlarda bayon qilingan. Ulardan eng asosiysi Tripitaka (yoki Tipitaka – «uch savat» ma'nosini anglatadi). U uch qismdan iborat bo'lganligi uchun shunday nom bilan atalgan. Bu manbaning qo'lyozma nusxasi Shri Lankada saqlanib qolgan.
3	E'tiqod qiluvchilar soni ¹⁷	2,4 mlrd.	1,9 mlrd.	521 mln.
4	Yo'nalishlari	Pravoslavlik Katoliklik Protestantizm	Sunniy Shialar	Xinayana Maxayana Lamaizm
5	Geografiyasi	Yevropa, Shimoliy va Janubiy Amerika, Markaziy va Janubiy Afrika, Avstraliya	Shimoliy Afrika, Janubiy-g'arbiy, Markaziy va Janubiy-sharqiy Osiyo	Janubiy, Janubiy-sharqiy va Sharqiy Osiyo.

¹⁶ Beknazarov F.A. "O'zbekistonda ziyorat turizmi imkoniyatlaridan foydalanish samaradorligini oshirish yo'llari". Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. Samarqand 2023 y.

¹⁷ <https://zamin.uz/jamiyat/63469-dunening-eng-kup-tarqalgan-dinlari-haqida.html>

Yunoniston va Turkiya kabi ikki davlatning bir ziyorat safarida birlashishi ham juda aniq mafkuraviy asosga ega. Qoidaga ko‘ra, bunday sayohatlar Kapadokiya - Istanbul - Saloniki - Afina yo‘nalishi bo‘ylab amalga oshiriladi: bu havoriy Pavlus va uning va‘zlari yo‘lidir. masalan, Bolgariya - Gretsiya - Turkiya sayohati pravoslavlikning Vizantiya an‘analariga asoslangan. Ushbu uch mamlakatga tashrif buyurish slavyan avliyolari va ma‘rifatparvarlari Kiril va Metyusning xotirasi va xizmatlariga hurmatdir¹⁸.

Ziyorat ming yillar oldin paydo bo‘lgan birinchi turistik faoliyatdir. Zamonaviy tadqiqotchilarning aksariyati ziyoratni Iso Masih bilan bog‘lashadi, chunki IV asrda xristian dini Rim imperiyasida yetakchi dinga aylandi. O‘sha paytda, birinchi ziyorat Rim imperiyasidan Iso alayhissalom bilan bog‘liq joylarga boshlangan deb ishoniladi. Buyuk imperator Konstantinning onasi Yelena xristian ziyoratiga asos solgan deb hisoblanadi.

Keyinchalik, VI-VII asrlarda islom dini paydo bo‘lishi bilan Makka shahri musulmonlar uchun markaziy nuqtaga aylandi. Yevropa va Yaqin Sharq tarixida ziyorat nasroniylardan va ayniqsa islom madaniyatidan oldin mavjud bo‘lgan. Hatto qadimgi yunonlar va rimliklar ham o‘zlarining ibodatxonalarida ibodat qilishgan.

Katolik cherkovi muqaddas joylarga ziyorat qilishni katta (Muqaddas qabriston va Rim) va kichik (mahalliy ziyoratgohlarni ziyorat qilish)ga ajratdi. Ziyorat cherkov tomonidan cherkovga tavba qilishga keladiganlar uchun jazo sifatida qo‘llanilgan (ya’ni, muqaddas qadamjolarga uzoq muddatli ibodatlarini amalga oshirish, sadaqa va ro‘zani ko‘paytirish orqali ruhiy davolash (jazo) sayohati). Xristian dinining ensiklopedik lug‘atida: “XIII asrdan boshlab G‘arbiy Yevropaning dunyoviy sudlari qotillarni ziyoratga hukm qilishni boshladilar”, deb yozilgan. XIV-XV asrlarda Yevropa dunyoviy sudlari jinoyatchilarga katta ziyorat qilishdan voz kechib, faqat kichik ziyoratni saqlab qolganlar. Keyinchalik, G‘arbda aybdor zodagonlar gunohlaridan forih bo‘lish uchun o‘zlarining o‘rniga xizmatkorlarini yoki yollanma

¹⁸<https://tonkosti.ru/%D0%93%D0%B5%>

kishilarini ibodat qilish uchun yuborishga ruxsat berildi. Keyinchalik bunday ziyorat turi katta biznesga aylanib, yollanma ziyoratchilarning korxonalari tashkil etildi. Aybdor shaxslar Rim papasining roziligini olib mazkur ziyoratchilar bilan bitim imzolab “jazoni o‘tash” uchun sayohatga yuborilgan.

Bunday mashg‘ulotlarning markazi Venetsiya, keyinchalik Marsel bo‘lgan. Bu yerda yollanma ziyoratchilarga yo‘l ko‘rsatgich berilib, ular uzun soqol qo‘yib, kaligi (jigar yoki kulrang plashlar) kiyganlar, boshlariga keng chiziqli yunon shlyapasini kiyib, o‘zlari bilan tayoq, sumka va suv bilan to‘la qovoqni olishgan. Plash va shlyapaga qizil xoch yopishtirilgan. Safar oldidan ziyoratchi homiy (kema egasi) bilan shartnoma tuzib, unga ko‘ra “kema egasi” uni Muqaddas yerga olib borishi va qaytarib kelishi, va sayohat mobaynida esa “muqaddas joylarga hamrohlik qilishi, oziq-ovqat yetkazib berishi va ziyoratchini xavfsizligini ta’minlashi, u uchun musulmon hukumatiga soliq to‘lashga majbur bo‘lgan”.¹⁹

Ziyorat qilish muqaddas bo‘lgan ba’zi joylarni ziyorat qilish bilan bog‘liq. Bu monastirlar, ibodatxonalar, tabiiy ob’ektlar - tog‘lar, daryolar, ko‘llar, bog‘lar, g‘orlar bo‘lishi mumkin. Ko‘pincha ziyoratgohlar ma’lum bayramlarga to‘g‘ri keladi. Misol uchun, nasroniylikda ma’lum bir ma’bad yoki monastirga ziyorat qilish mahalliy hurmatga sazovor avliyoning xotirasini nishonlash kuniga to‘g‘ri kelishi mumkin. Ko‘plab ziyoratchilar Vatikanda Papaning Pasxa va’zini tinglash uchun yig‘ilishadi.

Bir qator olimlar, xususan A.Yu.Aleksandrovaning ishlariga asoslanib, ziyoratning quyidagi makromintaqalarini ajratish mumkin²⁰:

Dunyoning pravoslav mamlakatlari: Rossiya, Ukraina, Belarusiya, Moldova, Gruziya, Gresiya, Bolgariya, Ruminiya va boshqalar;

katoliklik va protestantizm hukmronligi, ko‘p sonli oqimlari xorijiy Yevropaning katta qismi;

Xristianlikning hukmron mavqeiga ega Shimoliy Amerika;

¹⁹ Kurbanova M.X. Ziyorat turizmiga ijtimoiy hodisa sifatida tarixiy-ilmiy yondashuv. Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar. № 00063. 1\2023. 420 b.

²⁰ <https://novainfo.ru/article/11566>

Xristianlik va mahalliy aholining an'anaviy xalq e'tiqodlari ustunlik qiladigan Lotin Amerikasi;

Islom dini ustunlik qiladigan Shimoliy Afrika;

Sharqiy va qisman G'arbiy Afrikada islom dini ustunlik qiladi, nasroniylik va an'anaviy xalq e'tiqodlari markazlari mavjud;

Islom, xristianlik va iudaizm anklavlari hukmron bo'lgan G'arbiy Osiyo;

Hinduizm, buddizm va islomning tarqalishi bilan, shuningdek, nasroniylik, sikhizm va jaynizm markazlari mavjud bo'lgan Janubiy Osiyo;

Buddizm, islom, nasroniylik va hinduizm anklavlarining mavjudligi ustunlik qiladigan Janubi-Sharqiy Osiyo;

buddizm, konfutsiylik, sintoizm hukmronlik qiladigan, nasroniylik va islomning bo'limlari mavjud bo'lgan Sharqiy Osiyoda;


Islom hukmronligi bilan Markaziy Osiyo.

Mazkur mintaqalarning har biri, birinchi navbatda, bir vaqtning o'zida bir nechta diniy konfessiyalar vakillarini qiziqtiradigan ziyorat markazlari tufayli mashhurdir: ular dindorlarning xalqaro oqimlari uchun ochiq va ko'pincha diniy ixtisoslikni ma'muriy, sanoat, madaniy va turistik markazlarning funksiyalari bilan birlashtiradi (2.1-rasm).

Islomda Haj ziyoratini umummilliylashtirishdan tashqari bir necha ixtiyoriy ziyoratlarni, hududiy chegaralardagi ba'zi shaxslar, madaniyatlar va dinlarga aloqador bo'lgan muqaddas qadamjolarini ziyorat qilish maqsadi tobora ortib bormoqda. Ularning aksariyati islom avliyolari va shahidlari bilan bog'liq joylarga qaratilgan bo'lsa, butun musulmon olamida avliyolarning qabrlari mahalliy, mintaqaviy yoki milliy ziyoratgohlar bo'lib hisoblangan.

Diniy qadamjolarining ko'pligi va tashrif buyurishlilik potentsiali yuqoriligi bo'yicha, musulmon dini vakillari orasida O'zbekiston ham alohida o'rin egallab, mintaqada 784 ta islom ziyoratgohi, 19 ta xristian ziyoratgohi va 8 ta buddizm madaniy merosi obyekti mavjud.²¹

²¹ Kurbanova M.X. Ziyorat turizmiga ijtimoiy hodisa sifatida tarixiy-ilmiy yondashuv. Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar. № 00063. 1\2023. 424 b.



2.1-rasm. Dunyo dinlarining 6 ta ko‘psonli mazhablari bo‘yicha o‘rish dinamikasi²²

Diniy qadamjolarining ko‘pligi va tashrifi buyurishlilik potentsiali yuqoriligi bo‘yicha, musulmon dini vakillari orasida O‘zbekiston ham alohida o‘rin egallab, mintaqada 784 ta islom ziyoratgohi, 19 ta xristian ziyoratgohi va 8 ta buddizm madaniy merosi obyekti mavjud.²³

2.2. Xristian (katolik, provoslav va protestant) ziyorat bilan bog‘liq qoidalar

Xristianlik dini buddaviylik va islom dinlari qatorida jahon dini hisoblanadi. Xristianlik asosan Yevropa, Shimoliy va Janubiy Amerika, Avstraliya qit‘alarida hamda qisman Afrika qit‘asining janubiy qismida va Osiyo qit‘asining sharqiy qismida tarqalgan. Xristianlik eramizning boshida Rim imperiyasining sharqiy qismida Falastin yerlarida vujudga keldi. Yangi eraning boshlanishi ham Iso Masihning dunyoga kelishi bilan bog‘liq.

²² Beknazarov F.A. “O‘zbekistonda ziyorat turizmi imkoniyatlaridan foydalanish samaradorligini oshirish yo‘llari”. Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. Samarqand 2023 y.

²³ Kurbanova M.X. Ziyorat turizmiga ijtimoiy hodisa sifatida tarixiy-ilmiy yondashuv. Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar. № 00063. 1\2023. 424 b.

Xristianlikning Sharqiy tarmogʻi boʻlmish pravoslaviyaning rivojlanishi jarayonida 14 Mustaqil (avtokefal) cherkovlari: Konstantinopol, Aleksandriya, Antioxiya, Quddus, Rus, Gruziya, Serb, Rumin, Bolgar, Kipr, Ellada, Albaniya, Polsha, Chexoslovakiya, Amerika cherkovlari shakllangan.

Xristianlikning yirik yoʻnalishlaridan biri katoliklardir. U Yevropa, Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasi mamlakatlarida tarqalgan.

Milodning I asri oʻrtalarida qator diniy aqidalar boʻyicha qizgʻin bahslar olib borilgan va ular xristianlikda turli yoʻnalishlarning shakllanishiga sababchi boʻlgan. Buning taʼsirida cherkovda qator ajralishlar - sxizmalar – vujudga kelgan. Natijada xristianlik tarkibida raqobat qiluvchi xristianlikning koʻrinishlari boʻlmish “eʼtiqodlar” (diniy talimotlar) vujudga kelgan. 1054-yilda xristianlik dini doirasida ilk yirik boʻlinish roʻy berib, natijada pravoslav (Sharqiy xristianlik) va katolik (Gʻarbiy xristianlik) cherkovlari yuzaga kelgan.

Pravoslavlik²⁴ tarixan xristianlikning sharqiy yoʻnalishi sifatida shakllangan. Mintaqa jihatdan asosan Sharqiy Yevropa, Yaqin Sharq va Bolqon yarim orolida joylashgan mamlakatlarda tarqalgan. Nomlanishi (yunoncha orthodoxia “toʻgʻri eʼtiqod” tushunchasining rus tiliga tarjimasida Pravoslavlik) ilk bor II asrda xristian mualliflari asarlarida uchraydi. Uning marosimlari, aqidalari va taʼlimoti u hukmron davlat dini boʻlgan Vizantiyada IV–XI asrlarda shakllangan.

Pravoslavlik taʼlimoti asoslarini Muqaddas kitob (Bibliya) va Muqaddas rivoyatlar (IV–VIII asrlarda oʻtkazilgan Butun Olam Soborlari qarorlari va Aleksandriyalik Afanasiy, Buyuk Vasiliy, Grigoriy Bogoslov, Ioann Damaskin, Ioann Zlatoust kabi nufuzli cherkov ilohiyotchilari asarlari) tashkil etadi. Ushbu cherkov Otalari taʼlimotning asosiy qoidalari va talablarini yaratishgan.

Pravoslavlik cherkovi bayramlar va roʻza tutishlarga katta ahamiyat beradi. Odatda katta cherkov bayramlari arafasida roʻza tutiladi. Uning mohiyati “inson ruhining poklanishi va yangilanishi”, diniy hayotdagi muhim hodisaga tayyorlanishdan iborat. Rus pravoslavligida uzoq vaqt

²⁴ А.Очилдиев ва бошқалар. Диншунослик асослари. Ўқув қўлланма. Тошкент – 2013 й.

davom etadigan roʻzalar soni toʻrtta boʻlib, ular Pasxadan avval, Pyotr va Pavel kunlaridan avval, Bibi Maryamning vafoti kunidan avval va Isoning tugʻilishi kunidan avval tutiladi.

Buyuk bayramlarning ichida Pasxa birinchi oʻrinni egallaydi. Undan soʻng pravoslavlik dinining oʻn ikki kunlik – oʻn ikki muhim bayrami boshlanadi, ular quyidagilar: Isoning tugʻilishi (Rojdestvo Xristovo), Olqishlash (Sreteniye), Isoni choʻqintirish (Kresheniye Gospodne), Iso qiyofasining oʻzgarishi (Preobrajeniye), Isoning Quddusga kirishi (Vxod Gospoden v Iyerusalim), Isoning meʼroji (Vozneseniye Gospodne), Muqaddas Ruhning tushishi yoki Troitsa kuni (pyatidesyatnitsa), Isoning xochini tiklash (Vozdvijeniye kresta Gospodnya), Hushxabarning nozil boʻlishi (Blagovesheniye), Bibi Maryamning tugʻilishi (Rojdestvo Bogoroditsi), Bibi Maryamning ibodatxonaga kirishi (Vvedeniye vo xram Bogoroditsi), Bibi Maryamning vafoti (Uspeniye Bogoroditsi).

Katoliklik²⁵ xristianlik dinining eng yirik yoʻnalishi hisoblanadi. “Katolik” soʻzi butun jahon, butun dunyo (umumiy, dunyoviy) degan maʼnoga ega. Bu yoʻnalish asosan Gʻarbiy, Janubiy–Gʻarbiy va Markaziy Yevropa, Pribaltika, Ukraina va Belorussiya va AQShda tarqalgan.

Katoliklik xristian dinining yoʻnalishi sifatida uning asosiy aqidalari va marosimlarini tan olishi bilan birga, taʼlimoti, marosimlarni amalga oshirish, tashkil topishida oʻziga xos xususiyatlarga ega. Katolik taʼlimotining asosini xristianlikda tan olingan Muqaddas kitob – Bibliya va Muqaddas rivoyatlar tashkil etadi. Lekin pravoslav cherkovidan farqli oʻlaroq katolik cherkovi ilk yetti Butun Olam Soborlarining qarorlari bilan bir qatorda keyingi soborlarning qarorlarini, bundan tashqari Papalar yoʻllagan noma(maktub)lari va farmonlarini ham Muqaddas rivoyatlar deb tan oladi.

Katolik Cherkovi Tashkiloti jiddiy ravishda markazlashganligi bilan ajralib turadi. Rim Papasi bu Cherkovning rahbari hisoblanadi. U din va axloq masalalari boʻyicha qoidalarni belgilaydi. Uning hokimiyati Butun Olam Soborlaridan yuqori turadi. Katolik Cherkovining

²⁵ А.Очилдиев ва бошқалар. Диншунослик асослари. Ўқув қўлланма. Тошкент – 2013 й.

markazlashganligi rivojlanishning dogmatik (qotib kolgan) tamoyilini tugʻdirdi, xususan, bu tamoyil diniy taʼlimotni noanʼanaviy ravishda talqin etilishida ifodalanadi.

Din markazi cherkovdir. Oʻrta asrlar oxirida Yevropada tarqalgan arxitekturaning Gotika uslubi katolik cherkovining rivojlanishi va mustahkamlanishiga koʻmaklashdi. Bayramlar va roʻza tutishlar (postlar) din- dorlar maishiy hayotini tartibga soluvchi marosimlarning muhim elementlaridir.

Rojdestvo katoliklarda “advent” deb ataladi. U avliyo Andrey kunidan keyingi birinchi yakshanbada – 30 noyabrda boshlanadi. Isoning tugʻilishi bayrami – eng tantanali bayramdir. Bayram yarim tundagi, ertalabki va kunduzgi uch ibodat bilan nishonlanadi va Iso Masihning Ota–Xudoning koʻksidan, Bibi Maryamning qornidan, dindorning koʻnglida ramziy maʼnoda tugʻilishini anglatadi. Oʻsha kuni taʼzim qilish uchun exromlarda goʻdak Isoning haykalchasi qoʻyilgan belanchaklar oʻrnatiladi.

Protestantlik.²⁶ Yevropa mamlakatlarida Katoliklikda kechayotgan jarayonlarga qarshi qaratilgan reformatsiya (lotincha reformatio – qayta tashkil qilish, oʻzgartirish) harakati natijasida vujudga keladi. Reformatorlar Katoliklik amallarini Injil ideallaridan qaytish deb talqin qiladilar. Oksford universiteti professori J.Viklif (1320–1384) Rim Papalarining Angliyadan olinadigan soliqlariga qarshi chiqdi, ingliz cherkovining fuqarolar ishlari boʻyicha Angliya qiroliga boʻysunishi lozimligi va Muqaddas kitobning cherkov rivoyatlaridan ustunligi toʻgʻrisidagi gʻoyalarini ilgari suradi. Bu gʻoyalarni ingliz “lollardlari” – “kambagʻal ruhoniylari” qoʻllab– quvvatladilar. Praga universiteti professori Yan Gus (1369–1415), J.Viklif gʻoyalaridan taʼsirlanib, cherkov boyliklaridan voz kechishi kerakligini targʻib qildi, cherkovga katta daromad keltiradigan va, Yan Gus fikriga koʻra, dindorlar ongini buzuvchi indulgensiyalarning sotilishiga qarshi chiqdi. Bu qarashlari uchun u 1415 yilda Konstans sobori qaroriga binoan gulxanda kuydirildi. Bu hodisadan norozi boʻlganlar gusitlar harakatiga qoʻshildilar. Bu

²⁶ А.Очилдиев ва бошқалар. Диншунослик асослари. Ўқув қўлланма. Тошкент – 2013 й.

harakt rasmiy cherkov siquviga 11 yil davomida (1420–1431) bardosh berib, 1443 yilning noyabr oyida Bazel shahrida o‘tkazilgan soborni gusitlarga yon berishga majbur qildi.

Protestantlik dunyoviy kishilarni ruhoniylardan ajratmaydi, bu ta’limotga ko‘ra, barcha dindorlar ruhoniydir. Sirli marosimlardan faqat cho‘qintirish va non bilan tamaddi qilishni tan oladi. Dindorlar Rim Papasiga bo‘ysunmaydilar. Ibodat va’z o‘qish, birgalashib ibodat qilish va diniy qo‘shiqlar (psalomlar) aytishdan iborat. Protestantlar Bibi Maryamni, a’rofni tan olmaydilar, tarkidunyochilik, cho‘qintirish, ruhoniylar kiyadigan kiyimlarni, ikonalarini rad etadilar.

2.3.Yahudiy dinida ziyorat qilish bilan bog‘liq qoidalar²⁷

Yahudiylik dunyodagi eng qadimiy milliy dinlardan biri hisoblanadi. Yahudiylik taxminan mil.avv. 2 - ming yillikda Misrda paydo bo‘lgan. Hozirda dunyo bo‘yicha taxminan 15-20 million kishi yahudiylikka e’tiqod qiladi. Ulardan 4,4 millioni Isroilda, 6 millioni AQShda, qolganlari esa Yevropa va dunyoning boshqa mamlakatlarida istiqomat qiladi. Yahudiylikning muqaddas kitoblarida Bani Isroil bilan Tangri orasidagi “ahd”ga keng o‘rin berilgani uning eng muhim xususiyatlaridan biridir. Shuning uchun ham, bu din “Ahd” dini sifatida ham e’tirof etiladi.

Yahudiylik yagona Xudoga, muqaddas kitobga va payg‘ambarlarga imon keltirilishi bilan milliy dinlardan, milliy lashtirilishi bilan esa, ilohiy dinlardan ajralib turadi. Yahudiylikda diniylik va milliylik o‘zaro birlashib ketgan bo‘lib, ularni bir-biridan alohida tushunish mumkin emas.

Diniy marosim va bayramlar ham sinagogalarda amalga oshiriladi. Yahudiylikda ko‘plab diniy marosim va bayramlar bo‘lsa-da, ular ahamiyati jihatidan bir–biridan farq qiladi. Yahudiylarda Rosh Ashona, Yom Kipur, Pesax, Shavuot, Sukkot, Simxa Tora, Purim, Hanukka va boshqa shu kabi diniy va milliy bayramlar (ibr. –Yom tov – yaxshi kun) mavjud.

²⁷ А.Очилдиев ва бошқалар. Диншунослик асослари. Ўқув қўлланма. Тошкент – 2013 й.

Yahudiylik Markaziy Osiyoda boshqa dinlar qatori teng huquqqa ega bo'lgan. Ma'lumotlarga ko'ra, ilk sinagoga Buxoroda VIII asrda qurilgan. XII asrgacha yahudiylar aholining himoya qilinuvchi qatlami - zimmiylar deb atalgan. Markaziy Osiyo Chor Rossiyasi tomonidan bosib olingach, Rossiyaning Yevropa qismidan savdo, tijorat qilish maqsadida ko'plab yahudiylar hozirgi O'zbekiston hududiga ko'chib kelishdi. Yahudiylarning yurtimizga kirib kelishi Ikkinchi jahon urushi davrida yanada kuchaydi. Ma'lumotlarga ko'ra, o'sha yillari Rossiya, Moldaviya, Ukraina va Belorussiyadan deyarli 180 ming yahudiy O'zbekistonga ko'chib keldi.

Bugungi kunda yahudiylar asosan Buxoro, Samarqand va Toshkent kabi yirik shaharlarda istiqomat qiladilar. Mamlakatimizda Adliya vazirligidan ro'yxatdan o'tgan 8 ta yahudiy sinagogasi, 5 ta yahudiy milliy-madaniy markazi, shuningdek, Yahudiylar tarixi muzeyi faoliyat olib bormoqda.

2.4. Buddizm dinida ziyorat qilish bilan bog'liq qoidalar²⁸

Buddaviylik - uchta dunyo dinlari ichida eng qadimiysi hisoblanib, eramizdan avvalgi VI-V asrlarda Hindistonda yuzaga kelgan. Buddaviylik bugungi kunda e'tiqod qiluvchilar soniga ko'ra, xristianlik, islom dinidan keyingi o'rinda turadigan jahon dinlaridan biri hisoblanadi. Hozirgi davrda buddaviylik Janubiy, Janubiy-sharqiy, Sharqiy Osiyo mamlakatlari Shri Lanka, Hindiston, Birma, Tailand, Laos, Mo'g'uliston, Kambodja, V'etnam, Xitoy, Singapur, Butan, Nepal, Malayziya, Koreya, Yaponiya, qisman Yevropa va Amerika qit'asi, Rossiyaning Tuva, Buryatiya, Qalmiqiston kabi hududlarida keng tarqalgan. 700 milliondan ortiq kishi buddaviylikning turli yo'nalishlariga e'tiqod qiladi. Hozirda buddaviylik Yaponiyaning davlat dini hisoblanadi.

Buddaviylik milodning I asrida Xitoyga tarqalgan bo'lsa, IV asrda Koreyaga, VI asrda Yaponiyaga, VII asrda Tibetga yoyildi. Shunday bo'lsa-da, XII–XVI asrlarda Mo'g'ulistonga, XVI–XVII asrlarda

²⁸ А.Очилдиев ва бошқалар. Диншунослик асослари. Ўқув қўлланма. Тошкент – 2013 й.

Buryatiya va Tuvaga, X–XX asrlarda Amerika va Yevropa qit’asiga kirib bordi. XII–XIII asrlarda Hindistonning Shimoliy hududida Boburiylar sulolasi xukmronligi o’rnatilishi va islomning tarqalishi, qolgan hududlarda hinduiylik dinining to’la qaror topishi natijasida buddaviylik o’zi paydo bo’lgan Vatani Hindistondan siqib chiqarilgan.

Buddaviylik miloddan avvalgi VI–V asrlarda Shimoliy Hindistonda vujudga keldi. Bu davrga kelib ko’p xudolikka asoslangan vedachilik, braxmanlik, jaynizm yangi ijtimoiy sharoitga javob bera olmay qolgan edi. Buddaning bo’ysunish va itoatkorlik, azob–uqubatlardan qutulishning asosiy yo’li, aql farmoniga bo’ysunish orqali inson oliy saodatga erishishi mumkinligi haqidagi g’oyalari o’sha davr ijtimoiy-siyosiy va ma’naviy hayotini yorqin aks ettirar edi. Buddaviylar har oyda ikki marta “Tiyilish kuni” marosimini o’tkazadilar. Ibodatdan oldin muattar hid taralib turishi uchun Buddha haykali atrofiga gullar qo’yilib, shamlar yoqilgan. Ibodat Buddha haykaliga qarab bajariladi. Buddaviy rohiblar muqaddas kitobdan parchalar o’qishadi. Marosim tugagach, rohiblar ibodatga kelgan kishilar ustiga, ular o’z navbatida yerga suv sepadilar. Shu yo’l bilan rohiblar bilan oddiy kishilar o’zlaridagi yaxshi hislatlarni o’zaro baham ko’rishga intilishlarini namoyish etadilar.

Markaziy Osiyo xalqlari qadimgi tarixi va madaniyati rivojida buddaviylik muayyan o’rin egallaydi. Bunga Markaziy Osiyo hududida joylashgan Dalvarzintepa, Quva, Zartepa, Qorovultepa, Ayritom mavzellaridan topilgan arxeologik qazilmalar, jumladan, Shakyamuni sanamlari, haykalchalar, ramziy g’ildiraklar va stupa qoldiqlari, shuningdek, marmardan yasalgan va juda yaxshi saqlangan Buddha haykali aniq dalolat beradi.

Qadimgi Termiz harobalaridan topilgan yirik ibodat majmuasida 25 ta Buddha kompleksi (Buddaning tikka turgan, o’tirgan va yotgan holdagi haykallari 3–4 metrgacha balandlikda loy–ganchdan ishlangan) borligi aniqlangan.

Qoratepada topilgan arxeologik yodgorliklar yer usti va g’or ichida joylashgan ibodatxona, saroy, rohib (zohid) uchun moslashtirilgan hujralardan iborat bo’lgan. Arxeologik qazilmalar natijasida topilgan

yodgorliklar buddaviylikning o'sha davrdagi mavqei haqida xabar beradi. Shuningdek, ajdodlarimizning yuksak moddiy madaniyati, dini, urf–odati, tafakkur tarzi haqidagi tasavvurimizni boyitishga xizmat qiladi.

Fayoztepa “vihara” (sanskritcha – kulba, boshpana, buddaviy rohiblarning yomg'ir mavsumi vaqtida yashaydigan kulba, hovli va bog'dan iborat bo'lgan joyi) uslubidagi ibodatxona bo'lib, uning markazida diniy marosimlar o'tkazilgan. Ibodatxona bilan yonma–yon joylashgan stupadan oltin suvi yurgizilgan, sopol va marmardan yasalgan haykallar topilgan. Bu yerdan marmartoshdan nafis ishlov berib yasalgan muqaddas “Boddxa” daraxti ostida o'tirgan Buddha va uning ikki tomonida turgan ikki rohib haykali ham topilgan.

Qoratepa harobasidan shimoliy Baqtriyadagi eng katta va mahobatli stupa topilganini alohida qayd etish lozim. Bizgacha stupaning asosi hamda zinapoyaning ikki tomonida joylashgan kichik stupalar, o'sha davrga tegishli yozuv namunalari saqlanib qolgan.

Kushon podsholigining dastlabki poytaxti Dalvarzintepa o'rnida bo'lgan. Kushonlar hukmdori Kanishka davrida Dalvarzintepa shahar sifatida shakllanib, savdo–sotiq markazlaridan biriga aylangan. Surxondaryo viloyati Sho'rchi tumanida joylashgan Dalvarzintepa (qalinligi 10 metrgacha bo'lgan qudratli mudofaa devori bilan o'ralingan qal'a shahar) majmuasidan Buddha ibodatxonasi va aslzodalar dafn etilgan dahma, shuningdek, oltin xazina to'ldirilgan ikki yarim metrli sopol ko'za topilgan. Bular buddaviylikning o'sha davr xalqlari ijtimoiy–ma'naviy hayotidagi mavqei va boshqa mahalliy dinlar o'rtasida egallagan o'rnini ko'rsatadi.

Tayanch so'z va iboralar: Diniy ziyorat, Xristianlik dini, Katolik, Provaslav, Protestant, Yahudiy dini, Buddizm dini, dinlarda ziyorat bilan bog'liq qoidalar.

Mavzuga doir savol va topshiriqlar:

1.Diniy ziyorat deganda nimani tushunasiz?

2. Dinlarning paydo bo'lish tarixi haqida tushuncha bering.
3. Olimlar ziyoratning qanday makromintaqalarga ajratgan?
4. Xristianlik dinida ziyorat bilan bog'liq qoidalar nimalardan iborat.
5. Xristianlikda qanday yo'nalishlar shakllangan.
6. Yahudiy dinida ziyorat qilish bilan bog'liq qoidalar ayting.
7. Buddizm dinida ziyorat qilish bilan bog'liq qoidalar aytib bering.
8. O'zbekiston qaysi hududlarida qadimgi davrda buddaviylik shakllangan.

III BOB. ISLOM DINIDA ZIYORAT TURIZMI ASOSINI TASHKIL ETUVCHI DINIY MAROSIMLAR

3.1. Islom dinidagi turli yondashuvlar, oqimlar va konfessiylarning o'ziga xos jihatlari.

3.2. Islom dinida ziyorat qilish bilan bog'liq qoidalar: haj va umra ziyorati, turli darajadagi ziyoratgohlarni ziyorat qilish.

3.1. Islom dinidagi turli yondashuvlar, oqimlar va konfessiylarning o'ziga xos jihatlari

Ziyorat turizmi ma'naviyat olamiga yaqinlashish imkonini beradi va o'z-o'zini bilish uchun barcha imkoniyatlarni yaratadi. Shu tufayli, butun dunyo mamlakatlari turizmning ushbu turini rivojlantirish keng imkoniyatlar yaratishmoqda. Ziyorat turizmining dunyo mamlakatlari bo'yicha rivojlanish tendensiyalariga e'tibor beradigan bo'lsak, Vatikan, Quddus (Isroil), Makka (Saudiya Arabistoni), Varanasi (Hindiston), Mexiko shahri (Meksika), Santyago de Kompostela (Ispaniya), Lurd (Fransiya), Fotima (Portugaliya), Kioto (Yaponiya) va Aparekida do Norte (Brazilya) shaharlari yetakchilik qilayotganligini ko'rishimiz mumkin.


Global Economic Impact Of Muslim Tourism And Future Growth Projection max'lumotlariga ko'ra musulmon turistlarining eng ko'p foyda oladigan mamlakatlari Yaqin Sharq mintaqasiga to'g'ri kelmoqda. Global Economic Impact Of Muslim Tourism And Future Growth Projection tadqiqot natijalariga ko'ra 2060-yilga kelib 3 milliard inson o'zini musulmon deb hisoblay boshlaydi va bu yer yuzidagi har uchdan bir kishini tashkil etadi. Dunyo musulmonlarning global iqtisodiy darajasi 32 foizdan 70 foizgacha o'sishi bashorat qilinmoqda. 2030 yilga kelib musulmonlar dunyo aholisining 25% ni tashkil qilishi hamda jahonda eng tez o'sayotgan diniy jamoaga aylanishi kutilmoqda. Ba'zi musulmon mamlakatlari bozorlarida harid qobiliyati o'sib borishi va yangi haridorlar sonining ortishi tufayli moddiy jihatdan farovon bo'lgan o'rta sinf shakllanmoqda. Buning natijasida xalqaro

turizmnda musulmon sayyohlar ulushi ortib borishiga xizmat qiladi (3.1-rasm).

Musulmon sayyohlarning aksariyati asosiy aholisi musulmon bo'lgan mamlakatlarga, jumaldan ularning 60% Osiyoga (Yaqin Sharq bilan birga) sayohat qilishadi. O'z navbatida Germaniya musulmon sayohatchilar uchun Yevropadagi eng ommalashgan yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Musulmon sayohatchilarning soni yuqori darajada o'sib borayotgan bo'lsada, lekin ayol sayohatchilarning o'rtacha ulushi oshmagan. Musulmon sayohatchilar ancha yosh bo'lib, 75% ni 25 yoshdan 44 yoshgacha bo'lganlar tashkil etadi. Ularning aksariyatini oliy ma'lumotga ega bo'lganlar tashkil etadi.²⁹

Musulmon sayohatchilarning faoliyati: Shaharlarni ziyorat qilish yoki sayohatlar paytida haridlarni amalga oshirish, diqqatga sazovor joylar va muzeylarga ko'proq e'tibor berishdir.



3.1-rasm. Musulmon sayohatlaridan eng ko'p daromad olgan 5 mamlakat, mlrd. doll.³⁰

²⁹ Global Muslim Travel Index 2018. Mastercard-Crescentrating 2018.

³⁰ State of The Global Islamic Economy 2018/2019 Report, Thomson Reuters

Haj va umra musulmonlarning eng asosiy ziyoratlari hisoblanadi. Saudiya Arabistoniga bu ikki ziyoratni amalga oshirish uchun har yili ikki yuzga yaqin mamlakatdan sakkiz millionga yaqin odam tashrif buyuradi. Ushbu ziyoratlardagi chet elliklar barcha ziyoratchilarning sakson foizidan ko'prog'ini tashkil qiladi. Yuqori talab tufayli har bir davlat uchun kvota mavjud va shuningdek, hajga boradigan shaxslarga besh yilga moratoriy e'lon qilinadi. Saudiya Arabistoni Vision 2030 dasturi doirasida ziyoratchilar sonini o'ttiz millionga oshirishni rejalashtirmoqda.

Saudiya Arabistoni yoqilg'i qazilma boyliklari bo'yicha dunyodagi eng yirik eksportchi hisoblanib, mamlakat katta infratuzilmaga, tashrif buyuruvchilar uchun zarur bo'lgan barcha qulayliklarga hamda zamonaviy texnologiyalarga ega. Mamlakat haj va umra ziyoratchilariga 2030 yilning Vision dasturini amalga oshirish va yuqori darajadagi xizmatlarni ko'rsatish uchun barcha zamonaviy texnologiyalarni qo'llamoqda. Maqsad – 2022 yilda umra ziyoratchilarining sonini 15 millionga va 2030 yilga kelib 30 millionga oshirish hamda maqsadli haj ziyoratchilarining sonini 2030 yilga kelib besh millionga yetkazish.³¹

Musulmonlar uchun qulay sharoitlarga ega bo'lgan turistik destinatsiyalar bo'yicha har yili Mastercard & Crescentrating "Global Muslim Travel Index (GMTI)" bo'yicha hisobotlar e'lon qilib boradi. 2019-yilgi natijalarga ko'ra to'qqizinchi marta Malayziya musulmon turistlar uchun eng yaxshi turistik yo'nalish deb topildi. Indonezya so'ngi yillarda bu indeks bo'yicha ko'rsatkichlarini yaxshilab Malayziyaga tenglashdi. Keyingi o'rinlarni Turkiya, Saudiya Arabistoni, BAA gi egalladi³².

Saudiya Arabistoni azaldan, islomning beshinchi arkoni bo'lib hisoblangan Haj va Umra ibodatining Vatani hisoblanadi. Makkai mukarrama va Madinai munavvaradagi muqaddas qadamjolarini ziyorat qilish, ibodatlarni amalga oshirish butun dunyo musulmonlarining

³¹ Haj and Umrah: Developments and Opportunities Prepared by Thomson Reuters and Dinar Standard JANUARY 2017. 8 p.

³² 2019 by Islamic Tourism Centre, Malaysia// http://www.sesric.org/imgs/news/2228_MR_DAUD.pdf

orzusidir. Har yili bu yerga turli mamlakatlardan millionlab ziyoratchilar tashrif buyuradilar.

3.2. Islom dinida ziyorat qilish bilan bog‘liq qoidalar: haj va umra ziyorati, turli darajadagi ziyoratgohlarni ziyorat qilish

Boshqa dinlarda bo‘lgani kabi, islom dinida ham o‘ziga xos marosim va ziyoratlarlar mavjud. Shulardan biri “Iyd al–fitr” yoki “Iyd Ramazon” deb nomlanuvchi musulmonlar bayrami hijriy oyi hisobida ramazon oyi tugashi bilan nishonlanadi.

“Iyd al–adho” - Qurbon hayiti deb nomlanuvchi ushbu bayram iyd al–fitrdan taxminan 70 kun keyin nishonlanadi. Ushbu bayram Ibrohim payg‘ambar nomi bilan bevosita bog‘liqdir. Ushbu bayram qo‘y, mol va tuya so‘yilib nishonlaniladi. “Iyd al–adho” kuni hojilar islom dinining besh ruknidan biri bo‘lgan haj ibodatini amalga oshiradilar.

Musulmonlar uchun hajning haqiqiy markazi Makkadadir. Islom qonunlariga ko‘ra, musulmonning axloqiy tamoyillari orasida Makkaga farz bo‘lgan hajni o‘z ichiga olgan beshta asos (ustun) mavjud. Shundan so‘ng, musulmon boshqa, ijtimoiy ierarxiya va umumbashariy hurmatning yuqori darajasiga o‘tadi va badavlat odamlar zaiflik yoki boshqa yaxshi sabablarga ko‘ra, xizmatchi yoki advokatni Hajga yuborishlari mumkin.

Muqaddas joy Al-Harom masjidi bo‘lib, unda Ka’ba joylashgan - kulrang-yashil granit bloklaridan iborat katta kub shaklida muqaddas joy. U kvadratga asoslangan bo‘lib, uning diagonalini shimoldan janubga, ikkinchisi esa g‘arbdan sharqqa yo‘naltirilgan. Ka’ba burchaklaridan biriga qora tosh o‘rnatilgan. Ziyoratning avj nuqtasidagi asosiy harakat - Ka’bani soat miliga teskari yo‘nalishda tavof qilish va qora toshga tegish. Al-Harom dunyodagi eng katta masjidlardan biridir. Bu yerda har yili zul-hijra oyining birinchi o‘n kunligida 2 milliongacha ziyoratchilar yig‘iladi.

Haj marosimining boshqa bir xil darajada muhim tarkibiy qismlari mavjud, masalan, shaytonni toshbo‘ron qilish, Arafat tog‘ida turish, qurbonlik qilish. Musulmon ziyorati uchun ikkinchi eng muhimi - bu

paygʻambarning oʻzi dafn etilgan Madina shahri. Bu yerda masjid boʻlib, u yerda Muhammad paygʻambar yashagan va uning qabri boʻlgan guruch kulbasi oʻrab olingan. Islomning koʻp muqaddas joylari Quddusda joylashgan. Bu Qoya gumbazi deb ataladigan ibodatxona, sakkiz burchakli masjid, Muhammad paygʻambar Makkadan boshqa uzoq masjidlarga afsonaviy tungi sayohati paytida olib kelingan muqaddas joy.

Tayanch soʻz va iboralar: Islom dini, yirik dinlar, oqimlar, konfessiyalar, koʻpsonli mazhablar, Islom dinida haj, Islom dinida umra ziyorati, Al-Harom masjidi.

Mavzuga doir savol va topshiriqlar:

1. Dinlarning paydo boʻlish tarixini tushuntirib bering.
2. Uchta yirik din toʻgʻrisida tushuncha bering.
3. Islom dinidagi turli yondashuvlar oʻziga xos jihatlari nimalardan iborat?
4. Islom dinidagi turli oqimlar va konfessiyalarning oʻziga xos jihatlari tushuntirib bering.
5. Islom dinida ziyorat qilish bilan bogʻliq qoidalar toʻgʻrisida tushuncha bering.
6. Islom dinida haj va umra ziyoratining ziyorat turizmidagi oʻrni nimalardan iborat.
7. Islom dinida turli darajadagi ziyoratgohlarni ziyorat qilishning oʻziga xos xususiyatlarini aytib bering.

IV BOB. ZIYORAT TURIZMINING TASHKILIY-XUQUQIY ASOSLARI

4.1. Ziyorat turizmining tashkiliy asoslari.

4.2. Ziyorat turizmining xalqaro huquqiy asoslari.

4.3. Ziyorat turizmining milliy huquqiy asoslari.

4.4. O'zbekiston Respublikasida ziyorat turizmini jadal rivojlantirishning me'yoriy huquqiy jihatlari.

4.1. Ziyorat turizmining tashkiliy asoslari

Turizm sohasi jahon iqtisodiyotining eng faol va jadal sur'atlar bilan rivojlanayotgan tarmoqlardan biri bo'lib, turizm neft sanoati va avtomobilsozlik sanoatidan keyin eksport bo'yicha yetakchi uchta sohadan biri hisoblanadi. Hozirgi vaqtda turizm jahon iqtisodiyotining eng daromadli sohasi ekan, quyidagi muhim jihatlari mazkur industriyani rivojlantirish uchun asos bo'ladi:

kirish turizmining ulushini barqaror oshirish;

turizm industriasini resurslar bilan ta'minlash va undan foydalanish darajasi o'rtasidagi nomutanosiblikni kamaytirish;

milliy turistik mahsulotlarni targ'ib qilish asosida ommalashtirish;

ichki turizmni davlat tomonidan har tomonlama qo'llab-quvvatlash.

Ma'lumki, turizm industriyasi ma'lum bir davlat tashkilotlari va xizmatlari bilan kompleks ishlaydi. Xususan, huquqiy jihatdan (qonunchilik va me'yoriy-huquqiy bazani, bojxona va b.larni qamrab oladi), moliyaviy-iqtisodiy jihatdan (soliq, sug'urta xizmatlari, moliyaviy munosabatlar va b.), kadrlar bilan ta'minlash jihatdan (turizm sohasi uchun malakali kadrlar tayyorlash, samarali ilmiy-tadqiqotlar olib borish va b.) kabilar bilan uzviy aloqadorlikka ega. Shuni alohida ta'kidlab o'tish joyizki, turizm sohasining davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi bu aholining turizm xizmatlariga bo'lgan ehtiyojlarini rag'batlantirishdan iborat. Davlatning turizm sohasidagi siyosatining samaradorligi turizm sohasining rentabelligi va uning milliy iqtisodiyotga qo'shayotgan hissasida namoyon bo'ladi.

Dunyoda turizm mamlakatlar iqtisodiyotidagi barcha tegishli infratuzilmalarning rivojlanishiga bevosita va bilvosita ta'sir ko'rsatadigan ijtimoiy-iqtisodiy jarayon sifatida qaralmoqda. Bugungi kunda, zamonaviy turizm transport, ovqatlantirish, ijtimoiy va xizmat ko'rsatish sohalarining yuqori darajada rivojlanishiga asoslanadi. Bu esa natijada turizmni iqtisodiyotning yuqori daromadli, strategik tarmog'iga aylantiradi.

Statistik va tahliliy ma'lumotlarga ko'ra, turizm sohasi iqtisodiyotning deyarli barcha tarmoq va sohalariga ijobiy ta'sirini ko'rsatayotganligiga guvoh bo'lishimiz mumkin. "Turizm sohasi mahalliy aholi yoki xorijiy fuqarolarning tashrif buyurgan mamlakat yoki mintaqalarning tarixi, tarixiy-arxitektura ob'ektlarlari, urf-odatlar, an'analari, marosimlari, etnografiyasi bilan tanishishi, dam olishi va davolanishi uchun sharoitlar yaratib beradi va shu orqali mamlakat yoki mintaqqa iqtisodiyotiga bevosita valyuta oqimini olib keladi, mahalliy aholining yashash sharoitini yaxshilashga ko'maklashadi"³³.

Dunyo mamlakatlari kabi, O'zbekiston Respublikasida ham turizm sohasini rivojlantirish, turistik xizmatlar sifati, samaradorligi, assortimenti va ularning eksport xajmini oshirish zamon talabi bo'lib qolmoqda. Ko'p yillik olib borilgan ilmiy-tadqiqotlar natijalariga ko'ra turizm sohasida yaratilgan bitta ish o'rnini turdosh tarmoqlarda yettitagacha yangi ish o'rlarining yaratilishiga olib keladi. Shunday ekan ushbu sohada barqaror o'sish sur'atlariga erishish mamlakatimiz aholisining ish bilan bandlik darajasini oshirishimiz imkoniyatini yaratadi.

Bugungi kunda, mamlakatimizda turizmni rivojlantirish borasida olib borilayotgan islohotlar barcha turizm turlarini rivojlantirishga asos yaratmoqda. Xususan, Respublikamizning deyarli barcha hudadlarida ekoturizm, ziyorat turizmi, gastronomik turizm, tarixiy obidalar turizmi kabi turlarini rivojlantirish uchun katta turistik salohiyat mavjud.

³³ S.A.Abduhamidov. Mintaqaviy turizmning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. S.: 2021 y.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev turizmni izchil rivojlantirish istiqbollariga bag‘ishlangan yig‘ilishda “O‘zbekiston ham sayohat, ham ziyorat uchun qulay mamlakat. Chunki ona zaminimizda butun dunyoga ma’lum va mashhur bo‘lgan ajdodlarimiz mangu qo‘nim topgan. Ular qoldirgan boy ma’naviy madaniy merosga xalqaro maydonda qiziqish juda katta”³⁴, – deb ta’kidlagan edi. Haqiqatan ziyorat turizmini rivojlantirish va bu orqali turizm sohasini yangi bosqichlarga olib chiqish uchun mamlakatimiz boy turistik salohiyat va imkoniyatlarga ega.

Muayyan omillarning kombinatsiyasi turistik xizmatlar iste’molchilarining xatti-harakatlarining paydo bo‘lishi va harakterini belgilaydi. Ular quyidagi ko‘rsatkichlar bilan ifodalanishi mumkin:

- turizmning rivojlanishidagi miqdoriy tebranishlar;
- turizm geografiyasini tanlashdagi afzalliklar;
- ekskursiyani tashkil etishning qulay shakli;
- sayyohning tur narxi haqidagi fikrlari va boshqalar.

Turizmga ta’sir qiluvchi asosiy ijtimoiy omillar quyidagilar:

- jahon aholisining doimiy o‘sib borishi;

- urbanizatsiya darajasining o‘sib borishi;

- rivojlangan mamlakatlarda tug‘ilishning pasayishi;

- axolisi ko‘p bo‘lgan mamlakatlarda (Xitoy, Hindiston va b.)

daromadlarning o‘sishi;

- gender tengligi, jamiyatda ayollarning faolligining ortishi;

- texnologiya rivojlanishi bilan xo‘jalik ishlarining yengillashishi;

- ta’lim tizimi qamrovining kengayishi³⁵

O‘zbekistonda ziyorat turizmi bozorining rivojlanishini davlat tomonidan tartibga solib borish bozor mexanizmining stabil faoliyatini qo‘llab quvvatlash, sayyoxlik sohasini rivojlantirishga yo‘naltirilgan konsepsiyani yaratish, sayyohlik bozor sub’ektlari o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar va ijtimoiy- iqtisodiy aloqalarning o‘zaro muvofiqligini

³⁴ <https://uza.uz/uz/posts/turizmni-yanada-rivozhlantirish-masalalari-mu-okama-ilindi-03-10-2017>

³⁵ Megatrends underpinning tourism to 2020: Analysis of key drivers for change. P.24.

ta'minlash uchun tegishli sub'ektlari faoliyati va bozor xolatini davlatning tartibga soluvchi vositalari orqali ta'siri inobatga olinadi.

Bugungi kunda O'zbekiston iqtisodiyotida, uni boshqarishda har bir alohida tizim o'ziga xos tuzilmaga ega bo'lib, o'zaro ta'sir etuvchi xususiyatlari va munosabatlari bilan uyg'unligi, tizimli elementlar yig'indisi va bir butunlikdagi harakatlaridan tashkil topadi. O'zbekiston Respublikasi turizmini rivojlantirish davlat qo'mitasi tashabbusi bilan Din ishlari bo'yicha qo'mita, O'zbekiston musulmonlar idorasi, O'zbekiston savdo sanoat palatasi, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi hamda Islom sivilizatsiyasi markazi va boshqa bir qator tegishli institutlar hamkorligida ziyorat turizmini rivojlantirishga o'zlarining salmoqli hissalarini qo'shib kelmoqdalar. Bu o'z navbatida O'zbekistonda turizmni rivojlantirish konsepsiyasining samarali natijalarga erishishga xizmat qiladi.


Shuni ta'kidlash joizki, mamlakatimizda turistik faoliyat qonunchiligi xalqaro huquq tamoyillari va me'yorlari asosida yaratildi. Milliy iqtisodiyotimizda turizm industriyasi sohasida tashkiliy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy muhitni shakllanishi va rivojlanishining asosiy jihatlari nafaqat turizm bozorlari ishtirokchilari faoliyati va turistik mahsulot iste'molchilarining huquqlarini himoya qilish bilan bog'liq muammo va masalalarni, balki xizmat ko'rsatish sifati, turizmda xavfsizlikni ta'minlash, xalqaro standartlarga amal qilish masalalarini mujassam etgan sayyohlik tarmog'ining keng kamrovli qonunchilik negizini shakllantirish va rivojlantirishdan iborat bo'ldi.

4.2. Ziyorat turizmining xalqaro huquqiy asoslari

Turizmning an'anaviy yo'nalishlardan biri bo'lgan ziyorat turizmi hozirda katta ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, musulmon xalqlarning tez sur'atlarda ko'payib borishi hamda ularning daromadlarining doimiy o'sib borayotganligi halol turizmning jadal rivojlanishiga xizmat qilmoqda. Shuning uchun islom shariatiga mos sayohat yo'nalishlarini tashkil etishga nafaqat musulmon davlatlarida balki dunyoning turizmi rivojlangan qator davlatlarida ham alohida e'tibor qaratilmoqda.

Xususan, Saudiya Arabistoni, Turkiya, Misr, Malayziya kabi musulmon mamlakatlarida halol standartlari asosida ziyorat turizmni ommalashtirish, dunyo musulmon davlatlari orasida keng targʻib qilish uchun tegishli islohotlar amalga oshirilmoqda. Shuningdek, AQSH, Germaniya, Angliya, Fransiya, Ispaniya va boshqa qator davlatlarida ham halol turizm standartlariga mos turlar jadal rivojlanib bormoqda.

Jahonda ziyorat turizmning ikkita asosiy yoʻnalishi mavjud boʻlib, ularning har biri oʻziga xos xususiyatlarga ega (5-rasm). Birinchi holatda, odamlar oʻzlarining maʼnaviy dunyosini boyitish, dunyoqarashini kengaytirish va din tarixi boʻyicha yangi bilimlarga ega boʻlishga intiladi. Koʻpgina mamlakatlardagi diniy binolar bir vaqtning oʻzida ularning asosiy diqqatga sazovor joylari boʻlganligi sababli, diqqatga sazovor joylar ziyorat turizmining mashhurligini yaqqol namoyon qiladi. Ikkinchi turdagi sayohatlar, ehtimol, maʼnaviy motivlar asosida sayohat qiladigan qiladigan odamlarga mos keladi.



4.1-rasm. Ziyorat turizmining asosiy yoʻnalishlari³⁶

³⁶ Beknazarov F.A. "Oʻzbekistonda ziyorat turizmi imkoniyatlaridan foydalanish samaradorligini oshirish yoʻllari". Iqtisodiyot fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertasiya. Samarqand 2023 y.

Turizmning juda ko'p turlari va shakllari mavjud bo'lib, ziyorat turizmi eng qadimgi hamda an'anaviy turistik yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Musulmonlar dunyodagi eng tez rivojlanayotgan hamda sotib olish qobiliyati yuqori bo'lgan o'rta sinf kengayib borayotgan diniy guruhdir. Shuningdek, musulmonlar orasida umumiy mushtarak qadriyatlar mavjud bo'lib, ular o'zlarining ehtiyojlarini qondiradigan boshqa jamoalarnikidan ancha kuchliroqdir.

Turizm bilan bog'liq munosabatlarni tartibga soluvchi normalarni ikkita katta guruhga bo'lish maqsadga muvofiq:

 xalqaro huquqiy normalar – Butunjahon turizm tashkilotining ustavi, turizmga oid deklaratsiya, konvensiya va bitimlarning normalari;

 alohida olgan davlatlarning milliy qonunchiligi normalari - turizmga oid qonunlar va qonunosti hujjatlari normalari.

Turizm sohasidagi xalqaro va milliy huquq normalari turistik munosabatlar ob'ektlarning huquqiy maqomini, turistik faoliyatning asosiy yo'nalishlarini, turistik xizmatlar turlarini, turizm sohasidagi davlatlararo munosabatlarning asosiy prinsiplarini, davlatlararo aloqalarning turlarini, davlat siyosatining muhim yo'nalishlarini, davlat organlarining vakolatlarini, turistlarning va turistik faoliyat sub'ektlarining huquq va majburiyatlarini, turistlar xavfsizligini ta'minlashning tashkiliy-huquqiy kafolatlarini, turizm to'g'risidagi xalqaro va milliy huquqiy hujjatlarni buzganlik uchun javobgarlikning turlarini belgilab beradi.

Hozirgi kunda davlatlararo munosabatlarni tartibga soluvchi muhim xalqaro huquqiy manbaa - bu Butunjahon turistik tashkiloti (BTT)ning ustavidir. BTT ustavi 1970-yilning 27-sentyabrida Madridda qabul qilingan, 51 davlat tomonidan ratifikatsiya qilingandan keyin 1974-yilning 1 noyabridan kuchga kirgan. Hozirgi kunda Tashkilotga 160 dan ortiq davlat a'zo. O'zbekiston Respublikasi 1993-yildan ushbu tashkilot a'zosi. 2004 yilda Samarqand shahrida BTT ning Buyuk ipak yo'li bo'yicha mintaqaviy Markazi tashkil etildi. 2014-yilning 1-3 oktyabr kunlari Samarqandda Tashkilot Ijroiya Kengashining 99-sessiyasi bo'lib o'tdi. O'zbekiston Respublikasi Tashkilotning haqiqiy a'zosi

(Tashkilotning assatsiyalashgan va qo‘shilgan a‘zolari ham bor) sifatida uning Ustavi bo‘yicha belgilangan barcha majburiyatlarni o‘z zimmasiga oldi va unda a‘zolarga berilgan huquqlardan samarali foydalanmoqda. Ustavga binoan BTTning asosiy maqsadi quyidagilar: iqtisodiy rivojlanishga, xalqaro miqyosda bir-birini anglashga, tinchlikka va farovonlikka, irqi, jinsi, tili va dinidan qat’iy nazar barcha insonlarning huquq va erkinliklarini hurmat qilish va ta‘minlashga hissa qo‘shish uchun butun jahonda turizmni qo‘llab-quvvatlash; ushbu maqsadga erishishda rivojlanayotgan davlatlarning turizm sohasidagi manfaatlariga alohida etiborni qaratish; o‘zining turizm sohasida yetakchilik rolni o‘ynashi uchun Tashkilot bilan BMTning tegishli organlari va ixtisoslashgan muassasalari bilan samarali hamkorlikni o‘rnatish va uni qo‘llab-quvvatlash, buning uchun Tashkilot BMTning Rivojlantirish Dasturi doirasida ishchanlik munosabatlarini o‘rnatish imkoniyatlarini izlashi, shuningdek, Dasturning ishtirokchisi va ijrochi agentligi sifatida uni amalga oshirishda qatnashishdir.

BTT Ustavida Tashkilotga a‘zolikka qabul qilish va undan chiqarishning shartlari va tartibi, a‘zolarning turlari, ularning huquq va majburiyatlari, Tashkilotning rahbar organlarining vakolatlari, qaror qabul qilish tartibi, Tashkilotning imtiyoz va immunitetlari belgilab berilgan³⁷. Turizm sohasidagi xalqaro munosabatlarni, o‘rnatish va rivojlantirish asoslarining yana bir xalqaro huquqiy manbai: “Sayohat uchun aloqalar to‘g‘risidagi Bryussel Konvensiyasi” (1970) turizm sohasidagi birinchi Konvensiya bo‘lib, unda turizmga oid tushunchalarning ta‘rifi berilgan³⁸.

Turizm sohasidagi boshqa bir manba “Jahon turizmi bo‘yicha Manila deklaratsiya”da (1980) turizm halqaro-huquqiy voqea-hodisa ekanligi, uning ijobiy natijalari, insonlarning turizmga ishtiyoqi kuchliligi, davlatlarning turizmning rivojlanish yo‘lidagi to‘siqlarga barham berish choralarini ko‘rishi zarurligi, turizmning madaniy merosni avaylab-asrash va rivojlantirishdagi, tinchlikni saqlash va o‘zaro

³⁷ <http://excurovod-web.ru/ustav-vsemirnaya-turistskoy-organizatsii-vto/>

³⁸ Устав Всемирной Туристической Организации// Брюссельская конвенция о контрактах на путешествие [Электронный ресурс]. – Режим доступа: <http://www.twirpx.com/>

bir-birini tushunishdagi ahamiyati masalalariga alohida e'tibor qaratilgan³⁹.

1985-yilda BTTning Bosh Assambleyasi tomonidan uning 6-sessiyada ma'qullangan "Turizm hartiyasi" da turistik faoliyat bilan shug'ullanuvchi sub'ektlar-davlatlar, turistik rayonlar mahalliy aholisi vakillari, turizm sohasi xodimlari va turistlarning vakolatlari haqida tavsiyalar o'z aksini topdi. Xususan, butun jahonda dam olish huquqi tan olinganligini hisobga olib davlatlar ichki va xalqaro turizm to'g'risidagi siyosatni shakllantirishi va amalga oshirishi lozim. Mazkur siyosat mahalliy, mintaqaviy va xalqaro miqyosda turizmni rivojlantirish, turizm imkoniyatlaridan barchaning foydalanishini ta'minlash, turistik muhitni muhofaza qilish, turistik ongning o'sishi va mahalliy aholi bilan turistlar aloqasini mustahkamlash, turistlarning harakatlanish erkinligini, ularning harqanday kamsitilishiga barham berish hamda xavfsizligini ta'minlash, turistlarning sog'liqni saqlash, ma'muriy-boshqaruv va yuridik xizmatlarga hech qanday to'siqlarsiz murojaat etishlari uchun sharoit yaratish kabilarni qamrab olishi lozim⁴⁰.

1989-yilda Turizm bo'yicha parlamentlararo konferensiyada qabul qilingan "Turizm bo'yicha Gaaga deklaratsiya" si Turizm sohasidagi xalqaro munosabatlarning asosiy prinsiplarini o'zida aks ettirganligi bilan muhim ahamiyat kasb etadi. Deklaratsiyaga binoan mazkur prinsiplar quyidagilar: turizm sohasida hamkorlik qilish, turli sohalarda bir-biriga ko'maklashish, davlatlarning yaqinlashuviga erishish; turizm barcha davlatlarning ijtimoiy-iqtisodiy o'sishiga ko'maklashuvchi samarali vosita bo'lishi mumkinligi; tabiiy muhitni va turistik resurslarni muhofaza qilish zarurligi; insonning sayohat qilish va xavfsizligini ta'minlash; turistik rasmiyatchilikni soddalashtirish va turistik xizmatlar sifatini yaxshilash; turistlar xavfsizligini ta'minlash; terrorizmga qarshi kurash bo'yicha davlatlar hamkorligi; turizm sohasini boshqarishga

³⁹Манильская декларация по мировому туризму [Электронный ресурс]. - Режим доступа: <http://www.intacadem.ru/>

⁴⁰ Хартия туризма// <https://studopedia.ru>

vakolatli organlarga keng vakolatlar berish, unga mos milliy siyosat va xalqaro hamkorlikni amalga oshirish⁴¹.

1994-yilda Yaponiyaning Osaka shahrida bo‘lib o‘tgan turizm bo‘yicha vazirlarning butunjahon konferensiyasida qabul qilingan «Turizm bo‘yicha Osako deklaratsiyasi» da xalqaro turizmning yil sayin rivojlanib ahamiyati oshib borayotgani, turizm industriyasini rivojlantirishning dolzarbligi, xalqaro turizmning jamiyatga va atrof-muhitga ta’siri, yer yuzida tinchlikni ta’minlash va turizmning o‘zaro munosabati, hukumatlar va xalqaro tashkilotlarning turizm sohasidagi roli kabi masalalar ko‘tarildi.⁴²

1999-yil Santiyagoda Butunjahon Turistik Tashkilotining Bosh Assambleyasining 13-sessiyasida qabul qilingan “Turizmning global axloq kodeksi” da insonlar va hamjamiyatlarning bir-birini tushunish va hurmat qilishidagi hissasi, turistik biznes mutahassislarining majburiyatlari, turizmga bo‘lgan huquq, turistik harakatlanish erkinligi, turistik industriya xodimlari va tadbirkorlarining huquqlari bilan bog‘liq qoidalar belgilab berildi⁴³. Shuningdek, Kodeksda turizm alohida shaxslar va jamoalarning o‘z imkoniyatlaridan foydalanish va ularni amalga oshirishning bir ko‘rinishi va vositasi, barqaror taraqqiyotning muhim omili, madaniy merosning foydalanuvchisi va yaratuvchisi, turistlarni qabul qiluvchi mamlakatlar va hamjamiyatlar uchun foydali iqtisodiy manbalardan biri ekanligi alohida qayd etildi.

O‘zbekiston Respublikasi turizm sahasida xorijiy davlatlar bilan aloqalarni o‘rnatish va rivojlantirish maqsadida qator ko‘p tomonlama shartnomalarga qo‘shildi. Bular: O‘zbekiston Respublikasi Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi doirasidagi “Turizm sohasida hamkorlik to‘g‘risida”gi (23.12.1993) Hukumatlararo Bitim, “Turizm sohasida MDH ishtirokchi-davlatlari hamkorligining asosiy prinsiplari to‘g‘risida”gi (29.10.1994) MDH ishtirokchi-davlatlari o‘rtasida turistik aloqalarni rivojlantirish Konsepsiyasi, “Turizm sohasida SHHTga a’zo-

⁴¹ Гаагская декларация Межпарламентской конференции по туризму [Электронный ресурс]. - Режим доступа: <http://www.intacadem.ru>

⁴² Декларация по туризму// docs.cntd.ru/document/901756803

⁴³ Глобальный этический кодекс туризма// <https://orexca.com>

davlatlar hamkorligining 2017-2018 yillarga mo'ljallangan dasturi" (2016) va "Turizm sohasida MDH ishtirokchi-davlatlari hamkorligini 2020-yilgacha rivojlantirish strategiyasi"ni (2017) ishtirokchi davlat sifatida imzoladi va ulardagi turizm sohasida hamkorlikni o'rnatish, amalga oshirish va rivojlantirish bo'yicha majburiyatlarni o'z zimmasiga oldi.

4.3. Ziyorat turizmining milliy huquqiy asoslari

Bugungi kunda qadimiy obidalar, muqaddas ziyoratgohlar, tarixiy va madaniy yodgorliklar bilan bir qatorda, betakror madaniyati va an'analari, xushmanzara tabiati hamda fayzli go'shalari bilan sayyohlarni o'ziga jalb etayotgan O'zbekiston turizm industriyasi hamda infratuzilmasi yanada rivojlanmoqda. Buni Jahon Sayohat va Turizm Kengashi (WTTC) tomonidan turizm sanoatining iqtisodiy natijalari bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotlarda O'zbekiston turizm sohasi jadal taraqqiy topayotgan besh davlatning biri sifatida qayd etilgani misolida yaqqol ko'rish mumkin. 2025-yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirishning maqsadli ko'rsatkichlariga ko'ra, O'zbekistonga tashrif buyuradigan xorijiy sayyohlarning sonini 2025-yilda 9 089,3 ming kishiga yetkazish (2019-yilda 6 750 ming kishini tashkil etgan), turistik xizmatlar eksportining hajmini 2019-yilgi 1313 million AQSH dollardan 2025-yilda 2 232,8 million AQSH dollariga yetkazish ko'zda tutilgan. O'zbekistonda islom madaniyatiga tegishli me'moriy yodgorliklar nihoyatda ko'p. Bu esa doimo musulmon davlatlardagi sayyohlarning qiziqishiga sabab bo'lib keladi. O'zbekistonning jahondagi ziyorat turizmi markazlaridan biri sifatida e'tirof etilishi ortidan mamlakatda sayyohlik infratuzilmasini rivojlantirish va turistlar oqimini sezilarli darajada ko'paytirish mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Butunjahon turizm tashkilotining haqiqiy a'zosi sifatida yuqorida zikr etilgan xalqaro-huquqiy hujjatlarning qoidalarini e'tirof etib, ularni o'zining milliy qonunchiligiga joriy etishga kirishdi va ularning talablarini hisobga olib turizm sohasida milliy

qonunchilik bazasini yaratdi. Xususan, 2019-yil 18-iyulda O‘zbekiston Respublikasining “Turizm to‘g‘risida”gi yangi qonuni qabul qilindi.

Qonunning 2-moddasida “O‘zbekiston Respublikasining turizm to‘g‘risidagi qonunchiligi ushbu Qonun va boshqa qonunchilik hujjatlaridan iboratdir. [OKO3:

1.19.00.00.00 Xalqaro munosabatlar. Xalqaro huquq / 19.06.00.00 Xalqaro shartnomalar huquqi / 19.06.02.00 Shartnomalarni tuzish va ularning kuchga kirishi]

Agar O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida O‘zbekiston Respublikasining turizm to‘g‘risidagi qonunchiligida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo‘lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo‘llaniladi” deb ta’kidlangan.

Qonunda sohaga oid asosiy tushunchalar - gid (gid-tarjimon), yo‘riqchi-yo‘l boshlovchi, mustaqil turizm, turizm sohasining sub’ektlari, tur, turizm, turist, turistik vaucher, turistik yo‘nalish, turistik xizmatlar, ekskursant, ekskursiya yetakchisi kabilarning mazmun-mohiyati ochib berildi.

Qonun bilan turizm sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari etib quyidagilar belgilandi; turizm va turistik industriyani rivojlantirish; fuqarolarning sayohat qilish paytidagi dam olish, bolalar, yoshlar, nogironlar va aholining kam ta’minlangan qatlamlari turizmi (ekskursiyalari) uchun sharoit yaratish; erkin harakatlanish va boshqa huquqlarini ta’minlash; turistik resurslardan oqilona foydalanish va ularni saqlash; turizm sohasidagi normativ bazani takomillashtirish; qonuniy manfaatlari va mol-mulki muhofaza qilinishini ta’minlash; turizm sohasining ilmiy ta’minotini tashkil etish va rivojlantirish; turistik industriyani rivojlantirish uchun investitsiyalar jalb etish; tadbirkorlik faoliyati sub’ektlari uchun turistik xizmatlar borasida teng imkoniyatlar yaratish; turistlarning xavfsizligini, ularning huquqlari, kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish; chet mamlakatlar va xalqaro tegishli tashkilotlar bilan aloqalarni yanada rivojlantirish.

Qonunda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining, vakolatli davlat organining va mahalliy davlat hokimiyati organlarining turizm sohasidagi vakolatlari, fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organlarining va nodavlat notijorat tashkilotlarining turizm sohasi tadbirlaridagi ishtiroki, turistik faoliyatni litsenziyalash tartibi va moliyalash manbalari, turistik xizmatlarni sertifikatlashtirish, turistik sayohat va turistik xizmatlar majmui, turistik xizmat kursatish shartnomasi, turistik yo‘llanma, turist va turistik faoliyat sub’ektining huquqlari va majburiyatlari, turistlar va ekskursantlarning xavfsizligi kafolatlari, turistlarning xavfsizligini ta’minlash chora-tadbirlari, turistlarni sug‘urta qilish, turizm sohasida yuzaga keladigan nizolarni hal etish, turizm to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlikka tortish asoslari bilan bog‘liq qoidalar belgilab berildi⁴⁴.

Ushbu qonunga mos va uning ijrosini ta’minlash maqsadida qator qonunosti hujjatlari qabul qilindi. Xususan, ushbu sohaga oid O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlarida: mamlakat iqtisodiyotining strategik tarmog‘i sifatida turizmni jadal rivojlantirish uchun qulay iqtisodiy va tashkiliy-huquqiy shart-sharoitlar yaratish, hududlarning ulkan turizm salohiyatidan yanada to‘liq foydalanish, turizm tarmog‘ini boshqarishni tubdan takomillashtirish, milliy turizm mahsulotlarini yaratish va ularni jahon bozorlarida targ‘ibot qilish, turizm sohasida O‘zbekistonning ijobiy brendini shakllantirish maqsadida istiqbolda turizm sohasidagi davlat siyosatining maqsadli va ustuvor yo‘nalishlari; respublikaning turizm salohiyatini, birinchi navbatda, investitsiyalarni faol jalb qilish, sohaga innovatsion g‘oya va texnologiyalarni joriy etish, mamlakatning boy tabiiy, madaniy va tarixiy merosining mavjud resurslari va imkoniyatlaridan har tomonlama foydalanish kabilardir.

O‘zbekiston Respublikasiga muntazam avia qatnovlarni amalga oshiruvchi xorijiy aviokompaniyalar havo kemalari ekipajining a‘zolari uchun O‘zbekiston hududiga kirgan kundan e’tiboran 30 kunlik muddatga vizasiz rejim belgilash, turistlarga tegishli shart-sharoitlar

⁴⁴ O‘zbekiston Respublikasining Qonuni “Turizm to‘g‘risida” 2019 yil 18 iyul. //Lex.uz

yaratishning barcha choralari ko'rish, respublikaning turizm salohiyatini targ'ib qilish, turizm mahsulotlarini sotishni tashkil qilish kabi vazifalarni tegishli davlat organlari va tashkilotlari zimmasiga yuklash; turizmni, avvalambor, xususiy sektorda rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, ko'rsatilayotgan xizmatlarning raqobatbardoshligini oshirish, milliy turizm mahsulotini dunyo bozorida faol va kompleks ravishda targ'ib qilish chora-tadbirlarini ko'rish; 2019-2025-yillarda O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirishning qulay tashkiliy-huquqiy, iqtisodiy sharoitlar va omillarni yaratish bo'yicha olib borilayotgan islohotlarning samaradorligini oshirish, turizm sohasini jadal rivojlantirish bo'yicha ustuvor maqsad va vazifalarni belgilash, uning iqtisodiyotdagi o'rnini va ulushini oshirish, xizmatlarni diversifikatsiyalash va ularning sifatini oshirish hamda turizm infratuzilmasini takomillashtirishga qaratilgan Konsepsiyani tasdiqlashga oid normalar belgilab berildi⁴⁵.

Farmonlarda belgilangan normalarning ijrosini ta'minlash bo'yicha qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlarida respublikaga turistlar oqimini ko'paytirish, kirish turizmini milliy iqtisodiyotning muhim tarmoqlaridan biriga aylantirish, mamlakatning madaniy-tarixiy merosi va tabiiy boyliklarini keng targ'ib qilish bo'yicha davlat organlari bilan tashkilotlarining vazifalarini belgilash; xalqaro turizm sohasida professional kadrlar tayyorlash tizimini tashkil etish hamda ilmiy tadqiqot ishlari va ijodiy ishlar olib borish bo'yicha respublikaning tashabbuslarini amaliy ro'yobga chiqarish, Shanxay Hamkorlik Tashkilotiga a'zo davlatlarning tarixiy va madaniy, gumanitar aloqalarini yanada rivojlantirish maqsadida "Ipak yo'li" turizm xalqaro universitetini tashkil etish, uning faoliyatining asosiy yo'nalishlarini belgilash; turizm tarmog'ini rivojlantirish, xususan, zamonaviy standartlarga javob beradigan mehmonxonalar va joylashtirish vositalarini qurish bo'yicha investitsiya loyihalarini amalga

⁴⁵O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari: "O'zbekiston Respublikasining Turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida" 2016 yil 2 dekabr; "O'zbekiston Respublikasi Turizm salohiyatini rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratish bo'yicha qo'shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida" 2018 yil 2 mart; "O'zbekiston Respublikasida Turizmni jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2019 yil 5 yanvar (www.lex.uz).

oshirishni jadallashtirish, mamlakatimizda mehmonxona industriyasini rivojlantirishga to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish chora-tadbirlarini ko'rish; Samarqand viloyatiga xorijiy va mahalliy turistlar oqimini ko'paytirish, ularga ko'rsatiladigan xizmatlar xilma-xilligini oshirish va sifatini ta'minlash, yangi turizm infratuzilmasi ob'ektlarini barpo etish yuzasidan qo'shimcha chora-tadbirlarni amalga oshirish; xavfsiz turizmni ta'minlash, shuningdek, transport va turizm ob'ektlarida jamoat xavfsizligini ta'minlashning samarali tizimini joriy etishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar ko'rish maqsadida mas'ul tuzilmalar tashkil qilish, ularning vazifalarini va javobgarligini belgilash kabilar haqidagi qoidalar o'z aksini topdi⁴⁶.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasining xalqaro tashkilotlar va xorijiy davlatlar bilan turizm sohasida aloqalar o'rnatishi va rivojlantirishi, mamlakatimizga ziyorat turizmi oqimining kirib kelishini ko'paytirish, ziyoratchilarga xizmat ko'rsatish uchun barcha shart-sharoitlarni yaratish, xizmat ko'rsatish sifati va madaniyatini oshirish, ziyoratchilar xavfsizligini ta'minlash, turistik industriyani tashkil qilish va rivojlantirish, soha bo'yicha kadrlar tayorlash bilan bog'liq munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy baza yaratildi.

4.4. O'zbekiston Respublikasida ziyorat turizmini jadal rivojlantirishning me'yoriy huquqiy jihatlari

O'zbekistonda ziyorat turizmida ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni tartibga soluvchi me'yoriy-huquqiy institutlar tizimi tuzilmasining milliy darajasiga oid qonunlar, me'yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilingan bo'lib, quyidagilardan iborat.⁴⁷

O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyasi. Xususan, ushbu me'yoriy hujjatda har bir inson va fuqaroning huquq va erkinliklari

⁴⁶O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlari: "Kirish turizmini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2018 yil 2 iyun; "O'zbekiston Respublikasi Turizmini rivojlantirish Davlat Qo'mitasining faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2018 yil 6 fevral; "Ichki turizmni jadal rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida" 2018 yil 7 fevral; "2018-2019 yillarda Samarqand viloyatida turizmni yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida".

⁴⁷ Beknazarov F.A. "O'zbekistonda ziyorat turizmi imkoniyatlaridan foydalanish samaradorligini oshirish yo'llari". Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertasiya. Samarqand 2023 y.

belgilab berilgan bo‘lib, jumladan, unda respublika hududida bir joydan ikkinchi joyga ko‘chish, O‘zbekiston Respublikasiga kelish va undan chiqib ketish, barcha fuqarolar dam olishi (IX-bob, 38-modda), har bir inson malakali tibbiy xizmatdan foydalanishi (IX-bob, 40-modda), madaniyat yutuqlaridan foydalanish kabi huquqlari kafolatlangan (IX-bob, 42-modda)⁴⁸;

“Xizmatlarni sertifikatlashtirish to‘g‘risida”gi (1993y), “Sug‘urta faoliyati to‘g‘risida”gi, “O‘zbekiston Respublikasi davlat chegarasi to‘g‘risida”gi (1999 y.), “Alohida faoliyat turlarini litsenziyalashtirish to‘g‘risida”gi (2000 y.) Qonunlari;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlari;

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari;

O‘zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasining buyruqlari va qarorlari;

Boshqa vazirlik va idoralarning huquqiy hujjatlari.

Xalqaro va milliy bozorlarda jumladan, turizm bozorida turistik faoliyatni huquqiy ta‘minlash va tartibga solishda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlari va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari muhim o‘rinni egallab kelmoqda. Bugungi kunda o‘z navbatida, O‘zbekistonda turizmni rivojlantirish qo‘mitasi buyruqlari va farmoyishlari milliy turizmning yaxlit tizim sifatidagi faoliyatini muvofiqlashtiruvchi institutlar sifatida faoliyat yurgazmoqda.

2017-yildan e‘tiboran O‘zbekistonda turizmning alohida sohasi bo‘lgan ziyorat turizmini rivojlantirish va uni jahonga tanishtirish bo‘yicha tizimli ishlar boshlab yuborildi. Jumladan, 2017-yil 16-avgustda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2018-2019-yillarda turizm sohasini rivojlantirish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori e‘lon qilindi. Mazkur qaror bilan O‘zbekistonga sayohat qilishni yengillashtirish, turizm infratuzilmalarini rivojlantirish va yangi turizm ob‘ektlarini tashkil etishga qaratilgan

⁴⁸ “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyot-matbaa uyi 2014 y.

2018-2019-yillarda turizm sohasini rivojlantirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar dasturi tasdiqlandi⁴⁹.

Bundan tashqari, ushbu qaror asosida bir oy muddat ichida fuqarolariga 2018 yilning 1 yanvaridan viza tartibini soddalashtirish taklif etilayotgan mamlakatlar hamda fuqarolariga maxsus ziyorat turizmi dasturlari taklif etiladigan davlatlar ro'yxatini shakllantirish, shuningdek, Malayziya, Indoneziya va boshqa mamlakatlardan O'zbekistondagi muqaddas qadamjolarga ziyorat turizm yo'nalishidagi sayyohlarni jalb qilish bo'yicha ishlarni faollashtirish, bu borada kerakli reklama tadbirlarini o'tkazish, logistika, jumladan, charter reyslarini tashkil etish va boshqa vazifalar belgilandi⁵⁰.

Bundan tashqari, yurtimizga tashrif buyurayotgan ziyoratchilarga qulaylik yaratish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasining "Turistik xizmatlarni sertifikatlashtirish markazi" davlat unitar korxonasi tomonidan yangi davlat standarti ishlab chiqildi. Mazkur hujjat asosida 2018-yilning 1-yanvaridan boshlab turistik xizmatlar, joylashtirish vositalari, umumiy talablar bo'yicha standart kuchga kirdi. O'rnatilgan yangi qoidalarga ko'ra, har bir mehmonxonaning umumiy xonalar sonining kamida o'ndan birida Qur'oni karim, ibodat qilish uchun joynamoz hamda kamida 30 foizida qibla ko'rsatgichi qo'yilishi shart qilib belgilandi⁵¹.

Bu davrda, O'zbekistonga keluvchi sayyohlar uchun viza rejimini yengillashtirish bo'yicha ham ishlar amalga oshirildi. Shu maqsadda, 2018-yil 3-fevralda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi turizm salohiyatini rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratish bo'yicha qo'shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni e'lon qilindi. Unga muvofiq, Indoneziya, Malayziya, Singapur, Turkiya, Janubiy Koreya, Yaponiya va Isroil davlatlari fuqarolari uchun vizasiz rejim joriy qilindi. Shuningdek 39 mamlakat fuqarolariga soddalashtirilgan viza tartibi joriy qilindi. Vizasiz

⁴⁹<https://lex.uz/docs/3311817> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori "2018-2019 yillarda turizm sohasini rivojlantirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"

⁵⁰[https://www.gazeta.uz/uz/2017/08/17/turizm/O'zbekistonda ziyorat turizmi rivojlantiriladi](https://www.gazeta.uz/uz/2017/08/17/turizm/O'zbekistonda%20ziyosat%20turizmi%20rivojlantiriladi)

⁵¹<http://muslim.uz/index.php/yangiliklar-2016/uzbekistan/item/4159-ziyorat-turizmi-so-asida-musulmonlarga-yana-bir-ulajlik-yaratildi>

kiruvchi xorijliklar safiga 2019-yil mart oyidan tojikistonliklar, oktabrdan fransiyaliklar ham qo'shildi⁵².

Bundan tashqari, mamlakatimizda halol turizmni rivojlantirish bo'yicha ham bir qator tadbirlar amalga oshirildi. Jumladan, 2018-yilda "Halol turizm" bo'yicha "Kreskent Rating" tashkiloti tomonidan 2017-yilda tuzilgan reytingda (2017-yilda tuzilgan reytingda O'zbekiston 28. Shundan, "xavfsiz sayohat" – 100 dan 84 ball, "ibodatxonaga kirish erkinligi" – 80, "ovqatlanish imkoniyatlari va kafolatlari" – 70, "viza" – 50, "aeroport imkoniyatlari" – 48,3, "oilaviy ta'til" – 44,4, "yashash sharoitlari" – 33,2, "musulmonlar uchun imkoniyatlar" – 25, "sayyohlarning kelishi" – 21,2, "kommunikatsiya imkoniyatlari" – 19) quyi darajada baholangan, kam rivojlangan yo'nalishlarni yaxshilashga e'tibor qaratildi. Xususan, Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi tomonidan "Kreskent Rating" tashkiloti bilan hamkorlikda mamlakatimizda ziyorat turizmini rivojlantirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi. Ushbu tavsiyalar asosida xalqaro aeroportlarda ibodat amallarini bajarish uchun zarur sharoitlar yaratildi⁵³.

Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi Din ishlari bo'yicha qo'mita tarkibida ziyorat turizmini rivojlantirish bo'limining faoliyati yo'lga qo'yildi. O'zbekistonda ziyorat turizmini rivojlantirish bilan bog'liq masalalar bo'yicha tahliliy hujjatlar tayyorlash, mamlakat iqtisodiyotining strategik tarmog'i sifatida turizmni jadal rivojlantirish uchun qulay iqtisodiy va tashkiliy-huquqiy shart-sharoitlar yaratish, hududlarning ulkan turizm salohiyatidan yanada to'liq va samarali foydalanish yuzasidan tegishli takliflar taqdim etish mazkur bo'limning asosiy vazifalari sifatida belgilandi⁵⁴. Bundan tashqari, Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi tomonidan Toshkent shahrida ziyorat turizmini rivojlantirish, ro'yxatga olingan 15 ta diniy muassasaga tashrif haritalari ishlab chiqildi. Indoneziya va Malayziya sayyohlik agentliklari va mehmonlariga mo'ljallangan halol ovqatlanish joylari, milliy

⁵²<https://lex.uz/docs/3548467>O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni "O'zbekiston Respublikasi turizm salohiyatini rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratish bo'yicha qo'shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"

⁵³<http://uza.uz/oz/tourism/zbekistonda-ziyerat-turizmi-2018-yilga-nazar-27-12-2018>

⁵⁴<https://religions.uz/pages/7>

oshxonalar, restoranlar, oilaviy tashrif joylari haritasi tayyorlandi. Shuningdek, yurtimizda ilk bor ziyorat turizmi sohasi uchun zarur bo'lgan "Halol" standarti joriy etildi.

O'zbekistonda ziyorat turizmining muhim ob'ektlaridan biri hisoblangan Samarqand viloyati Payariq tumanidagi Imom Buxoriy yodgorlik majmuida ham Prezidentimizning 2017-yil 27-martdagi "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida belgilangan vazifalar ijrosi davom ettirildi. Jumladan, majmuaga tutash hududdan 5,8 gektar yer maydoni ochilib, ilmiy markaz hamda markaz qarshisida 3 ta ikki qavatli turar-joy qurilib, foydalanishga topshirildi. Amalga oshirilgan shu va boshqa tadbirlar natijasida bu borada salmoqli yutuqlar qo'lga kiritildi. Jumladan, 2017-yilning 10 oyi davomida mamlakatimizga tashrif buyurgan sayyohlar soni 2,2 mln kishini tashkil etgan bo'lsa, 2018-yilning shu davri mobaynida 4,4 mln sayyoh tashrif buyurdi⁵⁵. Yil mobaynida esa 5 mln. 346 ming 219 nafarni tashkil qildi⁵⁶.

Mamlakatimizda ziyorat turizmini rivojlantirish borasidagi tadbirlar 2019-yilda ham davom ettirildi. Jumladan, mazkur yilning 5-yanvaridan e'tiboran O'zbekistonning madaniy-tarixiy va diniy ma'naviy merosi hamda an'analarini o'rganish uchun tashrif buyuruvchi xorijiy fuqarolarga 2 oygacha bo'lgan muddatga ziyorat vizasi joriy etildi⁵⁷. Shu bilan birga, Ziyorat turizmini rivojlantirish va uni dunyo jamoatchiligiga tanishtirishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan ilmiy konferensiyalar o'tkazish ishlari ham olib borildi. Jumladan, 2019-yilning 21-23 fevral kunlari Buxoro shahrida O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoev tashabbusi bilan mamlakatning xalqaro maydondagi ziyorat turizmi bo'yicha mavqeini oshirish maqsadida Ziyorat turizmi bo'yicha I Xalqaro forum o'tkazildi. Mazkur forum doirasida O'zbekistonning ziyorat turizm markazlaridan biri sifatida tan olinishiga

⁵⁵<http://uza.uz/oz/tourism/zbekistonda-ziyerat-turizmi-2018-yilga-nazar-27-12-2018>

⁵⁶<https://uzbektourism.uz/cyrl/research>

⁵⁷<http://xs.uz/uzkr/post/birinchi-khalqaro-ziyosat-turizmi-forumi-zhahon-hamzhamiyatida-katta-qiziqishga-sabab-bolmoqda>

doir Buxoro deklaratsiyasining imzolanishiga bagʻishlangan tantanali marosim boʻlib oʻtdi⁵⁸. Bundan tashqari, mazkur yilning 24-25 may kunlari Samarqand shahrida Xitoy, Rossiya, Fransiya, Italiya, Janubiy Koreya, Turkiya, Bosniya va Gersegovina, Polsha, Qozogʻiston, Tojikiston va Qirgʻiziston mamlakatlarining yetakchi olimlari, turizm sohasi mutaxassislari ishtirokida «Buyuk Ipak yoʻli chorrahasida ziyorat turizmining renessansi» mavzusidagi xalqaro ilmiy konferensiya boʻlib oʻtdi⁵⁹.

Shu va boshqa omillar oʻz navbatida, musulmon sayyohlar sonining sezilarli darajada kengayishiga olib keldi. Jumladan, 2019-yilning noyabr oyi koʻrsatkichlarining 2018-yildagi koʻrsatkichlari bilan solishtirganda buni yaqqol koʻrishimiz mumkin. Xususan, 2018-yil noyabr oyida birgina Pokiston davlatidan 287 nafar sayyoh tashrif buyurgan boʻlsa, 2019-yilning shu davrida sayyohlar soni 424 nafarni tashkil qilib, oʻsish surʼati 47,7 foizni tashkil etdi. Saudiya Arabistoni boʻyicha esa, bundan ham kattaroq sonni koʻrishimiz mumkin. Jumladan, 2018-yilning noyabr oyida 36 nafar, 2019-yilning shu davriga kelib 124 nafarni tashkil qildi.⁶⁰

Bu boradagi ishlar soʻnggi paytlarda ham davom ettirildi. Jumladan, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 9-fevralda “Oʻzbekiston Respublikasida ichki va ziyorat turizmini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida” Farmoni qabul qilindi. Unda turizm bozorining turli segmentlariga yoʻnaltirilgan turizm mahsuloti va xizmatlarini diversifikatsiya qilish, ularning raqobatbardoshligini yanada oshirish, maqbul va qulay ichki va xalqaro ziyorat turizmi muhitini yaratish, transport yoʻnalishlarini kengaytirish, transport xizmatlari sifatini oshirish, turizm mahsulotlarini keng targʻib qilish, shuningdek, mamlakatimizning sayohat va dam olish uchun xavfsiz manzil sifatidagi imijini mustahkamlashga yoʻnaltirilgan vazifalar belgilab berildi⁶¹.

⁵⁸https://islaminstitut.uz/?p=6867Ziyorat_turizmi_xalqaro_forumi_yakunlari

⁵⁹<http://zarnews.uz/post/ozbekistonda-ziyorat-turizmi-uchun-katta-imkoniyat-bor>Oʻzbekistonda ziyorat turizmi uchun katta imkoniyat bor

⁶⁰<https://uzbektourism.uz/cyrl/research> 2019 yil noyabr va 2018 yil noyabr oylarida Oʻzbekiston Respublikasiga kirib kelgan tashrif buyuruvchilar sonining davlatlar kesimida taqsimlanishi

⁶¹ <http://muslim.uz/index.php/yangiliklar-2016/uzbekistan/item/25252>

Tayanch soʻz va iboralar: Turistik xizmatlar isteʼmolchilari, Turizmga taʼsir qiluvchi ijtimoiy omillar, Butunjahon turizm tashkiloti, xalqaro xuquqiy asoslar, “Jahon turizmi boʻyicha Manila deklaratsiya”, “Turizmning global axloq kodeksi”, milliy xuquqiy asoslar, “Turizm tugʻrisida”gi qonun.

Mavzuga doir savol va topshiriqlar:

1. Ziyorat turizmining tashkiliy asoslari deganda nimani tushunasiz?
2. Ziyorat turizmining xalqaro xuquqiy asoslarini tushuntirib bering.
3. Turizm sohasidagi “Jahon turizmi boʻyicha Manila deklaratsiya” qanday ahamiyatga ega.
4. “Turizmning global axloq kodeksi” qachon qabul qilingan?
5. Ziyorat turizmining milliy xuquqiy asoslari nimalardan iborat.
6. Oʻzbekiston Respublikasi “Turizm tugʻrisida”gi qonunini izohlab bering
7. Ziyorat turizmi jadal rivojlantirishning meʼyoriy xuquqiy jihatlari nimalardan iborat.
8. Ziyorat turizmi jadal rivojlantirishning asosiy meʼyoriy xuquqiy hujjatlarini sanab bering.

V BOB. ZIYORAT TURIZMI INFRATUZILMASI

5.1. Ziyorat turizmi tarkibi va mohiyati.

5.2. Ziyorat turizmida transport infratuzilmasining o'ziga xos jihatlari.

5.3. Ziyorat turizmida mehmonxona xo'jaligi infratuzilmasining o'ziga xos jihatlari.

5.4. Ziyorat turizmida umumiy ovqatlanish infratuzilmasining o'ziga xos jihatlari.

5.5. Ziyorat turizmida qo'shimcha xizmatlar ko'rsatish infratuzilmasining o'ziga xos jihatlari.

5.1. Ziyorat turizmi tarkibi va mohiyati

Ziyorat turizmi - hozirgi kunda keng tarqalgan turizm sohasi hisoblanadi. Ziyorat turizmi mohiyatan ziyoratgohlarni ziyorat qilish jarayonidir. Odatda, ziyoratlar diniy maqsadlar uchun kunlar, haftalar yoki hatto oylar davomida olib boriladigan uzoq safarlarni tashkil qiladi. Ular butun bir sayohatni o'z ichiga olib, e'tiqodli odamlar o'z dinlari bilan munosabatlarini mustahkamlash uchun boradigan maskanlardir. Ziyorat turizmi tashrif buyurish mumkin bo'lgan shahar yoki ma'lum hududdagi masjidlar va cherkovlarga yoki boshqa diniy diqqatga sazovor joylarga tashrif buyurishni o'z ichiga olishi mumkin. Ziyorat turizmi turistlarni diniy munosabat va urf-odatlariga erishish uchun to'liq yoki kuchli turtki beradigan turizm turidir. Ziyorat turizmi - turli din vakillarining ziyorat maqsadidagi sayohatlari majmuidir. An'anaga ko'ra, u diniy maqsadli sayohatlarga taalluqlidir, lekin u ziyoratchi uchun alohida ahamiyatga ega bo'lgan dunyoviy sayohatga ham tegishli bo'lishi mumkin. Ziyorat turizmi ahamiyatini ikki xususiyatga ko'ra asoslash mumkin: ziyorat turizmi ziyoratgoh uchun qanchalik muhim ahamiyat kasb etadi. Ziyoratchilar uchun ziyorat turizmi qanchalik muhim? Ziyorat ko'plab insonlar uchun qiyin paytlarda ruhiy ozuqa olish imkoniyati hamdir. Insonlar diniy ma'rifatni his qilish uchun ma'lum manzillarga sayohat qilishadi. Ko'pincha uzoq va ba'zan qiyin bo'lgan sayohat insonlar uchun fikr yuritish imkoniyatidir. Ziyoratlar din bilan

munosabatlarni chuqurlashtirishning bir usuli bo'lishi mumkin. Bu, albatta, e'tiqodga qanchalik sadoqatli ekanligini ko'rsatishning bir usuli va bu dinning o'zi haqida ko'proq bilish imkoniyatidir. Sayohat shakli sifatida ziyorat odamlarga muqaddas joylarni ziyorat qilish imkoniyatini beradi. Diniy maqsadlarda sayohat qiluvchi sayohatchi - muqaddas joylar va diniy markazlarni ziyorat qilish uchun olti oydan ortiq bo'lmagan muddatga doimiy yashash mamlakatidan tashqariga chiqadigan shaxs tushuniladi. Diniy turizm deganda, odatdagi muhitdan tashqarida bo'lgan muqaddas joylar va diniy markazlarga sayohat qiluvchi sayohatchilarga xizmat ko'rsatish va ularning ehtiyojlarini qondirish bilan bog'liq faoliyat tushunilishi kerak.

O'zbekistonda mazkur yo'nalishda ham yaxshi natijalarga erishilmoqda. Hisob-kitoblarga qaraganda, 2019-yilda respublikaga tashrif buyurgan 6,7 million nafar xorijiy sayyohlarning 88 foizi musulmon mamlakatlari hissasiga to'g'ri keldi. 2018-yilda uzoq xorij davlatlaridan 325 ming 827 nafar sayyoh O'zbekiston bo'ylab sayohat qilgan va ularning 35 foizi, ya'ni 115 ming 621 nafari musulmon sayyohlar bo'lgan. 2019-yilda musulmon sayyohlar soni jami uzoq xorij mamlakatlaridan kelgan sayyohlar soniga nisbatan 34 foizni tashkil qilgan. Bugungi kunda O'zbekistonda 8 mingdan ortiq madaniy meros ob'ektlari bo'lsa, shulardan 200 tadan ortig'i UNESCOning Jahon madaniy me'rosi ro'yxatidan o'rin olgan. O'zbekistonning ziyorat turizmi salohiyati jahon hamjamiyati tomonidan ham tan olinyapti. Masalan, 2007-yilda Toshkent shahri, 2020-yilda Buxoro shahri Ta'lim, fan va madaniyat masalalari bo'yicha Islom tashkiloti (ISESCO) tomonidan "Islom olami madaniyati poytaxti" deb e'lon qilingan. 2019-yilning 21-23 fevral kunlari Buxoro shahrida o'tkazilgan "I Xalqaro ziyorat turizmi forumi"da O'zbekistonni ziyorat turizmi markazlaridan biri sifatida e'tirof etish to'g'risida "Buxoro deklaratsiyasi" qabul qilingan. Mastercard va CrescentRating tashkilotlari tomonidan tuzilgan "Jahon musulmon sayohati indeksi 2019" xalqaro reytingiga ko'ra, O'zbekiston dunyoda musulmon sayyohlarni jalb qilayotgan mamlakatlar yigirmataligiga kirdi. Shu bilan birga, respublika Halal

Travel Frontier 2020 hisobotida islomiy merosni qayta tiklash orqali musulmonlar turizmi bozorida yangi trendga asos solgan mamlakat sifatida e'tirof etilgan.⁶²

O'zbekistonda ziyorat turizmi, ya'ni aziz qadamjolarini ziyorat qilish maskanlariga juda boy hisoblanadi. Jumladan, Markaziy Osiyoda, qolaversa jonajon O'zbekistonimizda ham aziz avliyolar yashab, dafn etilgan qadamjolar, ziyorat maskanlari beqiyos ko'p. Ko'pgina avliyolarning dafn etilgan joylari va qabrlari qaytadan ta'mirlanib, asl holatiga keltirilmoqda. Ular qatoriga Bahoviddin Naqshbandiy, G'ijduvoni, Imom al-Buhariy, Mahtumi A'zam, Shohizinda, Motrudiy, Hakim at-Termiziy, Zangiota kabi aziz avliyolar va imomlar maqbaralari musulmon ahlining beqiyos, go'zal ziyorat qiladigan va ma'naviy ruhlanadigan joylariga aylantirildi. Ayniqsa, Imom Al-Buxoriy majmuasini muhim ziyoratgohga aylantirish xalqaro ahamiyatga egadir. Chunki bu ziyoratgoh musulmon olamida Makka va Madina shaharlaridan keyin eng muhim sajdagoh hisoblanadi. Shu sababli ziyorat qilish uchun qulay shart-sharoit yaratish, ya'ni infratuzilmani shakllantirish bugungi kunning muhim masalalaridandir. Bu yerda asosiy vazifa xorij mamlakatlari fuqarolarining ortiqcha qiyinchiliklarsiz ziyorat qilib ketishlariga erishishdir. Buning uchun Samarqand shahri aeroportini jahon andazalari darajasiga yetganligi bu masalaning asosiy yechimi hal bo'lganligidan dalolatdir.

Hozirgi kunda Janubiy-Sharqiy Osiyo va G'arbiy Osiyo mamlakatlari ziyoratchilarini jalb etishga qaratilgan uzoq muddatli Dastur ishlab chiqish lozim. Buning uchun har bir viloyat, tuman va qishloqlardagi kishilar tomonidan muqaddas hisoblanib kelinayotgan ziyoratgohlarni aniqlash, respublika va viloyat diniy turistik harita va marshrutlarini yaratish hamda ziyoratchilarga zarur sharoitlarni barpo etish, yo'l qurish, transport kommunikatsiya imkoniyatlarini yaxshilash maqsadga muvofiqdir.

Hozirgi kunda xalqaro turizmning eng muhim tarmoqlaridan biri diniy ya'ni ziyoratchilik turizmi bo'lib hisoblanadi. Ziyoratchilik

⁶² <https://daryo.uz/k/2023/02/04/ozbekistonda-turizm-kecha-va-bugun>

turizmning shakllanish tarixi uzoq o'tmishga borib taqaladi. Ya'ni uning ilk bor vujudga kelishi antik davriga to'g'ri keladi. Ziyoratchilik turizmning asosiy paydo bo'lgan maskanlari qadimgi greklar va rimliklar vatani bo'lib hisoblanadi. Qadimda greklar va rimliklar ibodatxonalar va cherkovlar qurib, ularda sig'inishganlar. Ziyoratchilarning sayyohat qilishidan asosiy mahsadi aziz avliyo joylarga qadam ranjida qilishi, sig'inish chog'ida ruhiy jihatdan yengillashishi, ko'ngillarning poklanishi, og'ir kasalliklardan xolos bo'lmoqligi, qilib quygan gunoh ishlarini ollohdan so'rab kechirishlarini, safar chog'ida safdoshlari bilan ma'naviy yaqinlikda bo'lishni orzu-umid qilishadilar. Ziyoratchi sayyohlar safarga chiqishida o'z orzu umidlariga erishish, yaratganga shukronlar aytib uning izzat hurmatini bajo keltirishni o'z ko'ngillaridan o'tkazadilar.

Hozirgi kunga kelib dunyoda ziyoratchilik sayyohligining 10 dan ortiq yirik markazlari mavjud bo'lib, ular yer sharining deyarli hamma qit'alarida joylashgandir.

Musulmon olamida ziyorat qilish makonlari ham anchagina. Jumladan, Markaziy Osiyoda, qolaversa jonajon O'zbekistonimizda ham aziz avliyolar yashab, dafn etilgan qadamjolar, ziyorat maskanlari beqiyos ko'p. Ular qatoriga Janubiy Qozog'iston viloyati, Turkiston shahridagi Ahmad Yassaviy maqbarasi; Toshkent viloyati Zangiota tumanidagi Zangiota majmuasi; Toshkent shahridagi Shayx Xivanda Taxur maqbarasi, Qaldirg'och-biya maqbarasi, Yunusxon maqbarasi; Hazrati Imom majmuasi; Shayx Zayniddin bobo maqbarasi; Samarqand viloyati Payariq tumani Hartang qishlog'idagi Imom Al-Buxoriy majmuasi; Oqdaryo tumani Dahbed qo'rg'onidagi Maxtumi A'zam maqbarasi; Samarqand shahridagi Shohi Zinda, Amir Temur, Ruhobod, Xo'ja Doniyor, Motrudiy, Murod avliyo, Xo'ja Ahror Vali, Oqsaroy, Cho'ponota maqbaralari; Buxoro shahridagi – Ismoil Samoniy, Chashmai Ayub, Sadriddin Buharzi, Bohovuddin Naqshbandiy, Buyon Kulixon, Chor Bakr maqbaralari; Xorazm viloyatida Uch avliyo, Said Allovuddin maqbarasi; Qashqadaryo viloyatida – Jahongir, Dorus Saodat, Dorut Tilovat majmuasi, Ko'k gumbaz masjidi; Surxondaryo

viloyatida - Hakim at-Termiziy majmuasi; Sulton Saodat ibodatxona yodgorligi, Fayoztepa ibodatxonasi; Jizzax viloyatida – Sadr Vaxs avliyo (Avliyoota) majmuasi; Farg‘ona viloyatida Daxmon Shaxon go‘rxonasi, Mozorixon maqbarasi kabilar ziyoratchi sayyohlarni o‘ziga jalb qilib keladigan maskanlar bo‘lib hisoblanadi.

Ziyoratgohlar kam mablag‘ hisobiga katta daromad manbaiga aylanishi shubhasiz. Mamlakatimizning barcha viloyatlarida o‘nlab, yuzlab diniy qadamjolar mavjud. Ammo ularni ziyorat etish marshrutlari aniq tuzilmagan. Achinarli holati shundaki, islom dunyosida katta xizmat qilgan, avliyo darajasiga ko‘tarilgan siymolarimiz abadiy qo‘nim topgan maskanlarini faqatgina mahalliy darajada, ya’ni tuman yoki viloyat miqyosida bilamiz, xolos. Binobarin, bunday muqaddas ziyoratgohlarni respublika va xalqaro darajadagi ziyoratgoh ob’ektlariga aylantirish mumkin.

5.2. Ziyorat turizmida transport infratuzilmasining o‘ziga xos jihatlari


Turistik mahsulotlar tarkibida turistlarni tashish xizmati yetakchi o‘rinlardan birini egallar ekan barcha turistik yo‘nalishlarda (piyodalardan tashqari) sayohatchilarni dam olish yoki ekskursiyaga olib chiqish va ularning uyga qaytishi uchun transport vositasi bo‘lishini taqazo qiladi.

Turizm - faoliyat turi sifatida turistlarning doimiy yashash joyidan tashqariga chiqishi va qaytishi bilan uzviy bog‘langan. Turizmni transport ta‘minotisiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Transport vositasi turistik infratuzilmaning muhim elementi hisoblanadi va turistik mahsulotlar tarkibiga kiritilgan asosiy kompleks xizmatlarni tashkil qiladi. Transport vositalari - turizm tizimini shakllantiruvchi turistik korxonalarning alohida ko‘rinishlari sifatida qarab chiqiladi.

Butunjahon turistik tashkiloti (BTT) turizm maqsadlarida qo‘llaniladigan transport vositalarini uch turga klassifikatsiyalaydi: quruqlikda, suvda va havoda harakatlanuvchi (5.1-rasm).

Quriqlikda harakatlanish vositalaridan turizm maqsadlarida ko‘proq avtomobil va temiryo‘l transportlaridan foydalanish maqbul hisoblanadi.

Avtomobil transporti turizmda eng ko‘p va keng miqyosda foydalaniladi. Chunki u turistlarni «eshikdan eshikkacha» eltib qo‘yishni ta’minlaydi. Ushbu maqsadlarda muntazam yo‘lovchi tashish uchun reys avtobuslari va nomuntazam – turistik korxonaning xususiy transporti va turistning shaxsiy transporti qo‘llaniladi.



5.1-rasm. Turizm maqsadlari uchun foydalaniladigan transport vositalarining turlari

Temir yo‘l transporti o‘rta masofalarga turistlarni maqbul narxlarda tez va qulay sharoitda yetib borishlarini ta’minlaydi. Alohida hollarda temiryo‘l transporti turistik sayohat maqsadlarida ham foydalanishi mumkin.

Suv transporti vositalari orasida suv osti (ekskursiya suv osti qayiqlari) va suv usti (teploxodlar, sayohat kemalari, dengiz paromlari, sayr kemalari, yaxtalar, katerlar) transportlari farqlanadi. Turizmدا suv transporti vositalari ta’minoti bilan bog‘liq masalalari asosan dengiz va

daryoda turistik maqsadlarda muntazam va nomuntazam yo‘lovchi tashish misolida qarab chiqiladi.

Paromda suzib o‘tish va asosiy turistik sayohat turi – sayohat kemasi, dengiz va daryo kemalari turistlarni belgilangan joyga yetkazib borishni maqsad qilib qo‘yadi. Boshqa suv transporti vositalaridan odatda alohida dasturli (“programmali”) tadbirlarni amalga oshirishda foydalaniladi (masalan, suv osti ekskursiyasi) yoki qo‘shimcha xizmatlar (katerlarda sayohat) va boshqalar.

Havo transporti vositalari tarkibi xilma-xil transport vositalarini qamrab oladi va u fuqaro aviatsiyasidan tortib, to ekzotik hisoblangan havo sharlari, deltaplanlarni o‘z ichiga oladi. Turizmda havo transportining qo‘llanilishi avvalo aviatsiyada yo‘lovchi tashishdan foydalanish sifatida ko‘rib chiqiladi. U reysli va charterga klassifikatsiyalanadi, ya‘ni buyurtmalar asosida bajariladi. Havo transportining muhim xususiyati shundan iboratki, u nisbatan juda qimmatligiga qaramay, bu yuqori tezligi, shinam va qulayligi bilan turistlarni olis masofalarga tashishda so‘zsiz yetakchi o‘rinni egallaydi.

Turizmda transport ta‘minoti tizimi qo‘yidagicha farqalanadi:

turga qo‘shilgan va asosiy turistik xizmatlarga kiruvchi turistik tashish;

turistlarni doimiy yashash joyidan belgilangan manzilga eltib qo‘yish (yoki yo‘nalish boshlanadigan joyga) va qayta olib kelish;

transfer – turistlarni kutib olish va kuzatib qo‘yish uchun transport vositasi taqdim etish;

tur-safar bo‘yicha dasturlashtirilgan tadbirlarga xizmat ko‘rsatish;

ekskursion xizmat, dasturdagi tadbirlarga borish, atrofga tashrif byurish, yo‘nalish bo‘yicha ko‘chish, ya‘ni bir manzildan ikkinchi manzilga o‘tish;

turistlar sayohatini ta‘minlash uchun korxonaning transport vositalarini tanlashiga bir qator omillar bog‘liqdir;

safarning maqsadli yo‘nalishida tashish uzoqligi, sayohatchilar soni, transport vositasining sig‘imi, safar dasturi, harakat xavfsizligi, transport vositasining qulaylik va safarbarligi darajasi.

Transport vositalarini tanlash chog'ida safarning maqsadli yo'nalishi katta rol o'ynaydi. Turistik sayohat maqsadiga bog'liq holda uning tarkibiga u yoki bu transport xizmatlari kiritiladi. Misol uchun, Toshkentdan Moskvagacha 5 kunlik ekskursion guruh safari tarkibi standart transport xizmati ko'rsatishda quyidagilarni o'z ichiga oladi: turistlarni Toshkentdan Moskvaga olib borish va qaytib olib kelishi; aeroportdan mehmonxonagacha guruhni olib borish va jo'natib yuborish; dasturdagi tadbirlarni ta'minlash, masalan, shahar bo'ylab ekskursiya (avtobus va teploxoda sayr) tashkil etish.

Transport vositasini tanlashga ta'sir etadigan yana bir muhim omil - bu sayohatchilar soni hisoblanadi. Bu omildan tez-tez tashish tipini aniqlashda foydalaniladi: muntazam yoki namuntazam (ijaraga olingan yoki charter). Turistik guruhdagi sayyohlar soniga bog'liq holda safarni ta'minlashda qaysi transport vositasi zarurligi ham muhim rol o'ynaydi: samolyotmi, temiryo'lmi, avtobus yoki yengil avtomobillarmi va boshqalar.

Safarni ta'minlash uchun transport vositasini tanlashda yana bir hisobga olinadigan omil - bu transportda tashishning uzoqligidir. Bu omilni qarab chiqish chog'ida odatda turistlarni bir joydan, ikkinchi joyga ko'chirishda shinamligini ta'minlash talablari ko'zda tutiladi. Shuning uchun qoidaga ko'ra butun safarni tashkil qilishda kompleks transporti ta'minoti bo'yicha qarab chiqiladi.

Transport vositasini tanlashni aniqlashda, shuningdek safar dasturlari ham muhim omil hisoblanadi. Qaysikim unga bog'liq ravishda eng xilma-xil transport xizmatlari ko'zda tutiladi. Bular yuqorida eslatib o'tilganidek ekskursiyalar, turistlarni dasturlarida ko'zda tutilgan tadbirlarga olib kelish va boshqalar bo'lishi mumkin. Odatda tartibga ko'ra, guruh turizmida safar dasturini ta'minlash uchun turistik avtobuslardan ko'proq foydalaniladi. Chunki, odatda tadbirlar dasturlar butun guruhga mo'ljallangan bo'lib, safarning belgilangan maqsad joyidan boshqa yerga borishi ko'zda tutilmaydi.

5.3. Ziyorat turizmida mehmonxona xo‘jaligi infratuzilmasining o‘ziga xos jihatlari

Hozirgi paytda respublikamizda turizmning asosiy tarmoqlaridan biri bo‘lgan mehmonxona industriyalarini rivojlantirish muhim omillardan biri hisoblanadi. Chunki turistlarning asosiy ehtiyojlarini qondirishda mehmonxona industriyalarining o‘rni alohidadir.

Joylashtirish vositasi deganda tunash uchun muntazam yoki onda-sonda joy beriladigan har qanday ob‘ekt tushuniladi va u turistik industriyaning asosini tashkil qiladi. Uning ulushiga turistik sohada band shaxslarning 65% gacha, turizmdan tushadigan tushumlarning 68% ga yaqini to‘g‘ri keladi. Yangi joylashtirish maskanlarini qurish turistik yo‘nalishlarni o‘ziga rom etishini sezilarli oshiradi. Turistik oqimlarni ko‘paytiradi. Yuksak darajada servis xizmati ko‘rsatish joylashtirishda shuningdek turizmning ruhiyat aspektlaridan hisoblanadi, qaysikim turistlarni u yoki bu mamlakatga sayohatga kelishini tashkil qilishda yuqori darajada qoniqtiradi.

Mehmonxona industriyasi iqtisodiy faoliyat turi sifatida o‘zida mehmonxona xizmati ko‘rsatish va mehmonxonalar kempinglar, motellar, o‘quvchilar va talabalar yotoqxonalarida qisqa muddatli yashashni tashkil etishni mujassamlashtirgan.

Mehmonxona xizmatlari turizm sohasining eng muhim elementlaridan biri hisoblanadi. Shunday ekan, mehmonxona biznesida ko‘rsatiladigan xizmatlar sifatini oshirish, bu borada mavjud xorijiy tajribani o‘rganish, ularning rivojlanish tendensiyasini oshirish zamon talabi bo‘lib qolmoqda.

Mehmonxona – kechayu-kunduz, uch smenada, yigirma to‘rt soat davomida murakkab texnologik jarayonlar sodir bo‘luvchi korxona bo‘lib, u yerda taklif etiladigan xizmatlar turistlar uchun eng avvalo qulay va xavfsiz bo‘lishi kerak. Mehmonxona individual va jamoaviy joylashtirish vositasi sifatida jihozlangan aniq nomerlar soniga hamda kategoriyasiga qarab xizmatlar yig‘indisini taklif qiluvchi korxona hisoblanadi.

O'zbekistonda mehmonxona biznesining rivojlanishidagi asosiy elementlar sifatida mehmonxona ixtisoslashuvining chuqurlashishi, xalqaro mehmonxona tarmoqlarining tashkil topishi, mehmonxona biznesiga zamonaviy kompyuter texnologiyalarining kirib kelishi va ulardan samarali foydalanishning yo'lga qo'yilganligi kabi bir qator omillarni keltirib o'tish mumkin.

Mehmonxonalarda turistlarga xizmat ko'rsatish jarayonini amalga oshirish uchun asosiy mehmonxona xizmatlari taqdim etishni ta'minlovchi quyidagi asosiy xizmatlar minimal to'plami ko'zda tutilishi lozim:

- bronlashtirish;
- xizmat ko'rsatish;
- qabul qilish va hisob-kitob qismi;
- xonalar fondini ekspluatatsiya qilish.

Turli tipdagi, turli sig'imdagi mehmonxonalarda xizmatlar soni yuqorida keltirilganidek kam yoki ko'p bo'lishi mumkin. Ularning vazifalari ham turlicha bo'lishi mumkin. Misol uchun yirik mehmonxonalar tarkibida xizmat ko'rsatish xizmatlari va bronlashtirish mustaqil tarkibiy tuzilma bo'linmalari hisoblanadi. Kichik va o'rta korxonalarda joylashtirish va mijozlarga xizmat ko'rsatishni alohida qabul qiluvchi xizmat xodimlari bajarishadi. Bu marketing, injener-ekspluatatsiya, moliya-buxgalteriya, tijorat xizmatlariga ham taaluqlidir.

Bronlashtirish xizmati. U quyidagi vazifalarni bajaradi:

mehmonxona o'rinlariga buyurtmalar qabul qilish va ularni ishlash;
zarur hujjatlarni tayyorlash: har kungi kelishlar grafigi (haftalik, oylik, kvartal, yillik), xonalar fondi harakati kartalari.

Odatda mehmonxona mijozlarining yarimidan ko'prog'i kelish oldidan xonalarni bronlashtirib ko'yishadi. Bronlashtirish ishlari mehmonxona tijoriy vakillari orqali telefonda amalga oshiriladi (turagentlar, turoperatorlar), shuningdek bunda pochta, teleks, faks, elektron pochta, bronlashtirishning global tizimi (GDS) yordamidan keng foydalaniladi.

Mehmonxona korxonalari o'z faoliyatlarida juda tez-tez joylashtirishning kafolatlangan bronlashtirish xizmatidan foydalanishadi. Bu mehmonxonani mehmonlar uchun kelishi ko'zda tutilgan, ma'lum vaqtgacha bo'sh xonalar saqlab turishga javobgarligini oshiradi. O'z navbatida mehmon o'ziga band qilingan xona uchun u foydalanilmagan taqdirda ham haq to'lashni zimmasiga oladi.

Odatda kafolatlangan bronlashtirish joylashtirish xizmati uchun oldindan haq to'lash bilan ta'minlanadi. U quyidagi usullarda amalga oshiriladi:

- xizmatga oldindan to'liq haq to'lash;

- mehmonxona mehmonning bankdagi hisobiga ma'lum depozit ochadi, u odatda bo'lishning bir kechasi uchun to'lov hajmida bo'ladi;

- avans depoziti, mijoz ma'lum mikkorda pul vositasi to'lovini ko'zda tutadi (bir sutka yashash qiymatida), kelishidan oldin;

- turistik agentlar kafolati. Bu holda bronlashtirish kafolati bo'lib, turagentlik hisoblanadi. U bron bekor qilinganda harajatlarni qoplashni zimmasiga oladi;

- turistik vaucher, u turagentlikning mijozni joylashtirishi uchun oldindan haq to'langaniga guvohlik beradi.

Mehmonlarni joyini bronlashtirishdan keyin kelmay qolish hollari zararini kamaytirishga urinib, mehmonxona «ikki martalik» yoki «haddan tashqari» bronlashtirishga majbur bo'ladi. Ya'ni mavjud bo'sh xonalar soniga nisbatan ko'proq buyurtma oladi (5,8,10%). Ammo bunday yondashuv puxta yo'nalgan, aniq hisob-kitob qilingan bo'lishi kerak. Agar mehmonxona olingan buyurtmalarni bajarish imkoniyatiga ega bo'lmasa, u mijozlarni yo'qotish qaltisligiga yo'l qo'yadi, bronlari bajarilmagan mijozlar turistik kompaniya bilan ishchan munosabatlarini uzadi.

Xizmat ko'rsatish servisi. Mehmonlar nuqtai nazaridan xizmat ko'rsatish servisi mehmonxonada eng muhimi hisoblanadi. Nageki bu xizmat xodimlari mijozlar bilan doimiy aloqada bo'lishadi va ular bilan bog'liq barcha vazifalarni bajarishadi.

Xizmat ko'rsatish servisini menejer boshqaradi. Unga shveysarlar, bagaj toshuvchilar, liftchilar, yo'lak xizmatkorlari, joylashtiruvchilar, haydovchilar (ijaraga olingan mashinalar va mehmonlar avtomobillarni joylashtirishga xizmat qiluvchilar) bo'ysinadi.

Mijozlar tasavvuridagi mehmonxona hakida birinchi muhim vazifa xizmat ko'rsatish xizmati xodimlari zimmasiga alohida mas'uliyat yuklaydi. Odatda mehmonlarni mehmonxona ostonasida birinchi bo'lib shveysarlar-eshik og'alari kutib olishadi. Ular mehmonlar bilan salomlashishi, mashinalardan tushushlariga ko'maklashishlari lozim. Shveysarlar mehmonxonada mavjud xizmatlar, mehmonxona tadbirlari (konferensiya, banketlar), mehmonxona joylashgan joy, uning tevarak-atrofi haqida batafsil ma'lumotlarga ega bo'lishlari zarur.

Mehmonlarni xonaga kuzatib borish, yuklarini yetkazib kelish bilan daxlsiz-yo'lak xizmatkorlari shugullanadi. Kuzatib kelish vaqtida ularga mehmonlar bilan so'zlashib borish tavsiya etiladi. Bunda albatta mehmonxonada mavjud xizmatlar haqida ma'lumot berish ayniqsa juda muhim; restoranlar, kafe, barlar, kirxona kimyoviy tozalash, basseyin, sportzallari va h.k lar mavjudligi ularning ish rejimi haqida so'zlab berish kerak.

Xonaga kelishi bilan daxliz xodimi birinchi navbatda mehmonga joylashishda yordam berishi lozim va bir vaqtning o'zida hamma narsa sozligini tekshiradi. Nima kanday ishlayapti (radio, televizor, yoritish, konditsionerlar, telefonlar, mini bar va h.k. lar) tekshirib ko'rilishi zarur.

Juda ko'p muhim xizmatlarni mehmonlarga maxsus xodimlar ko'rsatadi. Ularni mehmonxona vestibyullari yoki bevosita qavatlarda alohida stol qo'yib o'tirishganini ko'rish mumkin. Konserjilar deb ataladigan bu odamlar ma'lum vaqtgacha mehmonxona xizmatchilari emas edilar. Ular mehmonxona mijozlariga xizmat ko'rsatish huquqini sotib olishga mustaqil tadbirkorlar hisoblanishardi. Konserjilar tipik xizmatlariga ko'proq quyidagilar kiradi:

- mehmonlarga teatrga biletlar sotib olish va olib kelib berish;
- shahar restoranlari stoliga buyurtma bsrish;

temiryo'l, avtobus, avia biletlarga buyurtma berish va olib kelib berish, ichki, shaharlararo, xalqaro transportlar ishi haqida ma'lumot berish;

vrach qabuliga, kosmetik salon, sartaroshxonaga o'rin band etish; magazinlar, ko'rgazmalar, muzeylar ishlashi, mahalliy diqqatga sazovor joylar haqida ma'lumot berish;

favqulotda yordam (masalan, vrach, notarius, yurist chaqirish); mijozning mutlaqo shaxsiy topshiriqlarini bajarish (viza rasmiylashtirish, harid qilish va h.k. lar).

Qabul qilish xizmati va hisob kitob qismi. Qabul qilish xizmatini ko'pincha otelning «yuragi» yoki «asab markazi» deb ataydilar. Ushbu xizmat bilan mehmonlar ko'proq aloqada bo'ladilar, ular mehmonxonada bo'lish vaqtida xizmatlar va ma'lumotlar bo'yicha murojaat qiladilar.

Qabul qilish xizmati muhim vazifasiga mehmonlar bilan salomlashish va ularni joylashtirishda zarur rasmiyatchiliklarni bajarish kiradi. Qabul qilish xizmati xodimi (porte) shveysardan keyin kirishda turadigan mehmonxonaning amaldagi birinchi xodimi hisoblanadi va mehmonlar bilan ilk alokada bo'ladi. Mehmonlarni qanday kutib olish, qanday salom alikda bo'lish, rasmiyatchiliklarni qanday tez bajarish (bronlashtirishni, anketa to'lg'izish, oldindan to'lovni tekshirish) ko'p jihatdan unga bog'liq. Shunga qarab mehmonxona haqida mehmon eng yorqin tasavvurga ega bo'ladi. Shu munosabat bilan qabul qilish xizmatiga quyidagi talablar qo'yiladi:

Qabul qilish xizmati bevosita mehmonxonaga kirish joyiga yaqin bo'lishi kerak; mehmonxona vestibuly katta maydonni egallagan bo'lsa, ichki ko'rinish dinamik harakteri mehmon mo'ljal olishi uchun qabul qilish xizmati turgan joyga yo'naltirilishi zarur;

Xodim turgan joy tartibsiz tashlangan qog'ozlar, keraksiz buyumlardan toza bo'lishi kerak;

Qabul qilish xizmati xodimi nuqsonsiz ko'rinishga ega bo'lishi, o'zini tavoze bilan tutishi lozim. Mehmonlar bilan faqat tik turgan holda

soʻzlashish darkor. Ularni kuttirib qoʻymaslik kerak. Unutmaslik lozim, xodimga mehmonlarni munosib kutib olishdan muhimroq ish yoʻq.

Joylashtirish chogʻida yana bir bor oldindan bronlashtirish shartlarini (xona kategoriyasi, qulaylik mavjudligi, derazadan koʻrinish, narx, boʻlish muddati, joʻnab ketish ehtimoli va h.k.lar) kelishib olinishi zarur. Agar mehmonga anketa toʻlgʻazish zarur boʻlsa, bu ishni iloji boricha koʻngilliroq amalga oshirish kerak. Misol uchun, agar mehmon ushbu mehmonxonada avval ham turgan boʻlsa, anketada faqat uning imzo qoʻyishi yetarli (uning mehmonxonada birinchi boʻlishi chogʻida saqlanib qolgan maʼlumotlar koʻzda tutilayapti).

Qabul kilish xizmati hisob-kitob qismi vazifasiga shuningdek xonalarni taqsimlash va boʻsh oʻrinlarni hisoblash, hisob yozib berish va mijozlar bilan hisob-kitobni amalga oshirishga ham kiradi.

Mehmonlar yetib kelishgacha qabul qilish xizmati bronlashtirish xizmati byurosidan ishlangan buyurtmalarni oladi. Ularga muvofiq xonalar fondi harakati kartasi tuziladi, bu mehmonxonada boʻsh oʻrinlar hisobini olishga yordam beradi.

Qabul kilish xizmati vazifalaridan biri – mehmonlar kartotekasini yuritish. Har bir mehmon uchun u mehmonxonaga kelgandan keyin maxsus kartochka toʻldiriladi. Unda mehmon bilan munosabatda boʻlgan barcha mehmonxona xizmatlari tomonidan yigʻilgan maʼlumotlar aksini topadi. Bu maʼlumotlar mehmon ikkinchi safar tashrif buyurganidan xizmat koʻrsatish sifatini ancha oshirish, uning xohish va istaklarini toʻlaroq kondirish imkonini beradi. Bunda ish mehmonxonaga doimiy mijozlarni koʻproq jalb etish, mehmonxonani qoʻshimcha reklama qilish maqsadlarida juda muhimdir.

5.4. Ziyorat turizmida umumiy ovqatlanish infratuzilmasining oʻziga xos jihatlari

Oʻzbekistonda turizmni rivojlantirish, turistlarga xizmat koʻrsatish tizimini kengaytirish va ular uchun barcha sharoitlarni yaratish maqsadida yangi turistik majmualar, mehmonxonalar, kempinglar, restoranlar, barlar, transport sohalari, qurilish uchun katta mablagʻlar

ajratilmoqda. Bunday sur'atda turizmni rivojlantirish albatta umumiy ovqatlanishni ham rivojlantirishini taqozo etadi, chunki barcha turistlar goh ichki turist bo'lsin, goh tashqaridan kelsin, ulardan qat'iy nazar restoran xo'jaligiga yoki ovqatlanish tarmog'idan foydalanishga majbur. Aks holda insonlar ovqatlanish uchun barcha mahsulotlarni o'zlari bilan olib yurishi kerak yoki uy sharoitlarida tayyorlab, iste'mol qilishi kerak bo'ladi. Ammo turistlarda bunday imkoniyatlar yo'q, shuning uchun ham ular ovqatlanish xizmatidan foydalanishga majburdir va mana shu holatlarning mavjud bo'lishi turizm umumiy ovqatlanishni uyg'un holda rivojlantirishi uchun imkon beradi. Shuning uchun ham turizmda asosiy xizmat turlaridan birini ovqatlantirish xizmati tashkil etadi.

Turizm sohasida faoliyat ko'rsatayotgan ovqatlanish korxonalarining asosiy maqsadlari turistlarni ovqatga bo'lgan ehtiyojini qondirishdan iborat. Ovqatlanish jarayonlari vaqti – vaqti bilan odamlarning muloqat, tarbiyalash, ko'ngil yozish jarayonlariga to'g'ri kelib qoladi.

Ovqatlanish korxonasining joylashgan o'rnini uni kurilishi oldidan yoki ovqatlanish korxonasida ilgari qurilgan binoni rekonstruksiya qilish chog'ida tanlanadi. Butun dunyo turizm amaliyotida shu narsa aniqlanganki, muvaffaqiyatli va qulay joylashgan restoranda uning tovar aylanmasi 30 % ga oshishi kuzatilgan.

Ovqatlanish korxonasining asosiy faoliyati ovqat tayyorlash va uni realizatsiya qilish hisoblanadi. Xo'randalarning ko'ngil ochishlari uchun shinam ovqatlanish korxonalari musiqachilarni va artistlarni taklif qiladilar. Ovqatlanish korxonasi ixtiyoriga yoki balanslariga magazinlar, yordamchi xo'jaliklar va boshqalar kirishi mumkinkim, bular korxona faoliyatining asosiy rivojlanganligidan guvohlik beradi.

Odatda turistlar, qaysi mamlakatda bo'lsalar, o'sha mamlakatning oshxonasi bilan tanishishga qiziqadilar. Ko'p hollarda mezbon shaharning qiziqarli milliy hamda arzon restoranlari haqida ma'lumot berib o'tadi, milliy restoranlar bilan tanishtirish nuqtai nazarda ham sayohatlar tashkil etiladi. Masalan, Bavariyada turistlarni Bavariya (Germaniya) oshxonasi bilan, ya'ni mashhur oq sosiskalar hamda

bavarcha pivo bilan mehmon qilishadi. Myunxenda esa turistni albatta «Xofbrayxaus»ga, ya'ni eng katta pivo zaliga olib borishadi. Avstriyada dunyoda eng mashhur bo'lgan vencha shmitsellarni (katlet turi) tamaddi qilishga olib borishadi va albatta Italiyada esa tushlik ovqatlanish pastasiz (makaronli taom) o'tmaydi. AQSH da va barcha ko'pgina mamlakatlarda afg'oncha, kolumbcha, hindcha, chexcha kabi restoranlar ishlab kelmoqda. So'ngi paytlarda vegeterianlarga xos oshxonalar ham paydo bo'la boshladi, yoki yahudiylar uchun maxsus tayyorlanadigan taomlar restoranlari ham faoliyat ko'rsatib kelmoqda.

5.5. Ziyorat turizmida qo'shimcha xizmatlar ko'rsatish infratuzilmasining o'ziga xos jihatlari

Bugungi kunda jadal rivojlanib borayotgan turizm turlaridan biri bo'lgan ziyorat turizmi mamlakatimiz Prezidentining ham e'tiboridan chetda qolgani yo'q. Bu borada, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning 2018-yil 6-fevraldagi "Kirish turizmini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ-3509-sonli Qarori asosida mamlakatimizda kirish turizmini, xususan, ziyorat turizmi asosida kirish turizmini rivojlantirish bo'yicha quyidagi ustuvor vazifalarni belgilab bergan:

Ziyorat turizmini qo'llab-quvvatlash bo'limini tashkil yetish;

Ommaviy axborot vositalarida, shu jumladan, xorijiy ommaviy axborot vositalarida O'zbekiston to'g'risida Islom dini va boshqa jahon dinlarining madaniy-tarixiy va ilmiy-texnologik markazi sifatida axborot materiallarini targ'ib qilish;

O'zbekiston Respublikasida ziyorat turizmini rivojlantirish bo'yicha amaliy chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish;

Xorijlik turistlar, jumladan, ziyorat qilish maqsadida kelayotgan turistlar uchun viza va ro'yxatdan o'tish tartibotlarini bosqichma-bosqich soddalashtirish.

Muhtaram Prezidentimizning 2021 yil 9 fevraldagi "Respublikada turizm bozorining turli segmentlariga yo'naltirilgan turizm mahsuloti va xizmatlarini diversifikatsiya qilish, ularning raqobatbardoshligini yanada

oshirish, maqbul va qulay ichki va xalqaro ziyorat turizmi muhitini yaratish, transport yo‘nalishlarini kengaytirish, transport xizmatlari sifatini oshirish, turizm mahsulotlarini keng targ‘ib qilish, shuningdek, mamlakatimizning sayohat va dam olish uchun xavfsiz manzil sifatidagi imijini mustahkamlash maqsadida” qabul qilingan “O‘zbekiston respublikasida ichki va ziyorat turizmini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6165-sonli Farmonida O‘zbekiston Respublikasida Ziyorat turizmini yanada rivojlantirish bo‘yicha bir qancha vazifalarni belgilab berilgan hamda “Xorijiy mamlakatlarda O‘zbekiston Respublikasining ziyorat turizmi salohiyatini manzilli targ‘ib qilish chora-tadbirlari rejasi” ishlab chiqilgan.

Qolaversa, Respublikamizdagi boy tarixga ega qadamjolar, muqaddas ziyoratgohlar mavjudligi hududda ziyorat turizmini rivojlantirish orqali nafaqat mahalliy balki, xorijlik sayyohlar oqimini kengaytirish imkoniyatlarini vujudga keltiradi. Ushbu soha rivoji uchun qadimiy obidalar, muqaddas ziyoratgohlar, tarixiy va madaniy yodgorliklar bilan bir qatorda, yurtimizning betakror madaniyati va an‘analari, xushmanzara tabiati hamda fayzli go‘shalari bilan sayyohlarni o‘ziga rom etib kelayotgan mamlakatimizda ushbu yo‘nalishda amalga oshirilayotgan sa’y-harakatlar turizm industriyasi hamda infratuzilmasini yanada rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu sababli Respublikamizda ziyorat turizmi imkoniyatlaridan samarali foydalanish samaradorligini oshirish yo‘llarini tadqiq qilish, bu borada zarur ilmiy jihatdan asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish o‘ta dolzarbdir.

Ziyorat turizmini mamlakatimizda yanada rivojlantirish maqsadida ko‘plab islohotlar amalga oshirilmoqda. Shunday islohotlardan biri sifatida yurtimizga tashrif buyurayotgan ziyoratchilarga qulaylik yaratish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish Davlat qo‘mitasining “Turistik xizmatlarni sertifikatlashtirish markazi” davlat unitar korxonasi tomonidan yangi davlat standarti ishlab chiqildi. Bunda O‘zDSt 3220:2017 “Turistik xizmatlar. Joylashtirish vositalari.

Umumiy talablar” bo'yicha standart 2018-yilning 1-yanvaridan kuchga kirdi.

O'rnatilgan qoidalarga ko'ra, har bir mehmonxonaning umumiy xonalar sonining kamida o'ndan birida Qur'onikarim, ibodat qilish uchun joy namoz hamda kamida 30 foizida qibla ko'rsatgichi bo'lishi shartligi va qulayliklar belgilab quyildi.

Jahon sayohat va turizm kengashi (WTTC) tomonidan “Sayohat va sayyohlik sanoatining iqtisodiy natijalari” bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotlarda respublikamiz sayyohlik sohasi jadal taraqqiy topayotgan besh davlatning biri sifatida qayd yetilganini ko'rishimiz mumkin. Turizm nafaqat iqtisodiy rivojlanish hamda yalpi ichki mahsulot hajmining ortishi, balki aholi bandligini ta'minlash, turmush darajasi va sifatini oshirish, mamlakatimizga tashrif buyurgan turistlar hisobiga xorijiy valyuta tushumini oshishiga, yurt farovonligi va taraqqiyoti yuksalishiga ham katta ta'sir ko'rsatadi. Mutaxassislarning hisob-kitoblariga ko'ra, har 30 nafar sayyoh mamlakat turizmi sohasida bitta, unga turdosh tizimlarda esa ikkita yangi ish o'rnini yaratishga turtki beradi.

Shu tufayli mamlakatimizda ziyorat turizmini rivojlantirishda quyidagi ishlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

Mamlakatimizdagi ziyorat turizmi resurslarining salohiyatini o'rganib ulardagi mavjud imkoniyatlardan foydalangan holda yangi turistik marshrutlarni ishlab chiqish;

Ziyorat turizmi ob'ektlaridagi kerakli inratuzilmani shakllantirish;

Ziyoratchilarga ko'rsatiladigan (joylashtirish, ovqatlanish, transport) xizmatlar sifatini oshirish;

Ma'lum bir toifalarga tegishli bo'lgan halol muvofiqlik sertifikatiga qo'yilgan talablar asosida xizmat ko'rsatadigan umumiy ovqatlanish korxonalarini tashkil etish va boshqalar.

Respublikamizning ko'pgina mintaqalaridagi tarixiy, diniy-ziyosat obidalari, buyuk siymolar qabrlari, dahmalari, masjidular madrasalarini qaytadan tiklash va ta'mirlash ishlari keng miqyosda amalga oshirildi. Buning natijasida turistik resurslarning soni yanada ko'paydi va ularning

ahvoli ancha yaxshilandi. Bu esa turizm sohasining rivojlanishida, ayniqsa ziyorat turizmning barqaror rivojlanishida muhim omilga aylanmoqda.

O‘zbekistonda ziyorat turizmi sohasiga alohida e’tibor qaratilmoqda hamda bu soha rivojlanib borayotganligi sababli islom diniga e’tiqod qiluvchi va musulmon aholiga ega bo‘lgan ko‘plab davlatlardan musulmon turistlar tashrif buyurmoqda. “Jahonda 1,6 milliarddan ortiq musulmonlar bo‘lib, dunyoning deyarli barcha mintaqasida musulmonlar yashaydi. Indoneziya (260 mln.), Malayziya (32 mln.), Pokiston (150 mln.) singari mamlakatlarning fuqarolarini ziyorat turizmi maqsadida Buxoro, Samarqand, Toshkent va Termiz shaharlarida joylashgan muqaddas qadamjolarga jalb etish O‘zbekiston uchun ulkan imkoniyatdir. Ushbu shaharlarda joylashgan muqaddas qadamjolar, avliyolar va ulamolarning maqbaralari, qadimiy masjid va madrasalar, muqaddas qo‘lyozmalarni ko‘rsatish turizm salohiyatini yaxshilashga turtki bo‘lishi turgan gap”⁶³.

O‘zbekistan Respublikasi Prezidenti 2020-yildagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida ziyorat turizmini jadal rivojlantirish zarurligiga alohida to‘xtalib, yurtimizda 8 ming 200 dan ziyod madaniy meros ob’ekti mavjud bo‘lib, turizm marshrutlariga ularning atigi 500 tasi kiritilganligini ta’kidladilar.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev turizmni izchil rivojlantirish istiqbollari bag‘ishlangan yig‘ilishda “O‘zbekiston ham sayohat, ham ziyorat uchun qulay mamlakat. Chunki ona zaminimizda butun dunyoga ma’lum va mashhur bo‘lgan ajdodlarimiz mangu qo‘nim topgan. Ular qoldirgan boy ma’naviy madaniy merosga xalqaro maydonda qiziqish juda katta”⁶⁴, – deb ta’kidlagan edi. Haqiqatan ziyorat turizmini rivojlantirish va bu orqali turizm sohasini yangi bosqichlarga olib chiqish uchun mamlakatimiz boy turistik salohiyat va imkoniyatlarga ega. Shunday ekan oldimizda turgan muhim

⁶³O‘.P.Jiyanov, Yu.R.Xudoynazarov “O‘zbekiston-ziyosat turizm markazlaridan biri”. Buyuk ipak yo‘li chorraxasida ziyorat turizmining renessansi (ilmiy maqolalar to‘plami). S.: 2019 y. -192 s.

⁶⁴ <https://uza.uz/uz/posts/turizmni-yanada-rivozhlantirish-masalalari-mu-okama-ilindi-03-10-2017>

vazifalardan biri, O'zbekistonning ziyorat turimini rivojlantirish imkoniyatlarini va istiqbollarini tadqiq qilish hisoblanadi.

Tayanch so'z va iboralar: Transport vositasi, avtomobil transporti, transport ijarasi, transportda ekskursiya, Joylashtirish vositasi, mehmonxona industriyasi, Ovqatlanish korxonasi, restoran, menyu (taomnoma), qo'shimcha xizmatlar, qo'shimcha xizmatlarning turlari.

Mavzuga doir savol va topshiriqlar:

1. Turizmda transportning qaysi asosiy turlari qo'llaniladi?
2. Turizmda transport ta'minotining qaysi yo'nalishlari farqlanadi? Ularni xarakterlab bering.
3. "Joylashtirish vositasi", "Mehmonxona" degan tushunchalar nimalardan iborat?
4. Mehmonxonalarda ko'rsatiladigan asosiy xizmat turlarini sanab o'ting.
5. Turli kategoriya (toifa) dagi mehmonxonalarga qanday talablar qo'yiladi?
6. Ovqatlanish korxonalarining maqsadi nimadan iborat?
7. Ovqatlanish korxonalari turlarini sanab o'ting va ularga ta'rif bering.
8. Ziyorat turizmida qo'shimcha xizmatlar ko'rsatishga nimalar kiradi?
9. Ziyorat turizmida qo'shimcha xizmatlar ko'rsatish inratuzilmasining mohiyatini tushuntiring.

VI BOB. TURLI MAMLAKATLARDA ZIYORAT TURIZMINI RIVOJLANTIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

6.1. Yevropada ziyorat turizmini rivojlantirishning o'ziga xos jihatlari.

6.2. Xitoyda ziyorat turizmini rivojlantirishning o'ziga xos jihatlari.

6.3. Hindistonda ziyorat turizmini rivojlantirishning o'ziga xos jihatlari.

6.4. Shimoliy va Janubiy Amerikada ziyorat turizmini rivojlantirishning o'ziga xos jihatlari.

6.5. Afrika mintaqasida ziyorat turizmini rivojlantirishning o'ziga xos jihatlari.

6.1. Yevropada ziyorat turizmini rivojlantirishning o'ziga xos jihatlari

Yevropa sharqiy yarim sharda joylashgan bo'lib, uning umumiy maydoni (orollar bilan birgalikda) 10,5 mln. kv.km. tashkil qiladi. Mintaqa turistik resurslarga juda boy hisoblanadi. Yevropa mintaqasi insoniyat sivilizatsiyasining eng muhim, qadimgi o'choqlaridan biri bo'lib xalqaro turizm oqimining ilk bor tashkil etilgan mintaqasidir. Hozirgi vaqtda uning siyosiy haritasida 40 tadan ortiq davlatlar mavjud bo'lib, ulardan 27 tasi Yevropa Ittifoqi tashkilotiga birlashgan. Bu davlatlarning aksariyat qismi respublika va 12 tasi esa monarxiya davlat boshqaruviga egadir. Yevropada dunyoning iqtisodiy jihatdan eng rivojlangan qudratli «sakkizlik» davlatlari (Germaniya, Buyukbritaniya, Fransiya, Italiya va Rossiya Federatsiyasi) joylashgan.

Ushbu mintaqada ko'p aholi soniga ega bo'lmagan juda kichik «mitti davlatlar» (Andorra, Monako, San-Marino, Lixtenshteyn, Vatikan) ham o'rnashgan. Xorijiy Yevropa (MDH davlatlaridan tashqari) dunyo aholisining eng zich joylashgan mintaqalaridan biri bo'lib, uning hududida yer shari aholisining 8 foizdan ortiq qismi yashaydi. Yevropa dunyoda eng yirik, qadimiy shaharlari, ibodatxonalari, sport inshootlari, ko'ngil ochar o'yingohlari, san'at

markazlari (teatrlar, muzeylar, san'at galareyalari), dam olish maskanlari, kurortlar, shifobaxsh mineral suvlari, dengiz plyajlari, mehmonxonalar, restoranlar, zamonaviy transport kommunikatsiyalari (aeroportlar, dengiz, daryo portlari, temir yo'l, avtomobil vokzallari, yuqori sifatli avtomobil yo'llari, tezyurar poyezdlari va havo kemalari, yuqori klasli dengiz va okean passajir kemalari), rivojlangan bank-moliya tashkilotlari, xilma-xil servis xizmati ko'rsatuvchi korxonalari barchasi xalqaro turizmning rivojlanishiga juda katta imkoniyatlar tug'diradi.

Yevropa mintaqasi tabiiy geografik va siyosiy jihatdan G'arbiy Yevropa, Markaziy (Sharqiy) Yevropa, Shimoliy Yevropa va Janubiy (O'rta Yer dengizi bo'yi) Yevropa qismlariga bo'linadi. Yevropa xalqaro turizmida egallagan salmog'ining pastligiga qarmasdan, hamon u dunyo turizmning eng asosiy mintaqalaridan bir bo'lib qolmoqda (54,8%). Buning asosiy sabablari birinchidan mintaqada xilma-xil rekratsion (tabiiy, madaniy-tarixiy) resurslarning mavjudligi, ikkinchidan turizmning rivojlanishi uchun qo'lay ijtimoiy-iqtisodiy va infratuzilmalar omillari (yuqori darajadagi turmush tarkibi, shahar aholisi salmog'ining yuqoriligi, transport tarmoqlarining serqatnovligi)dir. Yana mintaqaning geografik joylashish omili, ya'ni ko'pgina dunyo mamlakatlariga quruqlik, suv yo'llari bilan chiqish imkoniyatlarining mavjudligidir. Ushbu mintaqaning eng muhim xususiyatlaridan biri ichki mintaqaviy turistik oqimning ustunligidir. Yevropa bo'ylab sayohat qilayotgan turistlarning qariyb 9/10 qismi yevropalik aholidir.

Yevropada xalqaro turizmning rivojlanishi bo'yicha Shimoliy Yevropa mintaqasi, undan so'ng Janubiy (O'rta Yer dengizi bo'yi) mamlakatlari (Ispaniya, Italiya, Gresiya va Fransiya) yetakchilik qilib kelmoqda.⁶⁵

Yevropa mamlakatlari ham ziyorat turizmi rivojlanishgan mintaqalardan biri hisoblanadi. Yevropa mintaqasida turizmning bu turi nafaqat milliy daromadning o'sishiga, balki ijtimoiy-iqtisodiy

⁶⁵ <https://azkurs.org/iii-bob-xalqaro-turizmning-rivojlanish-holati.html?page=8>

barqarorlikni ta'minlashga katta hissa qo'shadi. Italiya, Ispaniya, Fransiya kabi davlatlarda ziyorat turizmi orqali har yili minglab sayyohlarni jalb qilish natijasida mahalliy iqtisodiyotga sezilarli darajada foyda keltiradi. Masalan, Rimdagi Vatikan shahri, Lourdes (Fransiya), va Santiago de Compostela (Ispaniya) kabi mashhur ziyorat joylari bu davlatlar YalMiga o'nlab milliard yevro daromad olib kelmoqda. Masalan 2022-yilda Yevropaning ziyorat turizmiga ixtisoslashgan hududlarida turizmning umumiy hajmidan 15 foiz daromad kelgani qayd etildi. Bunday ko'rsatkichlar diniy va madaniy yo'nalishdagi sayohatlar global sayohatlar bozorida muhim o'rin egallashini ko'rsatadi.

Yevropada ziyorat turizmi bilan bog'liq iqtisodiy ko'rsatkichlar turizm infratuzilmasining rivojlanishi, bandlik darajasi va investitsiyalarning ortishi orqali namoyon bo'ladi. Bunda:

Ziyorat turizmi mintaqadagi minglab insonlar uchun barqaror ish o'rinlarini yaratadi. Turizm sohasida ishlovchi aholining 10 foizi ziyorat joylariga xizmat ko'rsatish bilan shug'ullanadi. Masalan, Lourdes shahridagi xizmat ko'rsatish sohasi 12 000 dan ortiq ishchi o'rni bilan mintaqa aholisining daromadlarini oshirishga xizmat qilmoqda;

Mehmonxonalar, restoranlar, transport tarmoqlari va ziyorat joylariga qo'shimcha xizmat ko'rsatish ob'ektlariga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmi yildan-yilga ortib bormoqda. Masalan, Vatikan shahri ajratilgan investitsiyalar 2023-yilda va Santiago de ompostela atrofidagi infratuzilmaga o'tgan yilga nisbatan 12 foizga ko'paydi. Bu turizm sohasida yuqori sifatli xizmat ko'rsatishni ta'minlaydi;

Xalqaro moliyaviy tashkilotlar va davlatlarning turizmni qo'llab-quvvatlash dasturlari orqali ziyorat turizmi sohasiga qariyb 25 milliard yevro hajmida mablag' yo'naltirildi (2021-2023-yillar). Bu esa nafaqat mavjud ziyorat joylarini rivojlantirish, balki yangi turizm obyektlarini tashkil etishga ham xizmat qilmoqda.⁶⁶

Ziyorat turizmi madaniy va diniy merosning asrab-avaylanishida muhim rol o'ynaydi. Mintaqadagi tarixiy va diniy obidalar xalqaro

⁶⁶D.B.Uroqova va boshqalar. Yevropa mintaqasida ziyorat turizm rivojlanishining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari. "Iqtisodiyot va zamonaviy texnologiya" onlayn ilmiy jurnal. 03 nashr: 12 (2024). 16-bet.

miqyosda diqqatga sazovor joylar sifatida tan olinadi. Masalan, Vatikan shahridagi Pyotr ibodatxonasi, Istanbuldagi Ayasofiya va Milandagi Duomo ibodatxonasi nafaqat ziyoratchilar, balki tarixiy yodgorliklarni qadrllovchi millionlab sayyohlarni jalb etadi. Ziyorat turizmining rivoji bu obidalar atrofida infratuzilmani takomillashtirish, madaniy tadbirlarni tashkil etish va YUNESKO tomonidan qo‘llab-quvvatlanadigan xalqaro loyihalarning kengayishiga olib kelmoqda. Shuningdek, diniy va madaniy merosning saqlanishi uchun turizm sohasi daromadlarining bir qismi qayta investitsiya qilinmoqda.

Ziyorat turizmi iqtisodiy foyda keltirsa-da, ekologik muammolarni ham keltirib chiqarishi mumkin. Turistlar sonining oshishi ziyorat joylaridagi atrof-muhitga yukni kuchaytiradi. Masalan, chiqindilarni boshqarish tizimi yetarli darajada rivojlanmagan hududlarda atrof-muhit ifloslanishi kuzatilmoqda. Shu sababli, Yevropa mamlakatlari barqaror turizm tamoyillarini joriy etishga alohida e’tibor qaratmoqda. Masalan, ekologik toza transport tizimlarini rivojlantirish, chiqindilarni qayta ishlash inshootlarini tashkil etish va ziyoratchilar uchun ekologik ongini oshirish bo‘yicha dasturlar ishlab chiqilmoqda.

COVID-19 pandemiyasi dunyo bo‘ylab turizm sohasi, xususan ziyorat turizmi uchun katta sinov bo‘ldi. 2020-yilda turistlar oqimi 70 foizga kamaydi, bu esa mintaqadagi ziyorat joylari atrofida joylashgan xizmat ko‘rsatish korxonalarining yopilishiga va iqtisodiy zararlarga olib keldi. Biroq pandem ildi, bu esa pandemiya davrida ham ziyorat turizmini qisman saqlab qolishga yordam berdi. Masalan, Vatikan muzeylari va boshqa ziyorat obyektlari onlayn platformalar orqali dunyo bo‘ylab millionlab insonlarga namoyish qilindi. Ushbu tajribalar turizmning raqamli transformatsiyasi uchun yangi istiqbollarni ochib berdi.

Ziyorat turizmida raqamli texnologiyalarning joriy etilishi bu sohaning rivojlanishini tezlashtirdi. Yevropa mamlakatlarida ziyoratchilar uchun maxsus mobil ilovalar va platformalar yaratilmoqda. Ushbu texnologiyalar yordamida sayyohlar ziyorat joylari haqida batafsil

ma'lumot olishlari, yo'nalishlarni rejalashtirishlari va onlayn xizmatlardan foydalanishlari mumkin.

Masalan:

Mobil ilovalar orqali mehmonxona va restoranlarni bron qilish, transport jadvalini tekshirish va ziyorat joylari bo'ylab sayohat qilish osonlashmoqda;

Virtual va kengaytirilgan reallik texnologiyalari orqali tarixiy va diniy joylarni ziyorat qilish tajribasi yanada boyitilmoqda. Bu innovatsiyalar ayniqsa yosh avlodni ziyorat turizmiga jalb qilishda katta ahamiyat kasb etmoqda.⁶⁷

Yevropa mamlakatlari o'rtasida ziyorat turizmiga oid mintaqalararo hamkorlik rivojlanmoqda. Bunday hamkorlik xalqaro turizmni rivojlantirish va turizm oqimini bir tekis taqsimlashga yordam beradi. Yevropa Ittifoqi doirasida madaniy va diniy yo'nalishdagi sayohatlar uchun yagona vizani joriy qilish ushbu turizmning yanada qulay bo'lishiga xizmat qilmoqda. Masalan, "Shrines of Europe" loyihasi diniy ahamiyatga ega joylarni yagona tarmoq ostida birlashtirib, turli mamlakatlardagi ziyorat joylarini targ'ib qiladi. Bu kabi tashabbuslar ziyoratchilar oqimini bir mintaqada to'planib qolishining oldini olishga va iqtisodiy imkoniyatlarni yanada kengaytirishga yordam beradi.

Ziyorat turizmi iqtisodiy jihatdan foydali bo'lishiga qaramay, ba'zi xavf-xatarlarni keltirib chiqarishi mumkin. Bularga quyidagilar kiradi:

Turizm mavsumiyligi: Ziyorat joylari odatda ma'lum davrlarda ko'proq sayyohlarni jalb qiladi, bu esa boshqa mavsumlarda iqtisodiy faoliyatning pasayishiga olib keladi;

Narxlar o'zgarishi: Turistlar sonining oshishi sababli mahalliy aholi uchun asosiy tovar va xizmatlarning narxlari oshishi kuzatiladi;

Hududiy tengsizlik: Ziyoratchilar oqimi asosan mashhur joylarga yo'naltiriladi, bu esa kichikroq va nisbatan kam taniqli hududlarning iqtisodiy imkoniyatlarini cheklab qo'yadi.

⁶⁷D.B.Uroqova va boshqalar. Yevropa mintaqasida ziyorat turizm rivojlanishining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari. "Iqtisodiyot va zamonaviy texnologiya" onlayn ilmiy jurnal. 03 nashr: 12 (2024). 17-bet.

Bu muammolarni hal qilish uchun Yevropa davlatlari iqtisodiy diversifikatsiya strategiyalarini joriy qilmoqda. Ziyorat joylari atrofida yangi tadbirkorlik tarmoqlarini rivojlantirish va ziyorat mavsumini kengaytirish uchun maxsus dasturlar ishlab chiqilmoqda. Yevropa mintaqasida ziyorat turizmi iqtisodiy rivojlanishning muhim bo'g'ini bo'lib, mamlakatlarning YaIMiga, bandlikka va infratuzilma rivojiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda.

Fransiya hozirgi kunda Yevropada eng ko'p turistlar kelib ketuvchi mamlakat bo'lib hisoblanadi. Eng ko'p kelib-ketuvchi turistlar Germaniya, Buyukbritaniya, Belgiya, Lyuksemburg mamlakatlari fuqarolaridir. Fransiya kelib - ketuvchi turistlarni jalb etuvchi asosiy turistik resurslar mamlakatning xilma-xil, boy tabiiy resurslari (Alp tog'lari, Yassi tog'lar, karst platolari, past tekisliklar, daryo vodiylari, yam-yashil o'rmonlaridir. Fransiyaning asosiy g'ururi bo'lgan takrorlanmas dengiz qirg'oqlari 3 ming km masofaga cho'zilib ketgan. Mamlakatning granit qoyalari (Britaniya), Atlantika okeani qirg'oqlaridagi uzundan-uzoq qumli tepalar tizmasi, baxmalsimon Mayin qumli cho'milish plyaj (joy)lari va o'rtayer dengizining moviy rangli qo'ltiq (ko'rfaz)lari hamda Fransiya son-sanoqsiz madaniy, tarixiy, arxitektura yodgorliklari tashrif buyurishgan sayyohlarni o'ziga rom qoldiradi. Parij shahri mamlakatda turistlarning kelishi bo'yicha birinchi o'rinni egallaydi. Shaharda dunyoga mashhur bo'lgan Eyfel minorasi, Notr-Dam ibodatxonasi, eng yirik Luvr muzeyi, Napolyon Bonapart qabri, Lyuksemburg va Tyuirli bog'lari, Dislelend ko'ngil ochar, dam olish manzilgohlari, ilm - fan markazi Lya Vilett shahri kabilar beqiyos, son-sanoqsiz sayyohlarni o'ziga chorlaydi.

Yevropada xalqaro tashrif buyuruvchi turistlarning umumiy soni bo'yicha Fransiya keyingi o'rinni Ispaniya va Italiya davlatlari egallaydi. Ispaniyaga tashrif buyuruvchi turistlarning aksariyat qismi G'arbiy Yevropa jumladan, Germaniya, Buyukbritaniya, Islandiya, Irlandiya mamlakatlari fuqarolaridir. Ispaniya xorijiy sayyohlarga plyajlari dam olishdan tashqari keng ko'lami ekskursiya dasturlarini taklif qilib kelmoqdalar. Mamlakatdagi asosiy turistlar oqimi Salvador

Dali teatr muzeyi (Fregeyros sh.), Prado muzeyi (Madrid sh.), Ispaniya qiroli rezidensiyasi (Ekskorial sh.), ochiq osmon shahar - muzeyi (Toledo sh.)lariga yo'naltirilgan.

Keluvchi turistlar umumiy soni bo'yicha Yevropada Italiya davlati uchinchi o'rinni egallaydi. Italiya o'zining xilma-xil arxitektura yodgorliklari, madaniyati, rassomlik, haykaltaroshlik san'ati bilan dong taratgan mamlakatdir. Italiyaga ko'proq Fransiya, Germaniya, Shveysariya, Avstriya, Harvatiya, Sloveniya, Serbiya va Chernogoriya mamlakatlari fuqarolari tashrif buyurishadilar. Mamlakatda turistlar ko'proq Venesiya, Florensiya, Pizu, albatta Rim shaharlariga borishga intiladilar. Turistlarning to'xtovsiz oqimi Vatikanga borib ziyorat amallarini bajo keltirish uchun harakat qiladilar.

Yevropada xorijiy sayohatga chiquvchi davlatlar o'rtasida Germaniya alohida o'rin egallaydi. Bu yerda chet ellarga chiquvchi turistlar soni yiliga o'rtacha 5 % ga o'smoqda. BTT ma'lumotlariga ko'ra, Germaniya turistlarning xorijiy sayyohatga chiqishi 2020-yilga borganda ikki barobarga o'sishi kutilmoqda va uning umumiy soni 163,5 mln. kishi (chiqishi)ga teng bo'lishi mo'ljallangan.⁶⁸

So'ngi yillarda turistlarning chet ellarga sayohatga chiqishi bo'yicha Chexiya davlati, Fransiya, Italiya, Ispaniya, Niderlandiya kabi mamlakatlarni orqada qoldirib ketdi. Turizm bozori Yevropaning Polsha, Vengriya, Ruminiya, Sloveniya kabi mamlakatlarida ham tezkorlik bilan rivojlanib bormoqda.

6.2. Xitoyda ziyorat turizmini rivojlantirishning o'ziga xos jihatlari

Ziyorat turizmi sohasida eng katta ulush Osiyo mamlakatlariga tegishli. 2020-yilda ularning jami harajatlar 29,6 milliard dollarni tashkil etadi. Bunda eng faol sayyohlar Indoneziya, Xitoy va Malayziya sayohlari sanaladi.

Xitoyda so'nggi 30 yil ichida sayyohlar oqimi ko'p marta oshdi va bugungi kunda sayyohlar soni bo'yicha dunyoda 6-o'rinni egallab turibdi. Biroq, Xitoy ilgari sayyohlar uchun eng yopiq mamlakatlardan

⁶⁸<https://azkurs.org/iii-bob-xalqaro-turizmning-rivojlanish-holati.html?page=8>

biri bo'lgan. 1970-yillarning oxiriga kelibgina vaziyat keskin o'zgardi, hukumat hatto chuqur choralar ko'rdi. Masalan, 1988-yilda mamlakat janubidagi Xaynan oroliga provinsiya maqomi berildi va turizm uning iqtisodiyotida ustuvor sohaga aylandi; zavodlar qirg'oqdan boshqa hududlarga ko'chirildi. Hozirgi kunda Xitoy ziyoratchilarni jalb qilishda, viza rejimi sohasida islohotlarni amalga oshirishda davom etmoqda.⁶⁹

Xitoy ziyoratchilar uchun qulay va xavfsiz mamlakat. Ko'pgina mamlakatlarda bo'lgani kabi Xitoyda ham sayyohlik sohasida madaniy turizm yuqori mavqega ega. Ming yildan ortiq tarixga ega bo'lgan mamlakatda miloddan avvalgi davrlarda hukmronlik qilgan turli sulolalarga mansub ko'plab yodgorliklar, buddizm va boshqa dinlarning ziyoratgohlari, ulkan haykallar va ibodatxonalar, Buyuk Xitoy devori bor. Bundan tashqari, mamlakat ichidagi arxitektura va madaniy xususiyatlar mintaqaga qarab sezilarli darajada farq qiladi.

Xitoyda ziyorat turizmning ajralmas qismi etno turizmdir. Mamlakatda o'z milliy liboslari, urf-odatleri, oshxonalari va hatto tillariga ega bo'lgan o'nlab etnoslar yashaydi. Garchi xitoylarning o'zlari mamlakat umumiy aholisining 93 foizini tashkil qilsalar ham, ular viloyatlarga qarab farq qiladi. Sayyohlar nafaqat xitoyliklarning madaniyati va turmush tarzi, balki G'arbdan juda farq qiladigan o'ziga xos hayot falsafasi haqida ham ko'proq ma'lumot olishlari mumkin bo'ladi.

Sharqning mentaliteti G'arbnikidan farq qilganidek, Xitoy xalq tabobati ham g'arbdan farq qiladi. Bu haqiqat Xitoyda sog'lomlashtirish turizmiga alohida qiziqish uyg'otadi. Xitoy tabiblari tomonidan ming yillar davomida to'plangan bilimlar, hatto hozir ham, o'tkir va surunkali kasalliklardan aziyat chekayotgan o'n minglab odamlarga yordam beradi. Xitoy shifokorlari dorivor o'tlar, shifobaxsh buloqlar, turli xil massaj, akupunktur va boshqalar bilan qurollangan. Shu bilan birga, Xitoyni ekologik jihatdan barqaror mamlakat deb hisoblash mumkin bo'lmasa-da, ko'plab zavod va elektr stantsiyalari tufayli noyob tabiatni saqlab qolishga muvaffaq bo'lgan milliy bog'lari mavjud. Samoviy

⁶⁹ https://uz.wikipedia.org/wiki/Xitoy_turizm_sanoati

imperiyaning flora va faunasi dunyoning boshqa qismlaridan farq qiladi; u yerda siz turli xil mahalliy hududlarni va ajoyib hayvonlarni ko‘rish mumkin. Shu bilan birga, Xitoyda ekologik turizm faol turizm bilan yaxshi ishlaydi. Mashhur sayyohlik joylaridan biri bu Chjanjiajie milliy bog‘i bo‘lib, vertikal tog‘ qoyalari osmonga ko‘tariladi. U yerda siz shisha yo‘l bo‘ylab sayr qilib, Tyanmen tog‘i krantsi bo‘ylab yugurib yoki muqaddas Xua Shan tog‘idagi tor yog‘och yo‘lak bo‘ylab adrenalinni olish mumkin.

Qorli tog‘lar orasida sayohat qilishni xohlaydiganlar uchun Tibetda yo‘l bor. Bundan tashqari, yaqinda Pekin va Lxasa o‘rtasida temir yo‘l qatnovi yo‘lga qo‘yildi. Shunday qilib, dunyoning eng baland cho‘qqilariga sayohat ancha soddalashtirildi.

Xitoyda ichki turizmga alohida e‘tibor berilishi kerak. Mamlakatning mehnatga layoqatli aholisining aksariyati bepul ta‘til jadvaliga ega emasligi sababli, hukumat odamlarning mamlakat bo‘ylab sayohat qilishlari mumkin bo‘lgan festival ta‘tillari tizimini tashkil qildi. Bir yil ichida “oltin haftalar” deb ataladigan uchta davr Yangi yilga to‘g‘ri keladi, 1 may (Mehnat kuni) va 1 oktyabr (XXR milliy bayrami). Ayni kunlarda chiptalar va mehmonxonalar narxi bir necha barobar oshdi, madaniy va tarixiy joylar mahalliy sayyohlar bilan to‘lib ketdi. Chet ellik sayyohlar Xitoyga sayohatni rejalashtirishda ushbu omillarni hisobga olishlari kerak.

Nihoyat, Xitoyda xarid qilish-turizm ham hisobga olinishi kerak. Hamma biladiki, dunyoda ishlab chiqarilgan mahsulot va tovarlarning asosiy qismi “Xitoyda ishlab chiqarilgan” yorlig‘i bilan ta‘minlanadi, tabiiyki, bu tovarlarning narxi manba mamlakatda buyurtma bo‘yicha arzonlashadi. Darhaqiqat, eng yaxshi sifat va narx nisbatidagi ko‘p narsalarni butiklar va savdo markazlari bilan to‘ldirilgan Xitoyning yirik shaharlarida topish mumkin. Shu bilan birga, har qanday didga mos keladigan esdalik sovg‘alarining keng assortimenti: xitoy uslubidagi interyer buyumlari, turli xil vazalar va haykallar, nayranglar, aksessuarlar va boshqalarni Samoviy imperiyaga sayohatni eslab qolish

uchun esdalik sifatida sotib olish mumkin. Ma'lum ma'noda, Xitoyni do'kondorlar uchun "Makka" deb atash mumkin.⁷⁰

Turoperatorlarning tavsiyalari va o'z taassurotlaringiz asosida siz Samoviy Imperiyaga juda ko'p turli yo'nalishlarni tanlash mumkin. Eng rivojlangan sayyohlik yo'nalishlarini ikki qismga bo'lish mumkin: markaziy mintaqa, jumladan Pekin va Shanxay kabi tarixiy diqqatga sazovor joylar va zamonaviy metropoliyalar va sayyoh Xitoy tabiati bilan tanishishi mumkin bo'lgan atrofdagi viloyatlar - go'zal milliy bog'lardan tortib to go'zal plyajlargacha.

Bir necha asrlar oldin Xitoyga tashrif buyurgan birinchi sayohatchilar Buyuk Ipak yo'li bo'ylab harakatlanishgan. Bungacha Samoviy Imperiya va Markaziy Osiyo mamlakatlarini engib bo'lmas tog'lar va ufqsiz cho'llar ajratib turgandek edi. Lekin bir fursat tufayli mamlakatlar o'rtasida aloqa yo'lga qo'yildi, savdo aloqalari o'rnatildi. Bir necha ming yillar davomida Xitoy ipakni tashidi, uning ishlab chiqarishdagi nou-xau mamlakat uchun katta sir bo'lib qoldi, G'arb esa Afrikada ishlab chiqarilgan paxta, urug'lik va hatto fil suyagi kabi turli xil tovarlarni olib keldi. Shu tariqa Xitoyning Shinjon, Gansu va Shensi viloyatlari O'rta Osiyo va uzoq xorij grafliklari madaniyatini o'zlashtira boshladi. Bugungi kunda ular Xitoy va Turkiston madaniyatlari aralashgan ajoyib o'lkadir, shu bilan birga u yerda yashovchi turli millatlar ularga o'zgacha muhit qo'shmoqda. Bu mintaqa Xitoyning boshqa viloyatlaridan sezilarli darajada farq qiladi.

2022-yilning birinchi choragida Xitoyning turizm bozori ma'lumotlari o'tgan yilning shu davriga nisbatan sezilarli pasayishni ko'rsatdi. Masalan, Madaniyat va turizm vazirligi ma'lumotlariga ko'ra, Yangi yil bayrami va bahor bayramida ikki bayram oralig'ida mamlakat bo'ylab 52 million 251 million kishi sayohat qilgan, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan 5,3 foizga kamayganini ko'rsatadi. va mos ravishda 2,0 foizni tashkil etdi. Buni, albatta, ko'proq yuqumli variantlar tufayli ko'plab mintaqaviy va global epidemiylar bilan Covid-19 ning qayta tiklanishi bilan izohlash mumkin. Biroq, yozgi ta'til mavsumi

⁷⁰ https://uz.wikipedia.org/wiki/Xitoy_turizm_sanoati

boshlanishi bilan chiptalar savdosi sezilarli darajada oshgani sababli, pasayish yana bir bor teskari ko‘rinadi. Bu bizga Xitoyning turizm bozorini yaqinlashtirish va uning pandemiyadan keyin qanday o‘zgarganini o‘rganish uchun noyob imkoniyatni taqdim etadi. Global Business Travel Association (GBTA) ma’lumotlariga ko‘ra, Xitoy 2021-yilda ish safari xarajatlari bo‘yicha dunyo miqyosida birinchi o‘rinni egalladi. Darhaqiqat, xuddi shu toifadagi o‘tgan yilga nisbatan 38 foizga pasayganidan so‘ng, Xitoyning korporativ sayohat xarajatlari 31,7 foizga oshgan. 2021-yilda mahalliy bozor qayta tiklandi - butun dunyo bo‘ylab o‘sish sur‘atini ikki baravar oshirdi.⁷¹

Tadqiqotga ko‘ra, 2021-yilda xitoylik tadbirkorlar 2020-yilga qaraganda 16,3 foizga ko‘p sayyohlik agentliklaridan foydalangan. Xitoyning yetakchi shaharlarida, jumladan Pekin, Shanxay va Guanchjouda bu raqam 24,6 foizga oshgan. 2024-yilga kelib, Xitoyda ishbilarmonlik sayohati sanoati tiklanishi va pandemiyadan oldingi darajaga yetishi kutilmoqda, ishbilarmonlik sayohatlari uchun umumiy xarajatlar 400 milliard AQSh dollaridan oshadi. Xitoyning ishbilarmonlik sayohati sohasidagi kuchli tiklanish sur‘ati Trip.com guruhining 2021-yildagi faoliyatida o‘z aksini topdi, Trip. Biz (CTripning biznesga bag‘ishlangan bo‘limi)dagi mehmonxonalarni band qilishlar deyarli uch barobarga ko‘paydi. Yoshlarning Xitoy madaniyatiga bo‘lgan ishtiyoqi ortib borayotganligi sababli, madaniy turistik takliflar yanada ommalashdi.

Turli muzeylar, masalan, yaqinda butun mamlakat bo‘ylab qidirish ro‘yxatida dolzarb mavzuga aylandi. 2022-yil boshida Sanxingdui xarobalari hududidagi madaniy yodgorliklarning topilishi muzey turizmida bumni boshlab berdi. Xuddi shunday, Yangzhou shahridagi (Jiangsu provintsiyasi) Xitoyning Buyuk Kanal muzeyi mashhur sayyohlarni ro‘yxatdan o‘tkazish joyiga aylandi, shuning uchun u bir oylik sinov muddati davomida 250 000 dan ortiq tashrif buyuruvchilarni jalb qildi.

⁷¹ https://uz.wikipedia.org/wiki/Xitoy_turizm_sanoati

Shu bilan birga, an'anaviy xalq madaniyatining organik integratsiyasi yanada ommalashdi va ma'badning ne'matlari va nomoddiy madaniy meros tajribalari kabi tadbirlar sayyohlar orasida juda mashhur. Misol uchun, Anxuy shimolidagi qishloq bozori, Huainan Shouxian baraban, Suzhou Sixian Sizhou operasi va Taihe sher fonari kabi ajoyib spektakllarni sahnalashtirdi va ko'plab sayyohlarni jalb qildi. Fujianning turli joylarida "Fu" madaniyati atrofida ajoyib, mavzuli tadbirlar o'tkazildi.

Yuqoridagilardan tashqari Xitoyning diqqatga sazovor ziyorat maskanlariga quyidagilarni kiritish mumkin:

Lu tog'i, Jiujiang, Szyansi (tog'li Lu milliy bog'i deb ham ataladi);
Changbay tog'lari - noyob Sibir yo'lbarzlari yashaydigan muhim qo'riqxonasi;

Xitoyning Buyuk kanali;

Buyuk Xitoy devori;

Ipak yo'li - mashhur qadimiy savdo yo'li bo'ylab joylashgan tashlandiq shaharlar;

Xuanshan, Anxoy;

Jiuxua tog'i, Anxoy;

Tyanchju tog'i, Anxoy;

Taqiqlangan shahar, Pekin - bir vaqtlar "Xitoy imperator olami"ning markazi bo'lgan va omma uchun taqiqlangan - endi hamma uchun ochiq;

Yozgi saroy, Pekin;

Osmon ibodatxonasi, Pekin;

Dazu tosh o'ymakorligi, Chunsin;

Uch daralar, Chunsin va Xubey;

Gulangyu oroli, Fujian;

Mogao g'orlari, Dunxuan, Gansu - eski Ipak yo'lidagi 1000 yillik sun'iy g'orlar Xitoyning buddist merosini o'z ichiga oladi;

Kuling shahri, Jiujiang - Xitoyning janubidagi yevropalik ko'chmanchilar uchun sobiq yozgi kurort bo'lgan Lu tog'ining tepasida joylashgan;

Li daryosi, Guangsi - u yerga Xitoy o'rami rasmlarida chizilgan qiyshaygan cho'qqilarni ko'rish uchun qayiqda sayohat qilinadi;

Caohai ko'li, Guychjou - bu yerda Xitoyning turli xil qushlar dunyosini ko'rish uchun sayoz ko'l bo'ylab sayr qilish imkoni bor;

Xarbin xalqaro muz va qor haykallari festivali, Xarbin, Xeylunszyan - bu yerda kamalak chiroqlar bilan yoritilgan haqiqiy o'lchamdagi muz qal'alaridan tortib, ajoyib qorli manzaralargacha bo'lgan hashamatli va g'alati haykallarni ko'rish mumkin;

Yabuli tog'-chang'i kurorti, Xeylunszyan - mamlakatdagi eng yirik chang'i kurorti bo'lib, u yerda ko'plab xitoyliklar chang'i uchib, dam olishadi;

Xenan, Loyan yaqinida joylashgan Longmen Grottoes - buddist haykalchalari va relyeflarining parade;

Vudang tog'lari, Xubey;

Eski Yalu ko'prigi, Dandong, Lyaonin - Shimoliy Koreyaga olib boradigan yarim vayron qilingan ko'prik, Koreya urushining muhim yodgorligi;

Terrakota armiyasi, Sian, Shensi, sobiq qadimiy poytaxt - bu yerda 2200 yoshli haqiqiy askarlar Xitoyning birinchi imperatori qabrini qo'riqlaydi;

Konfutsiy saroyi, Qufu, Shandun - buyuk donishmand urug'ining saksonga yaqin avlodlari yashaydigan joy;

Tay tog'i (yoki Tay Shan), Shandun - ibodatxonalar va pavilonlar joylashgan muqaddas cho'qqi;

Bund, Shanxay - Shanxay osmono'par binolari bilan yonma-yon joylashgan mustamlaka me'morchiligining Huangpu daryosi bo'ylab joylashgan manzili;

Shansidagi Xen tog'idagi ibodatxona;

Yungang Grottoes, Datong yaqinida, Shansi - mashhur buddist manzili;

Jiuzhaigou vodiysi, Sichuan;
Leshan Gigant Budda, Sichuan - dunyodagi eng katta o'yilgan Budda;
Emei tog'i, Sichuan;
Qingcheng tog'i, Sichuan;
Potala saroyi, Lxasa, Tibet - dastlab qirol Songtsän Gampo tomonidan 637-yilda kelini Tan sulolasi malikasi Venchengni kutib olish uchun qurilgan saroy;
Xishuangbanna Dai avtonom prefekturasi, Yunnan - Xitoyning eng noyob, kam xalqi - Day xalqi yashaydigan manzil;
Sihu ko'li, Xanchjou, Chjetszyan.

6.3. Hindistonda ziyorat turizmini rivojlantirishning o'ziga xos jihatlari

Hindistonda turizm mamlakat iqtisodiyotining katta tarmog'i hisoblanadi. Butunjahon sayohat va turizm kengashi ma'lumotlariga ko'ra prognozlariga ko'ra, yaqin o'n yillikda Hindiston iqtisodiyotining ushbu sektori har yili o'rtacha 7,7% ga o'sishi mumkin. Bu Hindistonga turizm sanoati jadal rivojlanayotgan mamlakatlar orasida beshinchi o'rinni egallash imkonini berdi.⁷²

Turizm narx siyosatida raqobatbardoshlik bo'yicha hisobotda Hindiston 139 ta o'rindan 28-o'rinni egalladi. Shuningdek, ushbu hisobotda Hindiston juda yaxshi havo transportiga egaligi (39-o'rin), ayniqsa mamlakatning hozirgi rivojlanishi bilan normal quruqlik transportiga egaligi ham eslatib o'tiladi (43-o'rin). Biroq, turizm infratuzilmasining ayrim jihatlari hali ham rivojlanmagan. Mamlakatda aholi jon boshiga mehmonxona xonalari xalqaro standartlarga nisbatan juda kam, shuningdek, bankomatlarining past tarqalishi ham mavjud. Hindiston hukumati 150 ming mehmonxona xonasi yo'qligi sababli mamlakat byudjeti juda kam mablag' olayotganligini aniqladi.⁷³

⁷² https://uz.wikipedia.org/wiki/Hindiston_turizmi

⁷³ https://uz.wikipedia.org/wiki/Hindiston_turizmi

Hindiston Turizm vazirligi turizmni rivojlantirish va targ'ib qilish bo'yicha milliy siyosatni ishlab chiqmoqda. Vazirlik o'z faoliyati davomida turli manfaatdor tomonlar, bundan tashqari, markaziy vazirliklar va idoralar, shtat va ittifoq hududi hukumatlari, xususiy sektor bilan maslahatlashmoqda va hamkorlik qilmoqda. Shuningdek, qishloq, kruiz, tibbiy va ekologik kabi turizmning yangi turlarini targ'ib qilish bo'yicha birgalikda harakatlar olib borilmoqda. Turizm vazirligi shu bilan birga Incredible India kampaniyasini ham qo'llab-quvvatlaydi.

Hindistonning boy tarixi va madaniyati, shuningdek, geografik xilma-xilligi uning ziyorat turizmini jozibador qiladi. Hindistonda ziyorat turizmi, boy meros va madaniy turizmdan tashqari, tibbiy, biznes va sport turizmi bilan ham taqdim etiladi.

Hindistonning Andhra Pradeshda mintaqasida ko'plab diniy ziyorat markazlari joylashgan. Jumladan, Tirumala Venkateshvaram ibodatxonasi - Ma'bud Venkateshvaraning qarorgohi, dunyodagi ikkinchi eng boy va eng ko'p tashrif buyuriladigan har qanday e'tiqod uchun diniy markaz. Shrisaylam-Shri-Mallikarjuna monastiri, Hindistondagi o'n ikki Jyothirlingalu (Jyothirlingalu) dan biri. Amaravata Shiva ibodatxonasi Pancharamamalardan biri, Vemulavada ibodatxonasi Janubiy Hindistonning Dakshina - Kashi-Varanasi nomi bilan tanilgan Shiva Ma'budining eski ibodatxonalaridan biridir. Vemulavada ibodatxonasi 750-975-yillarda Chalukya sulolasining hukmdorlari tomonidan qurilgan. Yadagirigutta-Vishnu avatarining ibodatxonasi, Shri-Lakshmi Narasimhi. Naubat-Paxad-birla-mandir, Haydarobodda joylashgan butunlay oq marmardan mavjud.

Ramappa ibodatxonasi va Varangaldagi ming ustunli ibodatxona Ma'bad Kakatiya sulolasining o'ziga xosligini aks ettiruvchi mashhur sayyohlik joylari (Kakatiya-I.P., birlik. h.) san'at, madaniyat va Ma'bad o'ymakorligida. Varangal, shuningdek, Medaramning "samakka Saralamma Jatara" deb nomlangan Osiyodagi yirik festivallardan biriga mezbonlik qiladi. Gundala Matha ziyoratgohi ikkita eng katta joylardan biridir Hindistondagi nasroniylarning ziyoratlari, Vijayavada shahrida joylashgan. Har yili minglab odamlar Lourdes bokira Maryamning rahm-

shafqatiga va uning onasining marhamatiga qat'iy ishonib, Gundala Mataga tashrif buyurishadi. Nafaqat Andhra-Pradeshning barcha burchaklaridan, balki Tamil Nadu, Kerala va Karnataka kabi qo'shni Shtatlardan kelgan tarafdorlar har yili fevral oyida ziyoratgohga tashrif buyurishadi. Basaradagi Jnana Sarasvati ibodatxonasi Hindistondagi mashhur Sarasvati ibodatxonalaridan biridir.

Odamlar Hindistonni turli millat sifatida tan olishadi. Hindistonda ko'plab dinlar va diniy joylarni topish mumkin. Hindistonda juda ko'p ziyorat yo'nalishlari mavjud. Ularning har biri ajoyib muhit va tajribaga ega. Ularning aksariyati me'moriy mo'jizalardir. Bundan tashqari, atmosferaning o'zi sizni ilohiylikka erinish imkonini beradi.

Banaras yoki Kashi nomi bilan mashhur Varanasi Hindistondagi eng muqaddas joylardan biridir. Bu joyga tashrif buyurish hayotda bir marta bo'ladigan tajriba. Ba'zi sayyohlar u erda abadiy yashashni yaxshi ko'radilar. Varanasi Hindistonning Utter Pradesh shtatida joylashgan. U yerdagi asosiy ziyoratgoh Kashi Vishvanatha Svami ibodatxonasidir. U erda Lord Shivaga sajda qilishadi. Bu joyda juda ko'p boshqa ibodatxonalar mavjud, shuning uchun bu joy Ma'badlar shahri deb ataladi. Ganga Aarthi bu erda ko'rish kerak bo'lgan marosimdir. Minglab, millionlab odamlar bu muqaddas marosimning guvohi bo'lish uchun bu erga kelishadi.⁷⁴

Oltin ibodatxona Hindistonning Panjob shahrida joylashgan. Bu joy o'zining arxitekturasini bilan barchani hayratda qoldiradi va bu joy bizga ta'riflab bo'lmaydi. Ushbu Oltin ma'bad hovuz o'rtasida joylashgan. Bu hovuz Amritsar deb ataladi. Sikxizmdagi asosiy gurdvara yoki ibodat uyi va sikxlar uchun eng muhim ziyoratgoh bu Oltin ma'baddir. Bu ibodatxona hamma uchun ochiq. Tabaqa, din, irq, din va hokazolarga to'siq yo'q.

Avliyo Filomena cherkovi Hindistondagi eng katta cherkovlardan biridir. Bu cherkov Hindistonning Karnataka shtatidagi Mysore shahrida joylashgan. Neo-gotik uslubdagi me'morchilikning go'zalligini bu erda ko'rish mumkin. Bundan tashqari, bu cherkov Germaniyadagi Köln

⁷⁴ https://uz.wikipedia.org/wiki/Hindiston_turizmi

soboridan keyin modellastirilgan. U dastlab oddiy yog'och bino sifatida qurilgan. Keyinchalik u shunday mashhur bo'ldi. Ta'mirlash 1936-yilda yakunlangan. Bu Hindistonning diqqatga sazovor joylaridan biri.

Dehlidagi Jama masjidi - Mug'al me'morchiligining ajoyib namunasi va diqqatga sazovor ma'naviy manzil. Bu masjidni dunyoning yettinchi mo'jizasi Toj Mahalni qurgan Shoh Jahondan boshqa hech kim qurmagan. Dehlidagi Jama masjidi Qizil qal'a va Dehlining boshqa diqqatga sazovor joylari yaqinida joylashgan. Shunday qilib, ushbu ma'naviy manzilning ilohiyligiga guvoh bo'lishni istaganlar Hindistonning poytaxtini ham kashf qilish uchun keng imkoniyatlarga ega.

Rishikesh yoga shahri sifatida tanilgan. Gang daryosi bo'yida yoga va meditatsiya bilan shug'ullanayotganingizni tasavvur qiling. Rishikesh - ruhiy sayohatingiz davomida tashrif buyurish uchun eng yaxshi joy. Bu erda juda ko'p ibodatxonalar mavjud.

Lotus ibodatxonasi, Dehlida joylashgan ajoyib zamonaviy arxitekturaga ega yana bir ziyorat manzili hisoblanadi. Lotus ibodatxonasi Bahaiylarning ibodat uyidir. Bundan tashqari, lotus ibodatxonasi dunyodagi eng ko'p tashrif buyuriladigan ziyorat yo'nalishlardan biridir. Ma'badning nomi ma'badning dizayni sharafiga berilgan. Ma'bad yarim gullagan lotus shaklida yaratilgan. Odamlar bu erga faqat arxitekturani ko'rish uchun kelishadi.

Dilvara Jain ibodatxonasi Hindistondagi eng go'zal Jain ibodatxonalaridan biridir. Uning marmar va boshqa materiallardan ishlangan arxitekturasi kishini hayratga soldi. Dilvara ibodatxonasi Rajastanda joylashgan. Bundan tashqari, bu erda juda ko'p Jain ibodatxonalarini topish mumkin.

Bodh Gaya - buddistlarning ziyorat manzili. Bu joy buyuk Gautama Budda o'zining ma'rifatiga erishgan joy. Budda va buddizmni sevadigan va ishonadigan odamlar bu erga tashrif buyurishni yaxshi ko'radilar. Bodh Gaya Hindistonning eng ko'p tashrif buyuradigan ziyorat yo'nalishlaridan biridir.

Haridvar Hindistonning muqaddas shaharlaridan biridir. Hinduizmda bu joy ettita eng muqaddas joylardan biri hisoblanadi. Bu ziyorat manzili Gang daryosi bo'yida joylashgan. Ona tabiat huzurida haqiqiy ilohiylikka guvoh bo'lishni yaxshi ko'radigan sayohatchilar uchun muhim hisoblanadi.

Puri Jagannath ibodatxonasi Hindistondagi yana bir muhim ibodatxonadir. Uning arava festivali / Ratha Yathra butun dunyoga mashhur. Bu erda har yili o'tkaziladigan festivalni ko'rish uchun minglab ziyoratchilar yig'iladi. Ushbu ziyorat manzili ham o'zining ajoyib me'morchiligi bilan sizni hayratda qoldiradi.

6.4. Shimoliy va Janubiy Amerikada ziyorat turizmini rivojlantirishning o'ziga xos jihatlari

Ikki materik hisoblangan Janubiy Amerika va Shimoliy Amerika Amerika degan umumiy nom bilan ataladigan bitta qit'ani tashkil etadi. Uning maydoni 42,1 mln. kv. km. bo'lib, aholisi 850 mln. kishiga yaqin. Amerika Shimoliy Amerika, Markaziy Amerika va Janubiy Amerikadan iborat bo'lib xilma-xil tabiat zonalari va iqlim poyaslariga bo'linadi. Keyingi yillarda Amerika xalqaro turizm bozorida (turistlar kelishi-ketishi va daromad miqdori sohasida) biroz o'z mavqiyeni pasaytirgan bo'lsada, hamon u turizm uchun o'zining jozibadorligini yo'qotgan emas. Amerika qit'asining xalqaro turizmga tutgan salmog'i 16,6 % ni tashkil etadi. Karib dengizi havzasi va Janubiy Amerika hududlar keyingi 2-3 yillik salbiy ko'rsatkichlardan so'ng yana yuksalish (+8 va +12 %) pog'onasiga o'tdi. Argentina, Braziliya kabi mamlakatlarda ichki mintaqaviy turizmning rivojlanishi kuchaya borganligi bilan harakterlanadi. Umuman, Amerika ham Yevropa singari ichki turizm sohasida uchta yirik turistik Markazga (AQSH, Kanada, Meksika) ega. Mintaqada xalqaro turizm hajmining qisqarishiga qaramasdan Shimoliy Amerika mintaqasi hamon jahon turizm bozorida o'zining tutgan o'rnini (15,7 %) pasaytirgani yo'q. Amerika mintaqasi uchun turizmning guruhlashgan shakli harakterlidir.⁷⁵

⁷⁵ <https://azkurs.org/iii-bob-xalqaro-turizmning-rivojlanish-holati.html?page=10>

So‘nggi yillarda Amerikaning Karib havzasi, Markaziy Amerika va asosan Janubiy Amerika turizmining mavqei tobora ko‘tarilib bormoqda.

Janubiy Amerika xalqaro turistlarning tashrifi bilan alohida ajralib turadi. Chunki ushbu mintaqada o‘zining xilma-xil, takrorlanmas tabiiy resurslari, tarixiy yodgorliklari, madaniyati, etnik turmush-tarzi bilan harakterlanadi. Janubiy Amerika quruqligida dunyodagi eng baland Anxel (Venesuela) sharsharasi, ser suv Amazonka (Braziliya) daryosi, qo‘l tekkizilmagan keng maydondagi namlik o‘rmonzorlar, eng yuqori (And tog‘lari) cho‘qqisi joylashgan.

Bizgacha yetib kelgan qadimgi ink qabilalari sivilizatsiyasining diqqatga sazovor ziyorat shaharlari Mantu-Pikchu va Kusko, Naska plotasi, kolonizatsiya qilish davri shaharlari. Bu materikning eng yirik va ulkan ziyorat turizmi imkoniyatlaridir. Hozirgi kunda ulardan juda kam foydalanilmoqda. Moboda materikning mavjud turistik resurslari to‘liq ishga solinsa, Janubiy Amerikaning xalqaro turistlar tashrifida uning salmog‘i so‘zsiz ravishda ortadi.

Amerikada, xuddi Yevropadagidek singari turistlar oqimining eng ko‘p qismi mintaqada ichki turizmga to‘g‘ri keladi. Ayniqsa, intensiv turistik oqim Shimoliy Amerikada: AQSH, Kanada va Meksika mamlakatlari o‘rtasida kuzatilinadi. Qaysikim, eng ko‘p turistik oqim BTT ma’lumtlariga ko‘ra, AQShdan Meksikaga kelishadi. Bu esa dunyodagi eng ko‘p turistlar tashrifi oqimi bo‘lib hisoblanadi. Bu yerda o‘rtacha yillik keluvchi va ketuvchi turistlar soni 46-47 mln. kishini tashkil qiladi.⁷⁶ AQShga tashrif buyuruvchi turistlarni ko‘proq mamlakatning yovvoyi tabiat resurslari, takrorlanmas go‘zal landshaft manzaralari, harakatdagi geyzer buloqlar vodiysi, «Tirik geologik» milliy bog‘lari (Yellouston), gigant stalagmitli g‘orlari (Karlsbad), katta ponaramali (Grand-Kanon) tog‘ daralari, Mayin qumli (Kaliforniya) plyajlari maftun etadi. Horijiy mamlakatlardan kelgan sayyohlarni AQShning nafaqat tabiiy boy resurlari balki, uning osmon o‘par ma’muriy, savdo-sotiq binolari (Manxetten), banklar markazi (Uoll-strit), mashhur ko‘priklari (Bruklin), oliygohlar (Kolumbiya

⁷⁶<https://azkurs.org/iii-bob-xalqaro-turizmning-rivojlanish-holati.html?page=10>

universiteti), prezident qarorgohi (Oq uy), opera teatri (Metropoliten), Kinostudiyalari (Gollivud), ko'ngil ochar, dam olish parklari (Disneylend) kabilar o'ziga chorlaydi. Har yili AQSH da 1 mlrd. dan ortiq turistik kelishlar va ketishlar (ichki va tashqi) ruyxatga olinadi. Mamlakatda ichki turizm salmog'i katta bo'lib, uning asosiy marshrutlari dam olish sog'lomlashtirish, ko'ngil ochar, tabiat ob'ektlari, tarixiy va madaniy markazlarga, qarindosh-urug'lar, tanish-bilishlarga tashrif buyurishdan iboratdir. Amerikalik sayyohlar horijiy safar qilishda ko'proq qo'shni Meksika va Kanada mamlakatlariga sayr qilishni xush ko'rishadi.

6.5. Afrika mintaqasida ziyorat turizmini rivojlantirishning o'ziga xos jihatlari

Afrika qit'asi umumiy maydoni orollari bilan birgalikda 30,3 mln. kv.kmga teng. Aholisining umumiy soni 900 mln. kishiga yaqin. Mintaqa siyosiy haritasida hammasi bo'lib 56 ta endi rivojlanayotgan davlatlar bor. Afrika xalqaro turizm sohasi bo'yicha unchalik yuqori o'rinni egallamaydi. Uning xalqaro turistlar tashrifi bo'yicha boru-yo'g'i 4,6 % ni egallaydi. Agar 1990-yilda butun Afrika mamlakatlariga keluvchi turistlar soni 15,2 mln. kishi bo'lgan bo'lsa, 2005-yilga kelib ularning umumiy soni 36,7 mln. kishiga yetdi yoki tashrif buyuruvchi turistlar soni 2,4 barobarga ko'paydi. Afrika mintaqasi tashrif buyuruvchi turistlarning o'sish darajasi bo'yicha eng oldingi o'ringa chiqib oldi. Eng ko'p tashrif buyuruvchi turistlar Jazoirga (17%), Marokko (7%) va Tunisga (6 %) to'g'ri keladi. Afrikaning janubiy qismidagi mamlakatlarda, jumladan Kongo Demokratik Respublikasi (+103 %), Svazilend (+83 %), Gambiya (+23 %), Senegaya (+15 %) kabilar yuqori natijalarga erishdilar. Afrikadagi xalqaro turizmning eng muhim rivojlangan markazlaridagi Janubiy Afrika Respublikasi (+6%) ham o'z natijalarini yaxshiladilar. Keniyada ham xalqaro turizm borgan sari rivojlanib bormoqda va keyingi paytlarda yaxshi ko'rsatkichlarga erishdi.⁷⁷

⁷⁷<https://azkurs.org/iii-bob-xalqaro-turizmning-rivojlanish-holati.html?page=11>

Afrika turizmining tahlili shuni ko'rsatadiki, mintaqaga tashrif buyuruvchi turistlar bo'yicha birinchi o'rinni Janubiy Afrika Respublikasi (JAR) egallaydi. Afrikada turizmga bo'lgan qiziqish borgan sari ortib bormoqda. Turistik xizmatlarni takomillashtirish va uning xilma-xilligini oshirishga e'tibor kuchayib bormoqda. Xorijiy mamlakatlardan kelayotgan sarmoyalarning bir qismi turizm industriyasini rivojlantirishga yo'naltirilmoqda. Keyingi o'rinlarni Tunis (6,4 mln.), Marokko (5,8 mln.), Zimbabe (1,6 mln.), Jazoir (1,4 mln.) kabi mamlakatlar egallaydi. Xalqaro turizmdan keladigan tushum (daromad) bo'yicha ham birinchi o'rinni JAR (7,3 mlrd. doll.) egallaydi. Keyingi o'rinlarni Marokko (4,6 mlrd. doll), Tunis (2,1 mlrd. doll), Mavrikiy (871 mln. doll), Tanzaniya (796 mln. doll), Keniya (579 mln. doll), Botsvana (562 mln. doll) kabi davlatlar egallaydi.

Tayanch so'z va iboralar: Yevropa, Yevropada ziyorat, Xitoy, Xitoyda ziyorat, Hindiston, Hindistonda ziyorat, Shimoliy va Janubiy Amerika, Shimoliy va Janubiy Amerikada ziyorat, Afrika, Afrika mintaqasida ziyorat.

Mavzuga doir savol va topshiriqlar:

- 1.Yevropada halqaro turizmining umumiy ahvoliga baho bering.
- 2.Yevropada ziyorat turizmining o'ziga xos jihatlari sanab bering.
- 3.Xitoyda halqaro turizmining umumiy ahvoliga baho bering.
- 4.Xitoyda ziyorat turizmining o'ziga xos jihatlari nimalardan iborat.
- 5.Hindistonda halqaro turizmining umumiy ahvoliga baho bering.
- 6.Hindistonda ziyorat turizmining o'ziga xos jihatlari nimalardan iborat.
- 7.Shimoliy va Janubiy Amerikada ziyorat turizmining o'ziga xos jihatlari baho bering.
- 8.Afrika mintaqasida halqaro turizmining umumiy ahvoliga baho bering.

VII BOB. ISLOM MAMLAKATLARIDA ZIYORAT TURIZMINI RIVOJLANTIRISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

7.1. Fors ko‘rfazining arab mamlakatlarida ziyorat turizmini rivojlantirishning o‘ziga xos jihatlari.

7.2. Saudiya Arabistonida ziyorat turizmini rivojlantirishning o‘ziga xos jihatlari.

7.3. Malayziya, Singapur va Turkiyada ziyorat turizmini rivojlantirishning o‘ziga xos jihatlari.

7.4. Markaziy Osiyo mintaqasida ziyorat turizmini rivojlantirishning o‘ziga xos jihatlari.

7.1. Fors ko‘rfazining arab mamlakatlarida ziyorat turizmini rivojlantirishning o‘ziga xos jihatlari

Turizmning juda ko‘p turlari va shakllari mavjud bo‘lib, ziyorat turizmi eng qadimgi hamda an‘anaviy turistik yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. 2018-yil davomida dunyo miqyosida musulmon sayyohlar soni 140 millionga, ularning harajatlari 177 milliard doll. (2023-yilda 274 milliard dollar bo‘lishi ko‘tilmoqda)ga teng bo‘ldi. Sayyohlardan eng ko‘p foyda oladigan mamlakatlar Yaqin Sharq mintaqasiga to‘g‘ri keladi. New Research Centre ma‘lumotlariga ko‘ra, 2060-yilga kelib 3 milliard inson o‘zini musulmon deb hisoblay boshlaydi va bu yer yuzidagi har uchdan bir kishini tashkil etadi. Global Economic Impact Of Muslim Tourism And Future Growth Projection: 2017–2020 (“Musulmon turizmining global iqtisodiy ta’siri va uning kelgusi o‘rishining istiqbollari: 2017–2020 yy.”) deb nomlangan tadqiqot natijalariga ko‘ra, musulmon turizmining global iqtisodiy darajasi 32 foizdan 70 foizgacha o‘sadi.

Fors ko‘rfazi mamlakatlari Xalqaro sayohat va turizm Hay’ati (WTTC) ekspertlarining fikriga ko‘ra turizm sohasida jadal rivojlanayotgan va barqaror istiqbolga ega bo‘lgan davlatlar sirasiga

kiradi. Bu hudud mamlakatlariga Saudiya Arabistoni, Birlashgan Arab Amirliklari (BAA), Bahrayn, Iroq, Quvayt, Qatar, O‘mon va Eron davlatlari kiradi. Ma’lumki, Fors ko‘rfazi mamlakatlarining bari uglevodorod manbalariga boy va yuksak moliyaviy qudratga ega bo‘lib, ular o‘z iqtisodiyotini diversifikatsiya qilish va xom ashyo eksporti qaramligidan xolos bo‘lish maqsadida serdaromad soha hisoblangan turizm industriyasiga yirik investitsiyalarni safarbar qilmoqdalar. Iqtisodiyotning yuqori salohiyatga ega sektori sifatida turizm sohasiga mazkur davlatlar tomonidan qaratilayotgan bu qadar e’tiborga asos bo‘luvchi omillarga quyidagilarni keltirishimiz mumkin:

energetik resurslarning cheklanganligi va tabiiy nihoyasiga yetishi xavfi milliy byudjet daromadlarini boyitishning muqobil yullarini izlashga undamoqda;

sayyohlik manfaatlariga molik bo‘lgan ko‘plab tabiiy- rekreatsion hamda tarixiy-madaniy ob’ektlarning mavjudligi;

ko‘rfaz mamlakatlarining barchasi sayyohlikning muhim yo‘nalishlari hisoblangan kurort va ko‘ngilochar turlarini tashkil etish uchun zarur bo‘lgan dengiz sohillarida joylashganligi;

turizmning istalgan turini rivojlantirishga qobil bo‘lgan moliyaviy, boshqaruv va boshqa resurslarning yetarliligi.⁷⁸

Biroq, shuni ta’kidlash joizki, ushbu mamlakatlarning har biri o‘zining alohida xususiyatlariga ega. Garchi butun miintaqada turizm sohasida umumiy o‘sish tendensiyasi kuzatilayotgan bo‘lsa-da, undagi davlatlarni alohida olib qaralganda, o‘ziga xos turli tumanlikning guvohi bo‘lamiz. Ayrim davlatlar o‘zlarining turistik salohiyatini rivojlantirish maqsadida sayyohlik ob’ektlari qurilishi, reklama va raqobatbardoshlikni oshirishga katta mablag‘lar investitsiya qiladilar. Ba’zilar esa ko‘proq biznes markazlari ochish va shopturlarni tashkil etishga e’tibor qaratsa, boshqalari tabiat qo‘ynida xordiq chiqarish, ekoturizm va rekreatsion oromgohlar qurish orqali nisbatan arzon turlarni, ya’ni turistik mahsulotlarni taklif qiladilar.

⁷⁸ <http://synergy-journal.ru/archive/article2124> Razvitiye turizma v stranax Persidskogo zaliva.

Fors ko'rfazi mamlakatlari ichida birgina Eron noarab mamlakat hisoblanadi va u aholisi sonining ko'pligi, o'ziga xos mentaliteti, dini (islomning shiy'a yo'nalishi) va uzoq yillardan buyon iqtisodiy sanksiyalar ta'sirida qolayotganligi bilan qolgan arab davlatlaridan ajralib turadi. Eron o'zining boy tarixi, me'moriy obidalar, mo'tadil iqlimi, dengiz sohillari va o'ziga xos taomlari bilan sayyohlarni o'ziga chorlaydi. O'tgan asrning 70-yillariga qadar turizm Eronda jadal rivojlanib kelgan. Biroq, 1979-yildagi islom inqilobidan keyin ushbu soha inqirozga yuz tutdi. Shariat talablariga binoan ko'plab taqiqlar sayyohlar oqimini keskin qisqartirdi. Bundan tashqari, turizm rivojiga AQSH ning uzoq yillik iqtisodiy sanksiyalari ham salbiy ta'sir ko'rsatdi⁷⁹. Mazkur muammolarga qaramay, Eron yiliga 4-5 mln. sayyohlarni, asosan, Turkiya, BAA, Saudiya Arabistoni va boshqa qo'shni davlatlardan qabul qiladi. 2017-yil ma'lumotlariga ko'ra, mamlakatga 4,9 mln. kishi tashrif buyurgan, turizmdan ko'rilgan daromad 3,9 mlrd. dollar, uning YAIM dagi hissasi esa 7,3 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2018-yilda ushbu ko'rsatkichlar, mos ravishda, 7,3 mln. kishi, 4,6 mlrd. dollar va 7,8 foizgacha oshgan. Hozirda sayyohlik vizasi muddati 15 kundan 1 oygacha uzaytirilgan va turistlarga boshqa ko'plab qulayliklar yaratilgan⁸⁰.

Xalqaro turizm xizmatlari Birlashgan Arab Amirliklari (BAA) iqtisodiyotiga 2018-yilda 21,4 mlrd. dollar daromad keltirdi. 2017-yilda esa ushbu ko'rsatkich 15,8 mlrd. dollarni tashkil etgan edi. Bir yil ichida daromadning deyarli, 35 % ga o'sishi mamlakatning turistik jozibadorligi misli ko'rilmagan darajada ortganidan dalolatdir. Mazkur mamlakatda turizmning shopping, kognitiv va boshqa ko'ngilochar turlari nisbatan ko'proq rivojlangan. Xalqaro turizm tashkiloti prognoziga ko'ra, 2028-yilda ushbu ko'rsatkich 29,5 mlrd. dollarga yetishi bashorat qilingan. Hozirgi kunda bu yerda turizmning YAIM dagi ulushi – 11,1% ni tashkil etib, mazkur sohada 380 ming kishi ish bilan band. 2017-yilda Dubayga tashrif buyurgan sayyohlar soni 15,8 mln. kishini tashkil etgan.

⁷⁹ 40 лет под санкциями: как живут в Иране // "Вести.Экономика", 5.10.2019

⁸⁰ Iran issues 30-day visas for tourists from 180 countries. Ministry of Foreign Affairs of Iran (14 fevralya 2016).

Bahraynga 2017-yilda 11,4 mln. sayyoh kelgan va mamlakat bundan 3,836 mlrd. dollar daromad ko'rgan bo'lsa, 2018-yilda bu ko'rsatkichlar mos ravishda, 12,1 mln. kishi va 3,9 mlrd. dollarni tashkil etgan va YAIM ning 13,5% iga teng bo'lgan. Ko'rinib turibdiki, ko'rsatkichlarda oz bo'lsa-da, o'sish kuztilgan.

Tahlil qilinayotgan yillar bo'yicha Qatar davlatida salbiy tendensiya kuzatilganining guvohi bo'lamiz. Mazkur ko'rsatkichlar 2017-2018-yillar bo'yicha, mos ravishda, 2,3 mln. kishi, 15,7 mlrd. dollar va 1,8 mln. kishi, 15,2 mlrd. dollar hamda 9,4% ni tashkil etgan. Turizm rivojidadagi bunday psayishning assosiy sababi Qatar davlatiga nisbatan boshqa Fors ko'rfazi davlatlari tomonidan sanksiya e'lon qilinganidadir. Ta'kidlash joizki, sayyohlarning asosiy qismi Qatarga aynan shu davlatlardan kelardi.

Quvayt davlatiga 2018-yilda jami 8,5 mln. kishi tashrif buyurgan bo'lib, ular asosan sayyohlar va biznes sohasi vakillaridan iboratdir. Ma'lumotlarga ko'ra, shu yili olingan daromad 0,9 mlrd. dollarni tashkil etgan. Mamlakatga kirish vizasi olishda o'ziga xos cheklovlar mavjud. Xususan, sudlangan shaxslarga va turmushga chiqmagan ayollarga rad javobi beriladi. Shuningdek, jamoat joylarida spirtli ichimliklar ichish mumkin emas. Atrofdagi boshqa mamlakatlarda esa alkogol umuman taqiqlangan.

Omon sultonligi turizm industriyasini rivojlantirishda asosiy urg'uni oliy darajadagi rekreatsion sharoitlarni yaratishga qaratmoqda. Dengiz sohillaridagi kurort va cho'milish maskanlari, milliy bog'lar va sharsharalar ko'rinishidagi tabiatning maftunkor manzaralari mamlakatning boy o'simlik va hayvonot dunyosi shular jumlasidandir. Bu albatta, ekoturizm ixlosmandlarini o'ziga jalb etmasdan qolmaydi. Sultonlikning rang-barang suv flora va faunasiga egaligi bu yerda turizmning sport-sog'lomlashtirish turi bo'lgan dayving (suv ostida akvalang, niqob va lastlar bilan suzish) ni ommalashtirish imkonini bermoqda. 2018 yilda mamlakatga kelgan sayyohlar soni 2,3 mln. kishi, undan olingan daromad 2,97 mlrd. dollar va uning YAIMdagi hissasi 9,3 % ni tashkil etgan. Ushbu ko'rsatkichlar sultonlik turizm industriyasida

namoyon bo'layotgan mutlaqo yangi trendlar sharofati bilan muntazam o'sish tendensiyasiga ega bo'lmoqda.

Fors ko'rfazi mamlakatlarida ziyorat turizmi rivojidadagi tendensiyalar tahlili shundan dalolat beradiki, mintaqa bo'yicha, umuman olganda, xalqaro turizm nisbatan jadal sur'atlar bilan rivojlangan. Mazkur sohaning asosiy indikatorlari sifatida olib qaralgan mamlakatga tashrif buyurgan sayyohlar soni, undan kelgan daromad va ushbu daromadning YAIM dagi hissasi mintaqa mamlakatlarida turlicha o'zgargan. Bahrayn, BAA kabi siyosiy barqaror va tinch mamlakatlarda ziyorat turizmi muntazam o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan va hozirda ham rivojlanishda davom etmoqda.

7.2. Saudiya Arabistonida ziyorat turizmini rivojlantirishning o'ziga xos jihatlari

Jahon bozorida ziyorat turizmining 80 foizi 19 ta mamlakatga to'g'ri keladi. Bu faqat musulmon mintaqalarinigina emas, balki qator turizm rivojlangan mamlakatlarni qamrab oladi. 2019-yilda ziyorat turizmi tufayli ushbu mamlakatlarning YAIM dagi turizmning ulushi 148 milliard dollarni, bu sohadagi aholining bandligi esa 4,7 million kishini tashkil etdi. Prognozlarga ko'ra, 2020-yilda mazkur ko'rsatkich 183 milliardgacha o'sadi va 5,6 million kishi halol turizm sanoatiga jalb etiladi. Halol tushunchasi an'anaviy ma'lum bir e'tiqodga asoslangan ehtiyojlarni, masalan, halol qoidalarga muvofiq ovqat tayyorlash, Ramazon oyida ovqatlanish vaqtini moslashtirish, ko'ngilochar dasturlarni taklif qilish tushuniladi.

Saudiya Arabistoni yoqilg'i qazilma boyliklari bo'yicha dunyodagi eng yirik eksportchi hisoblanib, mamlakat katta infratuzilmaga, tashrif buyuruvchilar uchun zarur bo'lgan barcha qulayliklarga hamda zamonaviy texnologiyalarga ega. Mamlakat haj va umra ziyoratchilariga 2030-yilning Vision dasturini amalga oshirish va yuqori darajadagi xizmatlarni ko'rsatish uchun barcha zamonaviy texnologiyalarni qo'llamoqda.

Haj va umra musulmonlarning eng asosiy ziyoratlari hisoblanadi. Saudiya Arabistoniga bu ikki ziyoratni amalga oshirish uchun har yili ikki yuzga yaqin mamlakatdan sakkiz millionga yaqin odam tashrif buyuradi. Ushbu ziyoratlardagi chet elliklar barcha ziyoratchilarning sakson foizidan ko‘prog‘ini tashkil qiladi. Yuqori talab tufayli har bir davlat uchun kvota mavjud va shuningdek, hajga boradigan shaxslarga besh yilga moratoriy e‘lon qilinadi. Saudiya Arabistoni Vision 2030-dasturi doirasida ziyoratchilar sonini o‘ttiz millionga oshirishni rejalashtirmoqda.

Saudiya Arabistoni yoqilg‘i qazilma boyliklari bo‘yicha dunyodagi eng yirik eksportchi hisoblanib, mamlakat katta infratuzilmaga, tashrif buyuruvchilar uchun zarur bo‘lgan barcha qulayliklarga hamda zamonaviy texnologiyalarga ega. Mamlakat haj va umra ziyoratchilariga 2030 yilning Vision dasturini amalga oshirish va yuqori darajadagi xizmatlarni ko‘rsatish uchun barcha zamonaviy texnologiyalarni qo‘llamoqda. Maqsad 2030-yilga kelib 30 millionga oshirish hamda maqsadli haj ziyoratchilarining sonini 2030-yilga kelib besh millionga yetkazish.⁸¹

Musulmonlar uchun qulay sharoitlarga ega bo‘lgan turistik destinatsiyalar bo‘yicha har yili Mastercard & Crescentrating “Global Muslim Travel Index (GMTI)” bo‘yicha hisobotlar e‘lon qilib boradi. 2019-yilgi natijalarga ko‘ra to‘qqizinchi marta Malayziya musulmon turistlar uchun eng yaxshi turistik yo‘nalish deb topildi. Indonezya so‘ngi yillarda bu indeks bo‘yicha ko‘rsatkichlarini yaxshilab Malayziyaga tenglashdi. Keyingi o‘rinlarni Turkiya, Saudiya Arabistoni, BAA gi egalladi.⁸²

Saudiya Arabistoni azaldan, islomning beshinchi arkoni bo‘lib hisoblangan Haj va Umra ibodatining Vatani hisoblanadi. Makkai mukarrama va Madinai munavvaradagi muqaddas qadamjolarini ziyorat qilish, ibodatlarni amalga oshirish butun dunyo musulmonlarining orzusidir. Har yili bu yerga turli mamlakatlardan millionlab ziyoratchilar

⁸¹ Haj and Umrah: Developments and Opportunities Prepared by Thomson Reuters and DinarStandard JANUARY 2017. 8 p.

⁸² 2019 by Islamic Tourism Centre, Malaysia// http://www.sesric.org/imgs/news/2228_MR_DAUD.pdf

tashrif buyuradilar. 2018-yilda mamlakatga 15,3 mln. ziyoratchi tashrif buyurgan, olingan daromad esa 16,9 mlrd. dollarni tashkil etgan. Shu yildan boshlab mamlakatga individual sayyoh sifatida kelishga ham ruxsat berildi. Avvallari esa kirish vizasi faqat guruh shaklidagi ziyoratchilarga berilardi xolos. Kirish vizasini berish tartibi va talablarining yengillashtirilishi jahon bozorida neft narxlarining tushib ketishi bilan bog'liq bo'lib, ayni damda bu iqtisodiy o'sish vektorining neft sohasidan turizmga yo'naltirilishi bilan izohlanadi. Saudiya hukumati tomonidan yangi "Nigoh 2030" dasturi ishlab chiqilgan bo'lib, unga ko'ra turizmni rivojlantirishga to'siq bo'layotgan bir qator byurokratik jarayonlarni soddalashtirish ko'zda tutilgan. Shuningdek, Qizil dengiz sohillarida va 50 dan ziyod mamlakatga tegishli orollarda dunyoviy turizm ob'ektlarini barpo etish rejalashtirilmoqda.⁸³ Buni Qirollikning iqtisodiy sohada yuritayotgan siyosatiga oid yangi trendlar deb baholash mumkin.

7.3. Malayziya, Singapur va Turkiyada ziyorat turizmini rivojlantirishning o'ziga xos jihatlari

Malayziyada sayohatchilar uchun dastlabki qonun-qoidalar "Sulton qonuni" (Undang-Undang Melaka) nomli qonun doirasida amalga oshirilgan. Ushbu qonun qabul qilingach o'tgan asrning 90 yilari boshida Malayziyada turizm sohasiga oid bir nechta qarorlar va huquqiy normativ hujjatlar imzolandi. Xususan, 1992-yilda "Turizm sanoati to'g'risida"gi Qonun (Tourism Industry Act), "Turizm sanoati (Huquqbuzarliklar oldini olish) to'g'risidagi" Nizom (Tourism Industry (Compounding of Offences) Regulations) hamda "Turizm sanoati (Litsenziyalash hamda turizm gidlarini nazorat qilish) to'g'risida"gi Nizom singari 3ta normativ - hujjatlar qabul qilindi.⁸⁴

Malayziyaga tashrif buyurayotgan turistlarning asosiy qismi O'rta Sharq hamda G'arbiy Osiyo mamlakatlaridan kelayotgan turistlar bo'lib, Malayziyadagi mehmonxonalar, restoranlar, savdo markazlari va boshqa

⁸³ <http://synergy-journal.ru/archive/article2124> Razvitiye turizma v stranax Persidskogo zaliva.

⁸⁴ Aliyeva M.T. Malayziyada ziyorat turizmi rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari va uning tashkiliy mexanizmlari. "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali, №4, 2021 yil. 388 - bet.

joylar sayyohlarga qulaylik yaratish maqsadida mehmonxonalar, umumiy ovqatlanish shoxobchalari hatto ko'chalariga ham arabcha nomlar va Arab va O'rta Sharq mamlakatlariga xos bo'lgan ovqatlar va xizmatlar ko'rsatib kelmoqda.

Bugungi kunda Malayziya aholisining 68,6 foizini asli kelib chiqishi malay bo'lgan insonlar, 23,4 foizini kelib chiqishi xitoyliklar hamda 7 foizini ota-bobolari hind bo'lgan insonlar hisoblanadi. Shundan aholining 60 foizdan ko'prog'i Islom diniga e'tiqod qilishadi.⁸⁵

Malayziyadagi musulmonlar o'zlarining sayohatlarni 3 xil shaklda amalga oshiradi. Bular:

Haj - Islomning besh arkonidan biri bo'lgan ulug' rukn, Allohga mahbub ibodatdir. Bu ibodat Alloh taolaga yuzlanish, U Zotning tajalliysi, nurining markazi bo'lgan maskanda ado etiladi;

1992-yilda turizm sanoatini tartibga solish bo'yicha huquqiy hujjatlar qabul qilingach, u dam oluvchilar, turizm va sayyohlik tashkilotlari o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soladi.

Ushbu normativ hujjat turistlar va sayyohlik tashkilotlarining majburiyatlari va huquqlarini himoya qiladi.

Ushbu hujjatga qo'shimcha ravishda umra sayohatlarini amalga oshiruvchi tashkilotlar Saudiya Arabistoni hukumati tomonidan qabul qilingan qoidalar va qonunlarga rioya etishi talab etiladi.

Malayziyada umra ziyoratlarini amalga oshirishni boshqarish Malayziya Turizm va madaniyat vazirligining asosiy vazifalaridan biri hisoblaniladi.

2014-yil 28-avgustida Malayziya hukumati tashabbusi bilan umra ziyoratini samarali tashkil etish maqsadida "Umra ziyoratlarini tartibga solish kengashi"ga (Umrah Regulatory Council) asos solindi. Ushbu kengashning asosiy vazifasi umra faoliyatini nazorat qilish va umra faoliyati bilan shug'ullanuvchi sayohat tashkilotlari uchun beriladigan litsensiyalarning haqqonliyligini kuzatib boriladi.

⁸⁵Aliyeva M.T. Malayziyada ziyorat turizmi rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari va uning tashkiliy mexanizmlari. "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali, №4, 2021 yil. 390 - bet.

Malayziyada umra ziyoratini amalga oshirish istagini bildirgan kishilar soni yildan-yilga ortib bormoqda. Har yili umra ziyoratchilari soni sezilarli darajada ortmoqda. Umra sayohati paketlari iste'molchilar tomonidan eng ko'ng so'raladigan hamda foydalaniladigan xizmat turi hisoblaniladi. Ushbu xizmatlar uchun talabning yuqori bo'lishi Malayziya iqtisodiyotining yaxshilanishiga xizmat qiladi.

Bugungi kunda umra xizmatlarini ko'rsatuvchi sayyohlik tashkilotlari o'zlarining turli xildagi takliflarini mijozlarga taqdim etib kelmoqda. Xususan, ular o'zlarining turistik paketlariga ziyoratchilar uchun turar joylar, transportxizmatlari hamda bilet narxlari, tur paketlar hamda boshqa ko'pgina xizmatlar turlarini kiritmoqda.

Malayziyada sayyohlik agentliklari 2 xil toifaga ajratiladi. Birinchisi, odatiy sayyohlik tashkilotlari hamda haj va umra sayohatlarini amalga oshiruvchi turistik tashkilotlar. Umra ziyoratlarini amalga oshirishni nazorat qilish Malayziya Turizm, san'at va madaniyat vazirligi huzuridagi "Umra ziyoratini tartibga solish Kengashi" (Majlis Kawal Selia Umrah) tomonidan amalga oshiriladi.⁸⁶

Ziyorat (ziarah) – musulmon sayohatini tashkil etishning uchinchi shakli hisoblaniladi. Ziyorat tushunchasi Malayziyada umra va haj ziyoratchilaridan boshqa muqaddas joylarga hamda tarixda yashab o'tgan buyuk avliyolar qabrlari va qadamjolariga tashrif buyurishni nazarda tutadi.

Ko'pgina Janubiy Osiyo mamlakatlarida mahalliy ulomalar va avliyolarning qabrlarni va qadamjolariga tashrif buyurishni "keramat" deb ham nomlanadi. Biroq, ushbu atama bugungi kunga qadar Malayziyadagi musulmonlar tomonidan yetarlicha o'rganilmagan.

"Keramat" malaycha so'z bo'lib (Arab tilidagi "karam ko'plikda karamat" so'zidan olingan), turli din va etnik kelib chiqishi bor bo'lgan insonlarning qabrlari joylashgan qadamjolarini borib ko'rish nazarda tutiladi. Biroq, ular musulmonlar idobat qiladigan joylar uchun ko'zda tutilmaydi.

⁸⁶Aliyeva M.T. Malayziyada ziyorat turizmi rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari va uning tashkiliy mexanizmlari. "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali, №4, 2021 yil. 391 - bet.

Ziyorat turizmi shakli Malayziyada XIX asrning 80-yillaridan boshlab rivojlana boshlandi. Ziyorat turizmi bilan bog‘liq infratuzilmalar rivojlantirildi. 25 yil muqaddam Malayziyada ziyorat turizmi deyilganda Makka va Madina shaharlaridagi ma’lum masjidlar, qabrlar hamda muqaddas qadamjolarga tashrif buyurish nazarda tutilgan. Bugungi kunda esa “ziyosat” atamasi boshqa mamlakatlar va joylarga sayohat qilish tushunchasi bilan bog‘lanib aytila boshlandi.⁸⁷

Malayziyada ziyorat turizmi sanoati “umra va ziyosat” sayyohlik paketi shaklida keng ommalashdi. Natijada ushbu tarmoq umra ziyosatlarini amalga oshirish bilan integratsiyalashdi.

O‘z navbatida, Malayziyadagi turizm tashkilotlari tomonidan ushbu xizmatlarga qo‘shimcha ravishda chet el mamlakatlariga tashrif buyuruvchi turistlarga “umra va shopping” hamda “umra va turizm” sayyohlik paketlarini taklif etildi.

Singapurdagi turizm mamlakat iqtisodiyotiga hissa qo‘shuvchi tarmoq hisoblanadi. Mamlakatda ingliz tili uning to‘rtta rasmiy tillaridan biri bo‘lgani sababli, sayyohlar mamlakatning mahalliy aholisi bilan gaplashganda, masalan, xarid qilishda ularni tushunishlari osonroq. Singapurdagi transport barcha jamoat joylarini bo‘lmasa ham, to‘liq qamrab oladi, bu esa ziyoratchilar uchun uchun qulaylikni oshiradi. Bunga mashhur Singapur metropoliteni (MRT) tizimi kiradi. Singapur dunyodagi eng ko‘p tashrif buyuradigan 5-chi shahar va Osiyo-Tinch okeani mintaqasida 2-o‘rinda turadi.⁸⁸

Ko‘p qavatli savdo markazlari va mehmonxonalar joylashgan Orchard Road tumanini Singapurning turizm markazi deb hisoblash mumkin. Boshqa mashhur sayyohlik diqqatga sazovor joylari orasida Singapur hayvonot bog‘i, daryo mo‘jizalari va tungi safarlar (bu odamlarga kechalari mehmonlar va yovvoyi hayvonlar o‘rtasida hech qanday ko‘rinadigan to‘siqlarsiz Osiyo, Afrika va Amerika yashash joylarini o‘rganish imkonini beradi) kiradi. Singapur hayvonot bog‘i “ochiq hayvonot bog‘i” tushunchasini qabul qildi, unga ko‘ra hayvonlar

⁸⁷Aliyeva M.T. Malayziyada ziyosat turizmi rivojlanishining o‘ziga xos xususiyatlari va uning tashkiliy mexanizmlari. “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali, №4, 2021 yil. 393 - bet.

⁸⁸ https://uz.wikipedia.org/wiki/Singapur_turizm_sanoati

qafas o'rniga, yashirin quruq yoki ho'l xandaklar bilan tashrif buyuruvchilardan ajratilgan qo'ralarda saqlanadi, daryo mo'jizalari esa butun dunyo bo'ylab 10 xil ekotizimlarni, jumladan, daryolarni o'z ichiga oladi. Nil, Yanszi daryosi, Missisipi, Amazon, shuningdek, Tundra va hayvonlarning 300 turi, shu jumladan yo'qolib ketish xavfi ostida turgan ko'plab turlar mavjud.

Singapur Turizm Kengashining dastlabki ma'lumotlariga ko'ra, 2019-yilda Singapurga 27,1 milliard Singapur AQSH dollari miqdorida tushumlar bilan 19,1 million kishi tashrif buyurgan.⁸⁹

Mamlakatga tashrif buyuruvchilarning umumiy kunlari rekord darajadagi 56 million kunni tashkil etdi, bu 3 foizga o'sish yoki har bir tashrifchiga o'rtacha 3,7 kunga to'g'ri keladi. Tashrif buyuruvchilarning 21 foizi bir kunlik sayohatchilar edi, 79 foizi esa bir kun yoki undan ko'proq vaqt davomida qolishgan. Sayyohlarning 78 foizi havo, 10 foizi dengiz va 12 foizi quruqlik orqali kelgan. Tashrif buyuruvchilarning eng katta yosh guruhi 25 dan 34 yoshgacha bo'lganlar bo'lib, tashrif buyuruvchilarning 23 foizini, 35-44 yoshdagilar uchun 21 foizini va 45 dan 54 yoshgacha bo'lganlar uchun 17 foizini tashkil etdi.⁹⁰

Shri Mariamman ibodatxonasi - Singapurning Chinatown shahrida joylashgan eng qadimgi hind ibodatxonasi hisoblanadi. Buyuk Britaniyaning sobiq mustamlakasi bo'lgan Singapur o'z me'morchiligida Britaniya va mintaqaviy ta'sirga ega bo'lgan turli tarixiy va madaniy diqqatga sazovor joylarga ega. Bunday madaniy diqqatga sazovor joylar qatoriga 1826-yilda qurib bitkazilgan Singapurning eng muhim masjidlaridan biri bo'lgan Sulton Masjidi kiradi. Tian Xok Keng ibodatxonasi, 1839-yilda qurib bitkazilgan Singapurdagi eng qadimgi Xitoy ibodatxonalaridan biri va 1827-yilda qurilgan Shri Mariamman ibodatxonasi Singapurdagi eng qadimgi hind ibodatxonasiga aylangan. Boshqa tarixiy yodgorliklar orasida Kranji urushi yodgorligi, Fuqarolar urushi yodgorligi, Viktoriya teatri va

⁸⁹ https://uz.wikipedia.org/wiki/Singapur_turizm_sanoati

⁹⁰ https://uz.wikipedia.org/wiki/Singapur_turizm_sanoati

kontsert zali, Yueh Xay Ching ibodatxonasi, Lian Shan Shuang Lin monastiri va Istana Kampong Glam bor.⁹¹

Singapurda mamlakat va mintaqaning san'ati va tarixini aks ettiruvchi to'rtta yirik muzey mavjud. Osiyo sivilizatsiyalari muzeyi Xitoy, Janubi-Sharqiy Osiyo, Janubiy Osiyo va G'arbiy Osiyoning moddiy tarixiga ixtisoslashgan bo'lib, Singapurning turli etnik guruhlari o'z ajdodlarini izlaydilar, Peranakan muzeyi esa dunyodagi birinchi turdagi Peranakan madaniyatini o'rganadi. Singapur va Malakka va Penangdagi boshqa sobiq bo'g'oz aholi punktlarida va Janubi-Sharqiy Osiyodagi boshqa Peranakan jamoalarida mavjud. Singapurning Singapur Milliy muzeyi mamlakatdagi eng qadimiy muzey bo'lib, uning tarixi 1849-yilga borib taqaladi, asosan davlat qurilishi kolleksiyalari va 14-asrdan Singapur tarixini hikoya qilish usulida namoyish etadi.

Singapurda ko'pincha o'zining tabiiy tropik muhitini aks ettiruvchi turli xil bog'lar va loyihalar mavjud. Singapurda uchta hayvonot bog'i mavjud, ya'ni Singapur hayvonot bog'i, tungi safari va daryo mo'jizalari. Singapur hayvonot bog'i tashrif buyuruvchilardan yashirin to'siqlar, xandaklar va shishalar bilan ajratilgan "ochiq" tabiiy, keng, landshaft bilan bezatilgan xonalarda hayvonlarni namoyish etadi, tashrif buyuruvchilarga hayvonlar bilan muloqot qilish imkonini berish uchun kun davomida turli shou va tadbirlar o'tkaziladi. Night Safari dunyodagi birinchi tungi hayvonot bog'i bo'lib, u nam tropik o'rmonda faqat tunda ochiq bo'lib, yetti geografik zonaga bo'lingan bo'lib, ularni to'rtta piyoda yoki tramvay orqali piyoda o'rganish mumkin. River Wonders tropik tropik o'rmon muhitiga ega va butun dunyo bo'ylab 10 xil ekotizimga ega, ularda 300 turdagi 5000 hayvonlar mavjud.

Mamlakatda joylashgan turli bog'lar orasida Singapurning Singapur botanika bog'lari, Jurong qush parki va ko'rfazdagi bog'lar sayyohlar orasida eng mashhurdir. YuNESKOning Jahon merosi ro'yxatiga kiritilgan Singapur botanika bog'lari 52 gektar tropik bog' bo'lib, uning asosiy diqqatga sazovor joylari orasida 3000 dan ortiq turdagi orxideya o'sadigan Milliy orxideya kolleksiyasi mavjud.

⁹¹ https://uz.wikipedia.org/wiki/Singapur_turizm_sanoati

Singapurda shuningdek, ikkita ASEAN merosi bog‘i mavjud, ular Bukit Timah qo‘riqxonasi, Bukit Timah tepaligining katta qismini qamrab olgan keng qo‘riqxona va orolda hali ham asosiy yomg‘ir o‘rmonlari mavjud bo‘lgan yagona joy va Sungei Buloh suv-botqoq qo‘riqxonasi., bu qush turlarining xilma-xilligi, qisqichbaqalar, balchiqlar va flora va faunasi bilan mashhur.

Singapur sayyohlik kengashi sayyohlar uchun yil davomida turli tadbirlarni targ‘ib qiladi. Anchor tadbirlarining ba‘zilari - Chingay paradi, Singapur san‘at festivali va Singapur bog‘i festivali. Singapur taomlari festivali har iyul oyida Singapur oshxonasini nishonlash uchun o‘tkaziladi. Boshqa yillik tadbirlar orasida Singapur Quyosh festivali, Rojdestvoni yoritish va Singapur marvaridlar festivali mavjud.

Turkiya qadimiy tarixi va an‘analari bilan ziyoratchilarni o‘ziga rom qiladigan mamlakatlardan biridir. Mamlakatda ziyoratchilarning yaxshi dam olishlari uchun yuqori darajada xizmat turlari tashkil etilgan.

Turizm Turkiya iqtisodiyotida eng muhim ahamiyatga ega bo‘lgan sohalardandir. Bu tarmoq so‘nggi o‘n yilliklarda ancha taraqqiy topib, ayni damda salkam ikki million kishi (510 ming kishi bevosita, 1,5 million kishi esa bilvosita)ni ish bilan ta‘minlaydi. Turkiyada diqqatga sazovor joylar (qadimgi grek, qadimgi Rim shaharlarining vayronalari, Vizantiya va Usmonli xalifalik yodgorliklari) juda ko‘p. Sayyohlik sanoati o‘z oldiga 2024-yilga borib mamlakatga har yili o‘rtacha 50 million sayyoh kelishini ta‘minlash yo‘lida ish olib bormoqda. Bu degani xazinaga o‘rtacha 50 milliard AQSH dollari tushishini ta‘minlaydi. Ayni damda sayyohlikni rivojlantirish yo‘lida 281 loyiha ustida ish olib borilmoqda. Turizm sohasiga to‘siq bo‘ladigan har qanday ko‘rinishlarga qarshi hukumat keskin choralar ko‘rib keladi. Bundan ko‘zlangan birdan bir maqsad sayyohlik biznesi bo‘yicha jahonda yuqori o‘ringa chiqishdan iborat.⁹²

Yildan-yilga turizm Turkiya iqtisodiyotida katta ahamiyat kasb etib bormoqda. Ajoyib tabiati, toza havosi, diqqatgasazovor joylarining

⁹² https://uza.uz/uz/posts/turizm-turkiya-iqtisodiyotning-muhim-sohalaridan-biri_358924?q=%2Fposts%2Fturizm-turkiya-iqtisodiyotning-muhim-sohalaridan-biri_358924

ko'pligi, narxlarning arzonligi va boshqa omillar tufayli yil sayin sayyohlar Turkiyaga oqib kelmoqda. Turkiya Respublikasining hududi 783 562 km²ni tashkil qiladi. Aholi soni bo'yicha jahonda 19-o'rinni (83 million kishi) egallaydi. Hududining 97 foizi Osiyo, 3 foizi Yevropa qit'asida. Iqtisodiyoti rivojlangan davlatlar guruhi bo'lmish "Katta yigirmalik" safida. 1952-yildan beri NATO a'zosi. Iqtisodiy qudrati bo'yicha Turkiya jahonda 18 o'rinda turadi.

Jahon Savdo tashkilotining taxminlariga ko'ra, 2030-yilga borib har yili 1,8 milliard kishi sayohatga chiqar ekan. Kelajakda sayyohlik hasham emas, balki kundalik hayotimizga aylanib borar ekan. Sayohatga chiqadigan 1,8 milliard turist yashash, ovqatlanish, dam olish, ekskursiyalar va boshqa ishlari uchun taxminan 7,2 trillion dollar sarflaydi. Demak kelajakda turizm iqtisodiyotning asosiy yo'nalishlaridan biriga aylanadi. Sayyohlarning kelishi o'z-o'zidan bo'lib qolmaydi. Buning uchun reklama ishlarni kuchaytirish lozim bo'ladi. Buni anglab yetgan Turkiya turistik sanoatini butun dunyo bo'ylab reklama qilmoqda.⁹³

Turkiya statistika instituti sayyohlik sektori mamlakat uchun muhim daromad manbai ekanini ma'lum qildi. Dam olishdan xazinaga tushadigan daromadning 87 % xorijliklar hissasiga, atigi 13 foizi esa Turkiya fuqarolari hissasiga to'g'ri kelar ekan.

Tosh asridan to shu kunga qadar Turkiya hududlari ko'plab sivilizatsiyalar beshigi bo'lgan. Ayni damda mamlakat hududlarida ikki mingdan ortiq antik turargohlar bor. Bugungi kunda Turkiya Yevropadan kelib dam oluvchilar mamlakatiga aylangan. Kemer, Antaliya, Belek, Marmaris, Alanya, Bodrum, Fetxiya, Izmir shaharlarni bilmaydiganlar kam bo'lsa kerak. Istanbul – nafaqat Turkiyaning, balki butun dunyoning sayyohlik markazlaridan biri. Istanbulda yuzlab mehmonxonalar va diqqatgasazovor joylar ko'p. Bir vaqtlar Vizantiya poytaxti bo'lgan Istanbuldagi Ayo Sofiya, To'pkapi kabi obidalarni ko'rish uchun minglab sayyohlar keladi.

⁹³ https://uza.uz/uz/posts/turizm-turkiya-iqtisodiyotning-muhim-sohalaridan-biri_358924?q=%2Fposts%2Fturizm-turkiya-iqtisodiyotning-muhim-sohalaridan-biri_358924

Sayyohlar eng ko‘p tashrif buyuradigan mintaqalar quyidagilar:

Istambul — bu yerda islom va Vizantiya yodgorliklari ko‘p.

Kappadokiya — bu yerda vulqon tufayli paydo bo‘lgan noodatiy ko‘rinishlar va g‘or shaharchalari bor.

Turkiya golf-turizmini rivojlantirishga ham katta ahamiyat qaratmoqda. “Euromonitor International” ma’lumotlariga ko‘ra, jahondagi sayyohlar tashrif buyuradigan 100 ta shahar orasida Antaliya 10-o‘rinni egalladi. Antalya – Turkiyadagi sayyohlar eng ko‘p tashrif buyuradigan shahar hisoblanadi. Turkiyaga kelayotgan sayyohlarning 34 foizi aynan mana shu shaharga kelishi sir emas.

Turkiya Madaniyat va turizm vazirligi Istanbulda bo‘lib o‘tgan matbuot anjumanida Turkiyaning 2024-yil birinchi yarim yillik natijalarini e‘lon qildi. Madaniyat va turizm vaziri Mehmet Nuri Ersoy 2024-yilning birinchi yarmida Turkiyaga tashrif buyurgan sayohatchilar soni o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 13,9 foiz ortib, 26,1 million kishiga yetganini aytdi. Turkiyaning shu davrda turizmdan tushgan daromadi 9,3 foiz o‘sib, 23,7 milliard dollarga yetdi. Turkiyada har bir sayyohning o‘rtacha kunlik harajati 98 AQSH dollarini tashkil qilgan. Vazir Ersoyning ta’kidlashicha, dastlabki 6 oylik natijalar Turkiyaning yil yakuni bo‘yicha 60 million ziyoratchi va 60 milliard dollar daromad olish maqsadiga sodiqligini tasdiqlaydi.⁹⁴

Turkiyaning bebaho tarixiy, madaniy va arxeologik merosi butun dunyoda qiziqish uyg‘otmoqda. 2024-yilning birinchi olti oyida Turkiya muzeylari va tarixiy obidalariga o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 12 foizga o‘sgan holda 14 millionga yaqin sayyoh tashrif buyurgan. Bu davrda Turkiyaning eng ko‘p sayyoh qabul qilgan ob’ektlari Izmirdagi Efes, Koniya’dagi Mavlono muzeyi, Denizli’dagi Hiyerapolis va Pamukkale, Kapadokiya/Nevshehirdagi Go‘reme va Zelve/Pashabag‘lari edi.

⁹⁴ <https://www.xabar.uz/xorij/turkiya-yarim-yilda-turizmdan-qariyb-24-mlrd-dollar-sof-daro>

7.4. Markaziy Osiyo mintaqasida ziyorat turizmini rivojlantirishning o‘ziga xos jihatlari

Markaziy Osiyo ziyorat turizmini rivojlantirishning katta resurslariga ega. Qo‘shni respublikalar bir-birini to‘ldiruvchi ziyorat turizmi potensialiga ega. Markaziy Osiyoning barcha respublikalari, jumladan O‘zbekiston islom dini va madaniyati, me‘morchilikning rivojlanishida alohida o‘rin tutadi. Bugungi kunda, «...yurtimizda islom diniga oid 784 ziyoratgoh, nasroniylik diniga oid 19 hamda buddaviylikka oid 8 madaniy meros obekti mavjud»⁹⁵. Bu imkoniyatdan foydalanib, mamlakatimizga tashrif buyuruvchi ziyoratchi turistlar oqimini oshirishimiz mumkin.

Shu nuqtai nazardan Markaziy Osiyoda turizmni shakllantirish respublikalarning mavjud turizm potentsiali samaradorligi va bu sektorning daromadini oshiradi. Qozog‘iston Respublikasining Prezidenti Qasim-Jomart Toqayev O‘zbekistonga tashrifida ikki mamlakatning nafaqat turkiy, balki butun jahon madaniyati durdonasi bo‘lgan bosh ma‘naviy va tarixiy markazlari bo‘lgan Turkiston, Samarqand va Buxoro shaharlarini bir yo‘nalish orqali tutashtirgan holda turizm klasterini ochish bo‘yicha kiritgan taklifi mintaqada turizmni rivojlantirishning yangi ko‘lamdagi istiqbollariga keng yo‘l ochib berishini ta’kidlab o‘tdi. Albatta, bu taklif zahirida, birinchi navbatda, ziyorat turizmi nazarda tutilganini e‘tiborga olsak, turizm klasterini amalga oshirish uchun bir qancha huquqiy, tashkiliy va iqtisodiy masalalarni hal etish lozim bo‘ladi. Jumladan:⁹⁶

Birinchi, klaster uchun mavjud bo‘lgan turizm potentsiallari va infratuzilmalarining mosligi.

Ikkinchi, turistlar uchun klasterning jozibadorligi.

Uchinchi, turoperatorlarning klaster potentsialiga, ayniqsa, tarixiy, diniy va me‘moriy obidalarga oid to‘la bilimga egaligi.

⁹⁵<https://yuz.uz/news/ziyosat-turizmini-rivojlantirishning-dolzarb-masalalariga-bagishlangan-xalqaro-davra-suhbati-otkazildi>

⁹⁶Xudoyarov A.A. O‘zbekistonda ziyorat turizmining rivojlanish xususiyatlari va tendensiyalari. Iqtisodiyot va ta’lim. 2022 yil. 6-son. 428-429 betlar.

To‘rtinchidan, ziyorat turizmi klasterining boshqa turdagi (tashkil etilgan bo‘lsa) klasterlarga mutanosibligi (potensial, infratuzilmalari va mavsumi jihatidan).

Beshinchidan, qo‘shni davlatlardagi chet ellik sayohatchilar uchun viza rejimidagi farqliklarni bartaraf etish, bu masalada har bir davlat uchun mutanosib viza rejimini joriy qilish kabi omillar va boshqa elementlarni hisobga olmoq joiz bo‘ladi.

Respublikada turizm klasteri yangi yo‘nalish bo‘lsa-da, bu borada amalga oshirilayotgan tadbirlarga Buxoro va Samarqand shaharlaridagi turizm hududlari tajribasi asosida Urganch, Toshkent shaharlari va Farg‘ona viloyatida turizm hududlari, Toshkent viloyati Bo‘stonliq tumanida tog‘ klasterlarini bosqichma-bosqich tashkil etish rejalashtirilgan tog‘ klasterlariga misol bo‘la oladi.

Albatta, yuqorida ta’kidlanganidek, har bir tarixiy obidaning o‘ziga xos “jozibalari va sirlari” bor va ularni eshitish har bir ziyoratchiga huzur baxsh etishi tabiiydir. Vaholanki, islom madaniyatining durdonalari bo‘lgan Buxoro, Samarqand, Toshkent, Termiz, Xiva va boshqa shaharlarida joylashgan muqaddas ziyoratgohlar, avliyo va ulamolarning maqbaralari, qadimgi masjid va qo‘lyozmalarni Turkiya, Malayziya, Indoneziya va Arab davlatlaridan kelgan musulmonlarga ko‘rsatish va ularning salohiyati darajasida talqin etish ziyorat turizmi rivojlanishiga asosiy omil hisoblanadi.

Bu kabi ziyoratgohlarni qo‘shni davlatlardagi Ahmad Yassaviy maqbarasi, Arslonbob Ota maqbarasi, Safed Bulon (Qirg‘iziston) kabi boshqa ziyoratgohlarni ham yuqoridagi qadamjolar qatoriga qo‘shsak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Shu nuqtai nazardan konsepsiyada yuqorida e’tirof etilganidek, ham tarixiy, ham diniy bilimga ega bo‘lgan yuksak saviyadagi malakali kadrlar tayyorlashga alohida e’tibor qaratilmog‘i zarur, deb hisoblaymiz. Mintaqaning innovatsiya salohiyatidan foydalanish va uni kengaytirishda turizm klasterlarini tashkil etish quyidagi imkoniyatlarni beradi:⁹⁷

⁹⁷ Xudoyarov A.A. O‘zbekistonda ziyorat turizmining rivojlanish xususiyatlari va tendensiyalari. Iqtisodiyot va ta’lim. 2022 yil. 6-son. 428-429 betlar.

turizm biznesi, fan va davlat boshqaruv tashkilotlarining birgalikdagi harakatlarining muvofiqlashtirilishi;

turistik klaster qatnashchilari faoliyatining resurslarga ega bo'lish imkoniyatini (axborot, innovatsiya va texnologik) kengaytirish hamda infratuzilma ob'ektlaridan birgalikda foydalanish yo'li bilan harajatlarni, jumladan, transaksiya harajatlarini kamaytirish asosida samaradorligini oshirish;

turizm xizmatlarini ishlab chiqaruvchilari va iste'molchilari o'rtasidagi o'zaro ta'sirni kuchaytirish asosida innovatsion mahsulotlarni yaratish va bozorga olib chiqish jarayonini jadallashtirish;

klasterlarni shakllantirishda ishtirok etuvchi investorlar uchun imtiyozlarning mavjudligi sababli mintaqada qulay investitsiya muhitini shakllantirish;

yangi biznesni yaratish va rivojlantirish sharoitlari yaxshilanishi tufayli raqobatning rag'batlantirilishi;

turistik mahsulotni iste'molchilarga yetkazib berishning barcha zarur bo'g'inlari bitta hududda to'planishi natijasida qo'shilgan qiymat o'sishining yopiq zanjiri shakllanishi kabilardir.

Markaziy Osiyo mamlakatlari ziyorat turizmini rivojlantirish uchun yetarlicha resurslarga ega, ammo bu omilning o'zi turizmni rivojlantirish uchun yetarli hisoblanmaydi. Bu yerda yana bir muhim masala yotadi, ya'ni turizm resurslaridan oqilona foydalangan holda yaratilgan taklifni tashqi iste'molchilar talabini jalb qilish orqali qondirish usuli. Turizm sohasini rivojlantirishga erishishda har bir mamlakatning hamkorlik aloqalarini kuchaytirish orqali sezilarli darajada ta'sir kuchini oshirish mumkin. Bu borada viza va transchegaraviy kelishuvlar bo'yicha hamkorlik mamlakatlar o'rtasida sayohat qilishni osonlashtiradi, sayyohlar va tovarlarning chegaralar orqali o'tishini yaxshilaydi va har bir mamlakat uchun o'zaro manfaatlarni oshiradi. Turistik ta'lim va o'qitish tizimlari va turistik xizmatlarning amaldagi standartlarini uyg'unlashtirish, kerakli miqdordagi malakali kadrlarni ishlab chiqarishga yordam beradi va mintaqaviy bozorda talab - taklif kamchiliklarini bartaraf etishga yordam

beradi. Birgalikda ishlab chiqilgan turizm bozori tadqiqotlari, umumiy statistik tizimlar va birgalikdagi marketing tadbirlari tashrif buyuruvchilarning ehtiyojlarini yaxshiroq tushunishga va xizmatlarni yanada moslashtirishga olib kelishi mumkin, bu esa mintaqada ziyorat turizmi oqimining oshishiga olib keladi.⁹⁸

Tayanch soʻz va iboralar: Fors koʻrfazi, arab mamlakatlarida ziyorat turizmi, Saudiya Arabistonida ziyorat turizmi, Malayziya, Singapur va Turkiyada ziyorat turizmi, “Sulton qonuni”, “Keramat”, Markaziy Osiyo mintaqasida ziyorat turizmi.

Mavzuga doir savol va topshiriqlar:

1. Fors koʻrfazining arab mamlakatlariga qaysi davlatlar kiradi?
2. Fors koʻrfazining arab mamlakatlarida ziyorat turizmini rivojlantirishning oʻziga xos jihatlari tushuntirib bering.
3. Saudiya Arabistonida ziyorat turizmini rivojlantirishning imkoniyatlarini baholang?
4. Saudiya Arabistonida ziyorat turizmini rivojlantirishning oʻziga xos jihatlari nimalardan iborat.
5. Malayziyada ziyorat turizmini rivojlantirishning oʻziga xos jihatlari nimalardan iborat.
6. Singapurda ziyorat turizmini rivojlantirishning oʻziga xos jihatlari nimalardan iborat.
7. Turkiyada ziyorat turizmini rivojlantirishning oʻziga xos jihatlari nimalardan iborat.
8. Markaziy Osiyo mintaqasida ziyorat turizmini rivojlantirishning oʻziga xos jihatlari nimalardan iborat.

⁹⁸ Xidirova G.R. Mintaqada ichki turizmni rivojlantirishning konseptual asoslari. “Iqtisodiyot va turizm” xalqaro va ilmiy innovatsion jurnali. №2(2). 2021. 63-bet.

VIII BOB.O‘ZBEKISTONDA ZIYORAT TURIZMI TURLARINI TASHKIL ETISHNING O‘ZIGA XOS TOMONLARI

8.1. Samarqandda ziyorat turizmini tashkil etishning o‘ziga xos tomonlari.

8.2. Buxoroda ziyorat turizmini tashkil etishning o‘ziga xos tomonlari.

8.3. Toshkentda ziyorat turizmini tashkil etishning o‘ziga xos tomonlari.

8.4. Qashqadaryo vohasida ziyorat turizmini tashkil etishning o‘ziga xos tomonlari.


8.5. Surxondaryo vohasida ziyorat turizmini tashkil etishning o‘ziga xos tomonlari.

8.6. Farg‘ona vodiysida ziyorat turizmini tashkil etishning o‘ziga xos tomonlari.

8.1. Samarqandda ziyorat turizmini tashkil etishning o‘ziga xos tomonlari

Samarqand viloyati hududiy jihatdan mamlakatimizning markazida joylashgan bo‘lib, 1938-yil 15-yanvarda tashkil topgan. Viloyatning umumiy maydoni 16,8 ming kv.km.ni, aholisi esa 4,1 mln kishini tashkil qiladi. Viloyatning tabiiy sharoiti, yerusti tuzilishi, yani uning janub va shimol hamda shimoliy-sharqiy tog‘liklardan iboratligi rekreatsiya resurslarinig rivojlanishiga sabab bo‘lgan. Uning tekislik qismida daryo sohillari, dasht va cho‘llarning mavjudligi ham turizm sohasida o‘ziga xos mazmun kasb etadi. Undan tashqari, Samarqandning qadimdan «Buyuk Ipak yo‘li»ning markazida joylashganligi uning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishiga zamin yaratganligi ham malum. 2022-yilda Shanxay hamkorlik tashkiloti davlatlari Rahbarlari Kengashining Sammiti doirasida Samarqand shahrida 260 gektar maydonda yangi turistik markaz barpo etilib, jaxon standartlari darajasidagi 8 ta (4 va 5 yulduzli) mehmonxonalar ishga tushirildi. Mazkur loyihaga 516,0 mln. dollar qiymatida investitsiya yo‘naltirildi.

Statistik ma'lumotlar bo'yicha xozirgi vaqtda Samarqand viloyatida 1626 ta moddiy-madaniy meros resurslari, ya'ni arxeologiya, arxitektura, monumental san'at yodgorliklari hamda diqqatga sazovor joylar mavjud bo'lib ularning viloyat hududlari bo'yicha taqsimotini quyidagi rasmda ko'rishimiz mumkin (8.1-rasm).



8.1-rasm. Samarqand viloyati moddiy-madaniy meros ob'ektlarining hududlar kesimidagi holati⁹⁹

Statistik ma'lumotlar bo'yicha, bugungi kunda Samarqand viloyatida 975 ta arxeologiya, 581 ta arxitektura, 36 ta monumental san'at yodgorliklari hamda 34 ta diqqatga sazovor joylar, 20 dan ortiq sanatoriya va dam olish uylari mavjud. 8.1-rasm ma'lumotlari bo'yicha, Samarqand viloyatidagi moddiy-manaviy resurslarning asosiy qismi Samarqand shahri, Samarqand va Urgut tumanlarida joylashganligiga guvoh bo'lishimiz mumkin.

⁹⁹Beknazarov F.A. "O'zbekistonda ziyorat turizmi imkoniyatlaridan foydalanish samaradorligini oshirish yo'llari". Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertasiya. Samarqand 2023 y.

Samarqandni aziz, muqaddas avliyolar va buyuk insonlar abadiy qo‘nim topgan joy tarzida e‘zozlashadi. Xalqimiz din ulamolari, buyuk kishilar, avliyolar qabristonlarini ziyorat etish, o‘tganlar ruhini shod etish maqsadida Samarqand shahri va uning tumanlaridagi ziyoratgohlarga tashrif buyurishadi. Samarqandda ziyorat turizmini rivojlantirish resurslari, ya‘ni Imom Buxoriy majmuasi, Shohi Zinda yodgorlik majmuasi, Xazrati Hizir, Ruxobod ziyoratgohi, Imom Moturidiy ziyoratgohi, Xoja Doniyor majmuasi, Amir Temur maqbarasi, Xoja Ahror Valiy ziyoratgohi, Abu Lays Samarqandiy ziyoratgohi, Imom Faxriddin Roziy ziyoratgohi, Imom Dorimiy ziyoratgohi, Maxdumi A‘zam ziyoratgohi, Hazrati Dovud ziyoratgohi, Abdulla Ansoriy ziyoratgohi, Xo‘ja Xofiz Merosiy ziyoratgohi, Shayx Said Nuriddin hoji ziyoratgohi, Sog‘ish ota (Sog‘arjiy) ziyoratgohi, Chor-chinor ziyoratgohi va boshqa ko‘plab ziyoratgohlar mavjudligi hududning ziyorat turizmi imidjini yanada oshiradi. Shu tufayli, hududning ziyorat turizm salohiyatining yuqoriligini e‘tiborga olgan holda mavjud ziyoratgohlarni marshrutlarga kiritish, ularni turizm nuqtai nazaridan o‘rganish, ma‘lumotlar bazasini yaratish hamda haritalashtirish dolzarb vazifalar sirasiga kiradi.

Mazkur muqaddas obidalar bugungi kunda dunyo bo‘yicha juda katta qiziqish bildirilib e‘tirof etilayotgan ziyorat turizmini rivojlantirishda, Samarqandni ziyorat turizmi maskani sifatidagi imidjini butun dunyoga yoyishda muhim ahamiyat kasb etadi. Muhtaram Prezidentimiz ta‘kidlaganlaridek “Buyuk olim Abu Mansur Moturidiy maqbarasi va uning yaqinida dafn etilgan 8 buyuk ulamo qadamjosini dunyoda 170 milliondan ziyod izdoshi bo‘lgan moturidiya ta‘limotining ziyorat markaziga aylantirish mumkinligi”¹⁰⁰ ushbu hududda ziyorat turizm salohiyati yuqoriligidan dalolatdir.

Tahlillarga ko‘ra, “Indoneziya, Turkiya, Pokiston, Malayziya kabi davlatlardan Imom al-Buxoriy merosiga qiziquvchi 100 mingdan ortiq, Hindiston, Turkiya, Pokiston, Bangladesh kabi davlatlardan Abu Mansur

¹⁰⁰ <https://qalampir.uz/news/samark-andda-potentsial-170-mln-sayye%D2%B3-uchun-ziyarat-markazi-barpo-kilinadi-29721>

Moturidiy merosiga ixlosmand 26 mingdan ortiq, Indoneziya, Malayziya, Turkiya, Tatariston va Chechenistondan Xo‘ja Ahror Valiy va Mahdumi A‘zam izdoshlari bo‘lgan 43 ming ziyoratchi, Xo‘ja Doniyor hamda yahudiylar dini merosiga talabgor 40 mingdan ortiq ziyoratchini Isroil, AQSH, Fransiya va Rossiyadan jalb qilish imkoniyati mavjud”¹⁰¹. Diniy turizm zamonaviy Yevropada uyg‘oniy davrini boshdan kechirayotganligi, madaniy turizmning muhim segmenti ekanligini hamda ziyorat turizmi tobora ommalashib borayotganligini ta’kidlashmoqda.

Turizm sohasini barqaror rivojlantirishning bugungi bosqichida O‘zbekiston, jumladan Samarqand viloyatining ziyorat turizmi salohiyatini baholash rivojlanishning muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qolmoqda. Ziyorat turizmining daromadlilikini ta’minlashda uning raqobatbardoshligini oshirish orqali nafaqat mamlakat hududlarida yashovchi, balki mamlakatlardan ham imkon qadar ko‘proq ziyoratchi turistlarni jalb qilish maqsadga muvofiqdir.

Umuman olganda Samarqand viloyati boy moddiy-madaniy, ziyorat turizm resurslariga ega bo‘lib, uning turizmga ixtisoslashuvini aniqlash jarayoni turizm rivojlanishini baholashning marketing tahlili turistik xizmatlar bozorining nisbatan daromadli va jozibador soha hamda maqsadli bozorlarini belgilaydi, hududa turistik tadbirkorlikni rivojlantirish bo‘yicha qarorlar qabul qilish, mamlakat va mintaqalarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish dasturlarini ishlab chiqish imkonini beradi.

Samarqand viloyatida ziyorat turizmini rivojlantirish, viloyatning ziyorat turizmi resurslaridan turistik marshrutlarda maksimal darajada foydalanish kabi ishlarni amalga oshirishda quyidagilarga e’tibor berish maqsadga muvofiq:¹⁰²

ziyorat turizmini rivojlantirish salohiyatini va imkoniyatlarini, muammo va kamchiliklari chuqur tadqiq qilish, aniqlangan muammo va kamchiliklarni bartaraf qilish yo‘llarini aniqlash hamda ziyorat turizmini

¹⁰¹ <https://yuz.uz/news/sayyohsevar-yurt-kun-sayin-sayqal-topmoqda>

¹⁰² Beknazarov F.A. “O‘zbekistonda ziyorat turizmi imkoniyatlaridan foydalanish samaradorligini oshirish yo‘llari”. Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertasiya. Samarqand 2023 y.

rivojlantirish konsepsiyasini shakllantirish va uning ijrosini qat'iy ta'minlash;

ziyosat turizmi resurslaridan turistik marshrutlar ishlab chiqish holatini tanqidiy tahlil qilish, tahlil natijalari asosida ulardan turistik marshrutlarda foydalanish holatini baholash;

ziyosat resurslari va ularning jozibadorlik darajasi bo'yicha marketing tadqiqotlarini olib borish, reklama vositalaridan samarali foydalangan holda ularni targ'ib qilish;

Samarqand viloyatining ziyosat turizmi brendini yaratish va shu orqali uning jahon turizm bozoridagi imidjini oshirish lozim;

ziyosat turizmi iste'molchilari talablarini chuqur o'rganish va ularning hohish va istaklaridan kelib chiqqan holda yangi yo'nalishlardagi turistik marshrutlarni ishlab chiqish;

ziyosat turizmi hududalarida turistik infratuzilmani shakllantirish va rivojlantirish, ziyosat turizmi obidalarini rekonstruksiya qilish, tiklash va ularning ma'lumotlar bazasini shakllantirish;

hududlarning ziyosat turizmini rivojlantirish imkoniyatlarini o'rganish va tahlil qilish, aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish orqali turistik xizmatlar sifatini oshirish va b.

8.2. Buxoroda ziyosat turizmini tashkil etishning o'ziga xos tomonlari

Ziyosat turizmi mehmondo'stlik sanoatining eng jadal rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri bo'lib, ko'plab davlatlar dunyoning turli burchaklaridan dindorlarni o'z e'tiqodiga mos sharoit va qulayliklar yaratishga harakat qilmoqda.

Dunyo musulmonlari aholisi soni 2 milliard kishiga yetdi. Xalqaro musulmon sayohatchilar soni 160 million. O'zbekistonda 784 ta islom ziyosatgohi mavjud bo'lib, ularning hammasi ham hududlarning turistik xaritasiga kiritilmagan. Tadqiqotlar davomida aniqlanishicha, ziyosatchilarning 93 foizi sayohat davomida qulay shart-sharoitlar bo'lishini ma'qullagan. Turizmning bu turiga talab ko'p bo'lsada uni

haligacha to‘liq tadqiq qilib, mavjud imkoniyatlardan to‘laqonli ravishda foydalanib kelinmayapti.¹⁰³

Buxorodagi ziyoratni g‘arbiy ziyorat bilan solishtirganda muqaddas joylarga sayohat tashabbusi dastlab islomiy farzlardan kelib chiqqan. Ziyorat ular tomonidan jazo sifatida emas, balki Xudo tomonidan berilgan sharaf, ruhiy najot uchun muqaddas joylarga qo‘shilish sifatida qabul qilingan. Ziyorat harakatining ishtirokchisi bo‘lishni ko‘pchilik o‘z burchi deb hisoblardi va “yildan-yilga shu qadar tez tarqalganki, ziyoratgohlar haddan tashqari g‘ayratli ziyoratchilarni jilovlashga majbur bo‘lgan”. Bugungi kunda mazkur tarmoqni rivojlantirish davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan.

2021-yil 24-fevralda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Ichki va ziyorat turizmini rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 30-apreldagi “Ichki turizm xizmatlarini diversifikatsiya qilishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorlarida “... ziyorat turizmi infratuzilmasini rivojlantirish, ziyorat turizmi marshrutlarida foydalaniladigan madaniy meros obyektlarini restavratsiya qilish, targ‘ibot ishlarini keng ravishda amalga oshirish, Buxoro viloyati “Yeti Pir” ziyoratgohlariga boruvchi ichki yo‘llarni to‘liq ta‘mirdan chiqarish ustuvor masalalar etib belgilandi. O‘zbekistonning ziyorat turizmi salohiyatini to‘liq o‘rganish, ma‘lumotlarni tizimlashtirish, ziyoratgohlar, ulamolar va ularning ilmiy merosi haqida ilmiy asoslangan ma‘lumotlarni shakllantirish, muntazam ravishda ziyorat turizmi yo‘nalishida targ‘ib qiluvchi tadbirlarni tashkil etish choralarini ko‘rish; xorijiy mamlakatlarda tashkil etiladigan respublikaning ziyorat turizmi salohiyatini targ‘ib qilish imkoniyati bo‘lgan xalqaro ko‘rgazmalarda doimiy ravishda milliy stend bilan ishtirok etib borish; muqaddas qadamjolar va ziyoratgohlar ro‘yxatidagi obyektlarning respublika hududlarining “chorlov nuqtasi” sifatida turizm

¹⁰³ Kurbanova M.X. Ziyorat turizmiga ijtimoiy hodisa sifatida tarixiy-ilmiy yondashuv. Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar. № 00063. 1\2023. 424 b.

yoʻnalishlariga kiritilishini va keng targʻib qilinishini taʼminlanishi” kabi vazifalar masʼul idoralarga biriktirildi.¹⁰⁴

Buxorodagi zardushtiylik otashxonasi, Termiz hududidagi budda ibodatxonalari, viloyatlarda faoliyat olib borayotgan xristian cherkovlari, islom dinining “Oltin silsilasi” roʻyxatidan joy olgan Buxoro va Qashqadaryoning avliyo ziyoratgohlari kabi bir qator obyektlar ziyoratning ibtidosi qisman mamlakatimiz hududiga ham toʻgʻri kelganligidan dalolat beradi.

Oʻzbekiston Jahon musulmon sayohatlari indeksi (Global Muslim Travel Index) roʻyxatida yil sayin koʻtarilib, 2021-yilda 16-oʻrinni, 2022-yilda 9-oʻrinni egalladi. 2018-2019-yillarda vizasiz rejim joriy etilishi bilan Indoneziyadan sayyohlar oqimi 170 foizga, Malayziyadan 158 foizga, Turkiyadan 154 foizga, BAAdan musulmon turistlar oqimi 153 foizga oshdi. Shu bilan birga, mamlakatimiz “Halal Travel Frontier 2020” hisobotida musulmon turizm bozorida islom merosini tiklash boʻyicha yangi tendensiyaning boshlagan davlat sifatida eʼtirof etildi.¹⁰⁵

Oʻzbekistonda turizmni rivojlantirishda Buxoro viloyatining muqaddas qadamjolari muhim oʻrin tutadi. Buxoro qadim-qadimdan avliyolar, pirlar shahri sanalgan. Ushbu makonda ziyorat turizmini rivojlantirish orqali ham mahalliy ham xorijiy sayyohlarni jalb qilish mumkin boʻladi. Abul Hasan Abduramon ibn Muhammad Nishopuriy “Xazoin ul ulum” (“Ilmlar xazinasini”) asarida yozganki, “Buxoro qadimdan suvi shirin, havosi latif, atrofi keng, nozu neʼmat, mollari koʻp boʻlishi bilan ziynatlanib, hozirgacha ulamo toifasining toʻplangan joyi, faqat balogʻat va shirin soʻzlarning manbai boʻlib kelgan”. Mana shuning uchun Buxoro shahri va uning atroflarida 160 ta avliyolik darajasiga sazovor boʻlgan mashoyixlar, olimlar, donishmandlar va shoirlarning qabrlari va qadamjolari mavjuddir.

Buxoro viloyati respublikamizning asosiy turizm markazlaridan hisoblanadi. Bu rayonga Buxoro va Navoiy viloyatlari kiradi. Turistik

¹⁰⁴ Kurbanova M.X. Ziyorat turizmiga ijtimoiy hodisa sifatida tarixiy-ilmiy yondashuv. Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar. № 00063. 1\2023. 425 b.

¹⁰⁵ Kurbanova M.X. Ziyorat turizmiga ijtimoiy hodisa sifatida tarixiy-ilmiy yondashuv. Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar. № 00063. 1\2023. 425 b.

resurslarga eng boy shahar bu Buxoro shahridir. Shahar o'zining bebaho, takrorlanmas tarixiy arxitektura yodgorliklari bilan jahonga mashhur. Hozirgi kunda shaharning umumiy maydoni 710 gektardan ortiq bo'lib borgan sari go'zallashib bormoqda va turistlar oqimining ko'payishiga imkoniyat keng ochilmoqda.

Shuni ta'kidlash joizki, Buxoro Markaziy Osiyoning boshqa shaharlaridan farqli o'laroq u o'zida takrorlanmas qadimiy sharqona shahar tuzilishi qiyofasini hanuzgacha saqlab kelmoqda. U O'rta Osiyo me'morchiligining ming yillik tarixini o'zida aks ettirgan chinakam yilnomadir. Shahardagi har bir tarixiy yodgorlik va obidalar o'z sukunatida olis o'tmish sirlarini saqlab qolgan. Buxoro shahri haqiqatda "Muzey shahar" maqomiga ega bo'lib, u diqqatga sazovar tarixiy yodgorliklar va obidalarga juda boy hisoblanadi. Buxoroi sharifga tashrif buyuruvchi har bir xorijiy turist o'zini sayyohatini birinchi bo'lib, shaharning eng muhim tarixiy yodgorliklaridan biri Ark-qa'lasidan boshlaydi.

Ark-qa'la 2000 yillik tarixga ega. U turistlar qadami o'zilmaydigan turistik ob'ekt bo'lib hisoblanadi. Hozirgi kunda mavjud bo'lgan qurilish ob'ektlari XVII asr oxiri va XX asr boshlarida qurilgan. Ark-qa'la shaharning g'arbiy qismida qad ko'targan. Uning umumiy maydoni 3,16 gektar bo'lib, devorlarning uzunligi 790 metrdan ortadi. Ark-qa'la hududida juda katta binolar majmuasi joylashgan bo'lib, ulardan biri Childuxtaron masjidi hanuzgacha saqlanib qolgan. Qa'lada turistlarning e'tiborini jalb qiladigan yana bir narsa - bu qadimgi zindondir. Hozirgi Ark-qa'la hududida Buxoro viloyati tarixiy o'lkashunoslik muzeyi joylashgan. Qa'laning sharqiy qismi esa arxeologik yodgorlik sifatida saqlanib kelinmoqda.

Minorai Kalon Buxoro shahrining ko'rkidir. U Markaziy Osiyodagi mashhur arxitektura yodgorliklarining eng balandi (46.5 metr) salobatli va chiroyli minorasi bo'lib hisoblanadi. Minorai Kalon yaqin atrofida Kalon masjidi va Mir Arab madrasasi kabi arxitektura yodgorlik ansambli (Poy Kalon) joylashgan. U XVI asrga kelib qaytadan ta'mirlandi. Masjid binosida 208 ta ustunlar bo'lib, umumiy maydoni bir

gektardan ortadi. Bu masjid Markaziy Osiyodagi eng yirik inshoatlardan biri hisoblanib, Samarqanddagi Bibixonim masjididan keyin ikkinchi o'rinda turadi.

Mir Arab madrasasi 1536-yilda qurilgan bo'lib, Kalon masjidi bilan birga tutashib ketgan. Madrasa markaziy qismida Ubaydullaxon qabri, uning bosh qismida esa Mir Arab qabri joylashgan. Hozirgi kunda Mir Arab madrasasi hududida Buxoro diniy bilim yurti faoliyat ko'rsatib kelmoqda.

Shaharda xorijiy turistlar diqqatga sazovar joylardan yana biri - bu Ulug'bek madrasasidir. U 1417-yilda qurilgan. Bu madrasa buyuk astronom olim Mirzo Ulug'bek nomi bilan chambarchas bog'liq. Shaharda musulmon olamidagi eng ajoyib tarixiy yodgorliklaridan biri Ismoil Samoniy maqbarasi bo'lib hisoblanadi. U shu kunga qadar juda yaxshi saqlanib, bizga yetib kelgan tarixiy obidalaridan biridir. Bu bino o'rta asrning ilk davri me'morchiligining eng yaxshi yutuqlarini o'zida mujassamlashtirgan inshotdir.

Shaharda yana bir qator turistik ob'ektlar borki, ular qatoriga Madorixon madrasasi (1566-1567-yillar), Abdullaxon madrasasi (1588-1590), Xo'ja Zayniddin xonaqasi (shayx Zayniddin qabri), Chashma Ayub mavzoleyi (1330-1385-yillar), Abdulazizxon madrasasi (1652 yil), Chor Minor madrasasi (1807 yil), Kulba Ko'kaldosh madrasasi (1568-1569-yillar), Nodir Devonbegi madrasasi (1622-yil), Sayfiddin Buharzi mavzoleyi (XV-XVI asrlar), Buyon Kulixon mavzoleyi (1358 yil), Magohi Attoriy masjidi (XII asr), Toki Zargaron zargarlik bozori rastlari (XVI asr), Labi havuz ansambli (XVI-XVII asrlar), Ko'kaldosh madrassasi (1622-yil)ni kiritish mumkin.

Shu manzilgohlardan biri Buxoro xonining yozgi qarorgohi Sitorai Moxi-Xosadir. Bu qarorgoh Buxoro shahrining shimoliy-sharqiy qismida 4 km uzoqlikda joylashgan yozgi bog' saroy XIX asr oxiri va XX asr boshlarida barpo etilgan. Moxi-Xosa saroyi Sharqona va Yevropa uslubida qurilgan inshoat bo'lib hisoblanadi. Ikkinchi muhim turistik ob'ekt - bu Bahovuddin Naqshbandiy majmuasi bo'lib, u shahardan chamasi 15 km uzoqlikda joylashgan. Bu majmua XVI asrda qurilgan.

Shahar atrofidagi muhim tarixiy yodgorliklaridan Chor Bakr, Namozgoh masjidi, Varaxshon saroyi joylashgan.

Turistik rayondagi muhim xorijiy turistik ob'ektlar qatoriga Qizilqum cho'lini kiritish mumkin. U eng katta hududni egallab, viloyat turistik yo'nalishidagi eng uzoq masofali (450 km) marshrut hisoblanadi. Bu marshrut Qizilqum cho'li va Amudaryo qirg'oqlari bo'ylab o'tadi. Uni avtomobil vositasida sayr qilib o'tish o'zgacha zavq beradi.

Qizilqumda o'simlik va hayvonat dunyosini asl holida saqlab qolish maqsadida Buxoro viloyati hududida Qizilqum davlat qo'riqxonasi (1971-yil) tashkil etilgan. Viloyat hududida noyob ekzotik, yovvoyi hayvonlarni ko'paytiradigan "Jayron" ekomarkazi ekoturizmni yanada rivojlantirishga juda katta imkoniyatlar yaratadi. Mazkur turistik ob'ektlaridan biri Kogon va Qoravulbozor tumanlari hududida joylashgan.

8.3. Toshkentda ziyorat turizmini tashkil etishning o'ziga xos tomonlari

Toshkent shahri - Markaziy Osiyoning eng yirik shahri - O'zbekistonning Respublikasi poytaxtidir. Toshkent qadimiy shaharlardan hisoblanib, u haqidagi dastlabki ma'lumotlar eramizdan oldingi II asrdagi Xitoy solnomalarida uchraydi. Hozirgi kunda Toshkent yirik transport tuguni sifatida (havo, temir yo'l, avtomobil) mamlakatimizning tarixiy o'tmishini eslatib turuvchi taraqqiy topgan zamonoviy sanoat shahridir. Shuningdek, Toshkent turistik rayoni turistik resurslarga boy hisoblanib, mahalliy va halqaro ahamiyatdagi sayyohlikni rivojlantirish imkoniyatlariga ega. Mazkur rayonda madaniy-tarixiy, tabiiy-rekreatsiya resurslari mavjud. Bu yerda Oqtosh, Xumson, G'azalkent, Tovoqsoy, Bildirsoy, Chorbog', Chimyon, Kumushkon, So'qoq, Ohangaron, Yangiobod, Ertosh, Ko'ksaroy, Qizilchi kabi dam olish va davolanish resurslariga ega. Rayonning turli tekislik va tog'li qismida ekskursiya ob'ektlari va shifobaxsh maskanlari ko'p. Bu rayonda Botanika, Turon, Chinobod, Toshkent mineral suvi, 8 mart, Qibray, Bo'ston, Zangchi ota kabi bir qancha sanatoriya va kurort

zonalarini joylashgan. Yuqoridagi tabiiy rekreatsiya resurslaridan kelib chiqib ekologik turizmni tashkil etish imkoniyatlari bisyor. Ayni kunda Chotqol milliy bog'iga turli marshrutlarni yaratish katta samara beradi. O'z navbatida Toshkent turistik rayoni madaniy-tarixiy hamda ijtimoiy-iqtisodiy ob'ektlarga boy hisoblanadi. Toshkent shahrida ko'plab muzeylar mavjud. Masalan, Tasviriy san'at muzeyi haykallar, rasmlar va turli hunarmandchilik mahsulotlarining yirik to'plamiga ega. O'zbekiston Amaliy San'at muzeyi 30 mingdan ortiq hunarmandchilik mahsulotlari va qimmatbaho taqinchoqlariga ega. Undan tashqari XVI asrning ajoyib yodgorligi Baroqxon madrasasi, XIV asrga oid Ko'kaldosh madrasasi kabi qadimiy arxitektura yodgorliklari va zamonaviy Amir Temur xiyoboni, Mustaqillik maydoni kabi turli bog' va maydonlar ham turistlarni jalb qiluvchi ob'ektlardir.

Mazkur mintaqada turizm infratuzilmasi boshqa rayonlarga nisbatan ancha rivojlangan. Xususan, Toshkent shahri va Toshkent viloyati tog'oldi mintaqalaridagi turistik ob'ektlarda mehmonxona va dam olish maskanlarida turistlarga xizmat ko'rsatish darajasi yildan-yilga yaxshilanmoqda. Bu albatta yuqori darajada urbanizatsiyalashgan hudud uchun ayniqsa muhimdir.

So'ngi yillarda Toshkent viloyatida ham yirik moddiy-madaniy meros ob'ektlarida ichki infratuzilmasini shakllantirish maqsadida ziyoratgohlarga alohida e'tibor qaratilyapti. Bo'stonliq, Qibray, Yuqori Chirchiq, Zangiota, Yangiyo'l, Chinoz, Oqqo'rg'on, Piskent, Bo'ka va boshqa tumanlarda 828 ta tarixiy ziyoratgohlar, muqaddas qadamjolar ro'yxatdan o'tgan. Ularning har biriga yil bo'yi ziyoratchilar kelib turadi. Mazkur qadamjolarida ko'p asrlik tarixiy ma'lumotlar bor.

Parkent tumanidagi Kumushkon turizm qishlog'ida joylashgan "Masjid Ali" ziyoratgohi xalq orasida alohida mehr bilan yodga olinadigan Hazrat Ali nomi bilan bog'liq ko'rkam qadamjo bo'lib, viloyatning eng ajoyib diqqatga sazovor joylaridan hisoblanadi. Ziyoratgohdagi ajoyib ulkan chinor va shifobaxsh buloq suvi ziyoratchilar tomonidan e'zozlanib, bu mo'jizalarni ular aynan Hazrat Alining tashrifi bilan bog'laydi. Ushbu hududda qadimdan kumush

konlari mavjud bo'lib, buloq suvlariga ijobiy ta'siri natijasida inson salomatligiga nihoyatda foydali.

Shuningdek, "Zarkent ota" majmuasi – Ja'far ibn Husayn Sayyid Battol G'oziyning qadamjosi hisoblanadi. Zarkent ota VIII – IX asrlarda yashagan harbiy qo'mondon va qutb-ul-aqtoab darajasidagi tasavvuf ahli namoyondasidir. Bu ulug' insonga bag'ishlab bir qator olimlar asarlar yaratgan. Rivoyatga ko'ra, Zarkent qishlog'ida sodir bo'lgan jangda Said Ja'far G'oziy dushmanlarni yengib, g'oyib bo'lgan. Shu bilan birga, dunyoda G'oziyning yettita qadamjosi bor bo'lib, Zarkent qishlog'idagi tarixiy majmua eng ulug' qadamjolardan biri hisoblanadi.

Ohangaron tumanidagi "Shoabdumalikbobo" maqbarasi – XIII asrga mansub bo'lib, Do'stlik qishloq fuqarolar yig'ini hududidagi ziyoratgohdir. Xalq orasida "Shodmalikbobo" nomi bilan tanilgan mashhur shayx Hoja Ahmad Yassaviyning birinchi muridi bo'lgan hazrat Mansur otaning farzandlari bo'lib, Zangiboboning buvalari bo'lgan.

Tarixchi Yu.Buryakov "Toshkent oblastining arxeologik yodgorliklari" kitobida mazkur ziyoratgohni Ohangaron daryosining o'ng qirg'og'ida joylashgan ikki xonali yerosti sag'anasi, hovuzli chorbog' va keyingi vaqtlarda qurilgan turli-tuman imoratlardan iborat kompleks ekani haqida yozgan. Shuningdek, Professor Mixail Yevgenevich Massonning guvohlik berishicha, "Shoabdumalikbobo" ning qabri saqlanayotgan sag'anada juda ko'p qo'lyozma va kitoblar bo'lib, ular avvaliga tekshiruvchilar tomonidan olib ketilgan. Bu qo'lyozmalar tahminlarga ko'ra, hozir Sankt Peterburgdagi Sharq qo'lyozmalari fondida saqlanadi. Bu asarlarning aksariyati Shoabdumalikboboning dastxatlari bilan yozilgan noyob asarlar bo'lib, ularning ko'pi ilohiyot sirlari, tush ta'birlari, ma'rifat talqini, Qur'on tafsirlari va boshqa sohalarga bag'ishlangan o'ttizdan ortiq qo'lyozmalar bo'lgan. Sag'ana sharq me'morchiligining ajoyib namunasi bo'lib, yer ostiga ko'milgan. 2009-2016-yillarda yer osti sag'ananing ustida maqbara bunyod etildi. Ayni vaqtda ziyoratgoh hududida obodonlashtirish ishlari olib borilmoqda.

8.4. Qashqadaryo vohasida ziyorat turizmini tashkil etishning o'ziga xos tomonlari

Qashqadaryo viloyati o'zining qadimiy shaharlariga ega. Qadimda yirik savdo va hunarmandchilik markazi hisoblangan Shahrisabz shahri Amir Temur qurdirgan Oqsaroy ansambli va ko'plab diniy ziyoratgohlarga boydir. Viloyat markazi hisoblanagan Qarshi shahri bir necha arxitektura yodgorliklariga ega. Bular - Ko'kgumbaz masjidi (1463 y.), Jome' masjidi, Minorali Qo'rg'oncha, Xo'ja Abdulaziz madrasasi, Qilichboy madrasasi, Zaxox–Moron shaharchasi harobalari va Qashqadaryo daryosi ustidan o'tgan qadimiy ko'prik kabilardir. Mazkur shaharning 2006-yilda 2700 yillik yubileyi munosabati bilan yuqoridagi arxitektura obidalarining jozibadorligi yanada oshdi.

Qashqadaryo viloyatida ham turizmning barcha turlari o'ziga xos rivojlanib kelmoqda. Ayniqsa, ziyorat turizmi ham viloyatda o'zining o'rniga ega. Viloyatda 2018-yildan ziyorat turizmini rivojlantirish bo'limi tashkil etildi. Ushbu bo'limning asosiy maqsadi etib xorijiy sayyohlarni ziyorat turizmi doirasida tashriflarini tizimli yo'lga qo'yish bo'yicha ishlarni olib borish, yurtimizda ziyorat turizmini jadal rivojlantirish, mavjud ulkan turizm salohiyatidan yanada to'liq va samarali foydalanish, an'anaviy madaniy-tarixiy turizmni rivojlantirish hisobiga hududlarda yangi turizm yo'nalishlarini tashkil etish, ularni pasportlashtirish, turizm yo'nalishlari va turizm ob'ektlari bo'yicha yagona milliy reestrlarni shakllantirishga yo'naltirilgan ichki, kirish va chiqish turizmini kompleks rivojlantirishning milliy va hududiy dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirishni muvofiqlashtirish belgilandi.

Qashqadaryo hududida joylashgan turizm ob'ektlari, shuningdek, viloyat hududidagi muqaddas qadamjolar bugungi kunda sayyohlar e'tiborini tortmay qolmaydi. Qadimiy obidalar, muqaddas ziyoratgohlar, tarixiy va madaniy yodgorliklar bilan bir qatorda, betakror madaniyati va an'analari, xushmanzara tabiati hamda fayzli go'shalari bilan sayyohlarni o'ziga rom etib kelayotgan viloyatimizda ziyorat turizmi yo'nalishida amalga oshirilayotgan sa'y–harakatlar turizm industriyasi

hamda infratuzilmasini yanada rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qashqadaro viloyatida turizm sohasini rivojlantirish dasturi to‘g‘risida”gi qarori viloyatda ushbu sohani yanada ravnaq toptirishga xizmat qilmoqda. Mazkur hujjat asosida tasdiqlangan dasturga muvofiq, viloyatda 30 ta tarixiy- madaniy ob‘ekt qayta tiklanashi belgilangan. Shahrisabzdagi Koba karvonsaroyida hunarmandlar markazi tashkil etildi. Oqsaroy, Dor ut-tilovat va Dor us- saodat majmualarini bog‘lab turuvchi xiyobonda qo‘l ishi milliy markazi, suvenir buyumlar, hunarmandlar do‘konlari qurildi. Qashqadaryoning qadim va boy tarixini o‘zida mujassam etgan go‘shalarini, madaniy yodgorliklar, maftunkor tabiat qo‘ynida joylashgan so‘lim dam olish maskanlarini targ‘ib etishda turizm sohasini yuksaltirishning ahamiyati beqiyos.¹⁰⁶

Qashqadaryoda tashkil etilgan yangi turistik maskanlar 2019-yilning 10-14 may kunlari “Dunyo bo‘ylab” telekanali ijodkorlari Qashqadaryo viloyatida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 8-martdagi "Qashqadaryo viloyatining turizm salohiyatidan samarali foydalanish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi 198-sonli qarori ijrosi yuzasidan viloyatda ijodiy safarni amalga oshirdi. Asosiy maqsadlardan biri viloyatning mavjud turizm salohiyatini xalqimiz orasida keng targ‘ib etilib, ommalashtirish va mahalliy sayyohlarga sifatli ma’lumotlar berildi. Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasi bilan hamkorlikda tayyorlangan dasturda Qashqadaryo viloyatining “Siypantosh”, “G‘ilon”, “Hazrati Bashir”, “Tatar-Vari”, “Toshqo‘rg‘on”, “Sarchashma” va “Suvtushar” maskanlari o‘rin oldi. Abu Mu‘in Nasafiy ziyoratgohini haqiqiy ziyoratchilar uchun obod go‘shaga aylantirilgani hozirda esa Kasbi tumanidagi qadimiy va mashhur Hazrati Sulton Mir Haydar ota ziyoratgohini ham qayta ta’mir lab, ziyoratchilar va sayyohlar qadami uzilmaydigan obod go‘shaga aylantirish ishlarining boshlanayotgani Kasbi tumanida ziyorat turizmini rivojlantirishdagi amaliy ishlardan hisoblanadi.

¹⁰⁶O‘ralov G‘. Qashqadaryoda mustaqillik yillarida ziyorat turizmining rivojlanish jarayonlari. Konferensiyalar to‘plami. Toshkent 2022 y. 496-bet.

8.5. Surxondaryo vohasida ziyorat turizmini tashkil etishning o'ziga xos tomonlari

Surxondaryo viloyatida turizmni rivojlantirish uchun 374 tarixiy, madaniy, san'at, me'moriy obidalar, noyob arxeologik qazilmalar mavjud. Viloyatning tabiiy so'lim go'shalari, maftunkor sharsharalari, ma'danli suv va shifobaxsh tog' tuzlari agro-eko, tog' va tibbiyot turizmini keng yo'lga qo'yishga qulay imkoniyat yaratadi. Qadimiy bu yurtning o'ziga xos urf-odat va an'analari, milliy hunarmandchilik buyumlari ham dunyo ahlida katta qiziqish uyg'otib keladi.

Viloyatdagi boy tarixga ega qadamjolar, muqaddas ziyoratgohlar hududda ziyorat turizmini joriy etib, nafaqat mahalliy balki, xorijlik sayyohlar oqimini kengaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Biroq, hozirgacha viloyatning bu boradagi salohiyatidan samarali foydalanishga e'tiborsizlik bilan yondashib kelinayotgan edi.

2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasida belgilab berilgan vazifalar ijrosi doirasida ishlab chiqilgan ziyorat turizmini rivojlantirish bo'yicha "yo'l xaritasi" bu boradagi ishlarni yangi bosqichda ruyobga chiqarishga xizmat qilmoqda.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev joriy yil 19-20-yanvar kunlari Surxondaryo viloyatiga tashrifi chog'ida vohaning turizm salohiyatidan samarali foydalanib, yangi ish o'rinlari yaratish va aholi daromadlarini oshirishga alohida e'tibor qaratgan edi. Shunga muvofiq viloyatda 2018-2019-yillarda Surxondaryo viloyatining turizm salohiyatini kompleks rivojlantirish chora-tadbirlari dasturi qabul qilinmoqda. Unda hududning yangilangan, zamonaviy qiyofasini yaratish, transport infratuzilmasini takomillashtirish, xorijdan tashrif buyurayotgan sayyohlarga sifatli xizmatlar ko'rsatish kabi muhim masalalarga alohida ahamiyat berilgani ziyorat turizmi imkoniyatlaridan unumli foydalanishga qulay muhit yaratadi.

O'tmishda Surxondaryo muqaddas islom dinini targ'ib qilgan va uni rivojlantirishga munosib hissa qo'shgan Hakim Termiziy, Iso Termiziy kabi ko'plab buyuk olimlarga beshik bo'lgan, – deydi O'zbekiston

Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi Surxondaryo viloyati vakili Sh.Ibragimov. Boy tarixga ega bu yurtida So'fi Olloyor, Alouddin Attor, Muhammad Zohid singari ulug' zotlar mangu qo'nim topgan. Mazkur dastur asosida Boysun, Termiz, Jarqo'rg'on, Oltinsoy, Denov, Uzun, Sherobod tumanlaridagi muqaddas qadamjo va ziyoratgohlar rekonstruksiya qilinib, obodonlashtiriladi. Yo'llar ta'mirlanadi. Savdo-hunarmandchilik do'konlari quriladi. Xorijlik sayyohlarning emin-erkin ziyorat qilishi uchun barcha zamonaviy sharoitlar yaratiladi.

Denov tumanida Naqshbandiya ta'limotining asoschisi Hazrat Bahouddin Naqshbandning birinchi xalifasi Alouddin Attor mangu qo'nim topgan muqaddas ziyoratgoh mavjud. Oltinsoy tumanida "Silsilai oliya" tarkibiga kiruvchi ulug' zotlardan yana biri – Muhammad Zohid maqbarasi, turkiy tasavvuf ta'limotining yirik namoyandasi So'fi Olloyor qadamjosi va ul zot tomonidan barpo etilgan masjid saqlanib qolgan. Yangi yo'nalishlarda ziyorat turizmini rivojlantirish bo'yicha "Yo'l xaritasi"da aziz-avliyolarimiz muqaddas hoki qo'yilgan bu maskanlarni obodonlashtirib, ziyoratchi sayyohlarning tahorat qilishi, namoz o'qishi uchun zamonaviy qulayliklar yaratish, "halol" standartini joriy etish belgilab berilgan.

Mamlakatimizda ziyorat turizmining yo'lga qo'yilayotgani yurtimizda yashab o'tgan buyuk zotlarni yod etib, ularning haqiga duo qilish va ibratli hayot yo'llarini chuqur o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi, – deydi O'zbekiston musulmonlari idorasi viloyat vakili A.Sayfuddinov. – Xorijlik sayyohlarning ham o'tmishda yashab o'tgan aziz avliyolarimizning diniy ta'limoti va islom dini rivojiga qo'shgan salmoqli hissasi bilan yaqindan tanishishiga keng imkoniyat yaratadi. Muqaddas qadamjolar atrofi yanada obod, yanada ko'rkam bo'ladi.

Ziyorat turizmini rivojlantirish borasida amalga oshiriladigan keng qamrovli bunyodkorlik ishlari doirasida Termiz tumanidagi Kokildor ota, Qirq qiz, Sulton Saodat yodgorliklari, Chorgumbaz masjidi, Boysun tumanidagi Hazrati Eshonbobo ziyoratgohi va shifobaxsh suvi, Hazrati Sulton Valiy, Jarqo'rg'on tumanidagi Xo'ja Samandar Termiziy


ziyoratgohlari, Oltinsoy tumanidagi Xo‘jaipok ziyoratgohi va shifobaxsh suvi, Uzun tumanidagi Oq ostona bobo maqbarasi kabi tarixiy obidalar so‘lim go‘shaga aylantiriladi.

8.6. Farg‘ona vodiysida ziyorat turizmini tashkil etishning o‘ziga xos tomonlari

Farg‘ona vodiysi uch viloyatidan iborat (Farg‘ona, Andijon, Namangan) eng so‘lim, tabiati go‘zal maskandir. Mamlakatimizga nafaqat islom dini vakillarini balki boshqa din vakillarini ham ziyorat maqsadlarida jalb qilish mumkin. Bu esa, dunyoning turli joylaridagi ziyorat turizmi ixlosmandalarining mamlakatimizga turistik oqimini ko‘paytirish imkonini beradi. Xususan, Farg‘ona viloyatining Quvasoy buddizm obidasi, Surxondaryo viloyati Zurmala, Dalvarzintepa, Qoratepa, Kampirtepa va b., Toshkent shahridagi Budda ibodatxonasi kabilar buddizm dini vakillarini o‘ziga jalb qiladi.

Mamlakatimiz hududlari bo‘yicha ichki turizmning rivojlanishida diniy joylar va ziyoratgohlarga amalga oshirilgan safarlar soni ko‘rsatkichi barqaror o‘sish tendensiyalariga ega emas. Shuningdek, mamlakatimiz hududlari kesmida ham noteks rivojlanish tendensiyasiga ega (8.2-rasm).

Mintaqa o‘zoq tarixga ega hunarmandchilikning yirik markazi sifatida hozir ham ahamiyatini yuqotmagan. Qadimiy shaharlardan hisoblangan Qo‘qon shahrida bir qancha arxitektura yodgorliklari mavjud. Masalan, Qo‘qonning oxirgi xoni Xudoyorxon saroyi, Modarixon maqbarasi shular jumlasidandir. 2700 yil yoshga kirgan Marg‘ilon (2007 y.) X asrda o‘zining ipak matolari bilan mashhur bo‘lgan. Yuqorida ta’kidlaganimizdek turistik rayonda milliy hunarmandchilik taraqqiy etgan. Shu o‘rinda Marg‘ilon ipaklari, shoyilari va do‘ppilari, Chust pichoqchiligi, charmdo‘zligi, Rishton kulolchilik mahsilotlari hamda Andijon, Asaka, Pop, Qo‘qon, Shahrixon kabi shaharlari ham ma’lum hunarmandchilik turlari bilan chet el turistlarini jalb qilish imkoniyatiga ega.



8.2-rasm. Diniy joylar va ziyoratgohlarga tashriflar sonining hududlar kesimidagi ulushi (2021 yil ma'lumotlari asosida %da)¹⁰⁷

Yozyovon cho'llari noyob cho'l landshafti bo'lsa, Axxi, Eski Pop, Tuproqqal'a ekoturistik obidalar va rayon etnografiyasi, san'ati, madaniyati, urf-odatlar (tuylari, milliy uyinlar) hamda choyxonalari turistik qiziqishni orttiruvchi resurslardir.

Tayanch so'z va iboralar: Diniy joylar, Ziyoratgohlar, Jahon musulmon sayohatlari indeksi, Muzey shahar, Ark-qal'a, Zarkent ota majmuasi, Hakim at-Termiziy.

Mavzuga doir savol va topshiriqlar:

1.Samarqandda ziyorat turizmini tashkil etishning o'ziga xos tomonlari, imkoniyatlarini baholang.

2.Buxoroda ziyorat turizmini tashkil etishning o'ziga xos tomonlarini aytib bering.

3.Toshkentda ziyorat turizmini tashkil etishning o'ziga xos tomonlari nimalardan iborat.

4.Qashqadaryo vohasida ziyorat turizmini tashkil etishning o'ziga xos tomonlarini aytib bering.

¹⁰⁷ Beknazarov F.A. "O'zbekistonda ziyorat turizmi imkoniyatlaridan foydalanish samaradorligini oshirish yo'llari". Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertasiya. Samarqand 2023 y.

5.Surxondaryo vohasida ziyorat turizmini tashkil etishning o'ziga xos tomonlari, imkoniyatlari nimalardan iborat.

6.Farg'ona vodiysida ziyorat turizmini tashkil etishning o'ziga xos tomonlarini tushuntiring.

IX BOB. ZIYORAT TURIZMINI TASHKIL ETISH VA O‘TKAZISHDA MALAKALI KADRLARGA QUYILADIGAN TALABLAR

9.1. Ziyorotgohlarda faoliyat ko‘rsatayotgan xodimlarga qo‘yiladigan talablar.

9.2. Halol standarti asosida faoliyat ko‘rsatayotgan xodimlarga quyiladigan talablar.

9.1. Ziyorotgohlarda faoliyat ko‘rsatayotgan xodimlarga qo‘yiladigan talablar

Hozirgi integratsiyalashgan dunyoda zamonaviy turizm industriyasi jadal rivojlanmoqda. Dunyo mamlakatalari turizm sohasini, uning alohida turlarini rivojlantirishga katta ahamiyat berishmoqda. Bunda, turizm sohasining eng mashhur turlaridan biri ziyorat turizmdir. Turizmning bu turidagi unsurlardan biri muqaddas joylar va qadamjolar bilan tanishish hamda ziyorat qilishdan iborat.

Qadim zamonlardan beri muqaddas qadamjolarini ziyorat qilish islom ta’limotining mohiyati bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan musulmonlarning eng muhim va ardoqli an‘analaridan biri bo‘lib kelgan. So‘nggi o‘n yilliklarda turli din vakillarining ziyoratga borishi ijtimoiy hayotning barcha sohalariga ta’sir ko‘rsatadigan ommaviy hodisaga aylandi.

Turistlarga xizmat ko‘rsatishda turli xil korxona va tashkilotlar jalb qilinadi. Xususan, mehmonxona va shunga o‘xshash joylashtirish vositalari (mehmonxonalar, lagerlar, motellar, botellar, xostellar va b.), umumiy ovqatlanish korxonalari (restoranlar, kafelar, oshxonalar, kafeteriyalar, choyxonalar va b.), turoperatorlik va turagentlik korxonalari, transport xizmatlarini tashkil qiluvchi korxonalari, turli turistik animatsion dasturlarni tashkil qiluvchi va shunga o‘xshash tashkilotlar, sport inshootlari, dam olish va davolanish korxonalari, maishiy xizmat ko‘rsatuvchi korxonalar, savdo korxonalari va b.. Tur davomida turistlarga majmual xizmat ko‘rsatish bilan shug‘ullanadigan barcha korxona va tashkilotlar odatda turistik amaliyotda xizmat

ko'rsatuvchi tashkilotlar deb ataladi. Turizm butun dunyoda iqtisodiyotning eng muhim tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Bugungi kunda butun dunyoda turizm bozori munosabatlariga o'tish bilan, yuqori malakali, madaniy, bilimdon kadrlarga ehtiyoj katta.

O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirish bo'yicha ko'pgina amaliy ishlar olib borilmoqda. Ammo ayrim muammolar ham mavjudki, bu muammolar soha uchun yuqori malakali kadrlarni tayyorlash orqali o'z yechimini topadi. Ushbu muammolar sirasiga turizm sohasining turizm turlari kesimida to'liq malakali kadrlar bilan ta'minlanmaganligi, turizmi rivojlangan mamlakatlar tajribalaridan foydalangan holda kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish, turizmning alohida turlari va yo'nalishlari kesimida kadrlarning malakasini xorijiy rivojlangan mamlakatlarda oshirish zaruratining mavjudligi, mavjud tayyorlangan kadrlarning aksariyati to'liq kasbiy bilimlarga ega emasligi va til bilish darajasining pastligi bilan belgilanadi.

Turizm sohasi uchun malakali mutaxassis kadrlar tayyorlash, turizm infratuzilmasini hamda turizm turlarini rivojlantirish yo'llarini takomillashtirish, servis va xizmat ko'rsatish sifatini yanada rivojlantirish iqtisodiyotning turli sohalari va tarmoqlarida ko'plab yangi ish o'rinlarini yaratish imkoniyatini beradi.

Malakali mutaxassis kadrlarni tayyorlash jarayonida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning aniq ko'rinishi bevosita kadrlarni sifatli va samarali tayyorlash bilan chambarchas bog'liq bo'lishi lozim. Shu tufayli, bugungi kunda turizm sohasida turizmning alohida turlari hamda yo'nalishlari uchun malakali kadrlar tayyorlash turizm sohasini barqaror rivojlantirishning asosiy va ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida qaralmoqda. Shuning uchun ham, mamlakatda turizm sohasi uchun malakali kadrlar tayyorlash jarayonlarini takomillashtirish O'zbekiston Respublikasining turizm salohiyatidan foydalanish samaradorligining o'sishiga, mamlakatning barcha hududlaridagi turistik salohiyatdan baravar foydalanish imkoniyatining oshishiga, mamlakat hudularini bir

turistik mahsulot va bir turistik yoʻnalish doirasida birlashtirishga katta yordam beradi.¹⁰⁸

Zamonaviy inson uchun ziyoratgohlar hayotning muhim atributlaridan biri va maʼnaviy yuksalish vositasi boʻlib, u nafaqat muqaddas joylarni ziyorat qilish, oʻzingiz va yaqinlaringiz uchun ibodat qilish, ziyoratgohlarda ziyorat amallarini bajarish, imonda oʻzingizni mustahkamlash imkonini beradi.


Turizm sohasini rivojlantirishning uzoq muddatli istiqbolida xodimlardan biznesning bosh strategiyasi sifatida foydalanishning samaradorligini oshirishga tobora eʼtibor kuchayib bormoqda. Kadrlarni tanlash va joylashtirish strategiyasi, kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish strategiyasi, shuningdek, xodimlar mehnat faoliyatining motivatsiyasi strategiyasi korxonalarning muhim strategiyalaridan hisoblanadi. Shuningdek, kadrlar ichki zahiralardan foydalanishning majmualiy strategiyasi korporativ madaniyatni shakllantirish bilan uygʻunlashib, asosan oʻz ishchilari imkoniyatini jalb qilishga moʻljallanadi.

Turistik firma va korxonalar, mehmonxona va shunga oʻxshash joylashtirish vositalari xodimlarini jahon andozalari asosida, turizmi rivojlangan mamlakatlarning kadrlar tayyorlash tizimi tajribalari asosida tayyorlash, kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish maqsadga muvofiq. Bu esa quyidagi tizimli ishlarni tashkil qilish va maʼlum bir imkoniyatlarni ishga solish zaruratini tugʻdiradi (9.1-rasm).

Turizm sohasini kadrlar bilan taʼminlashga bogʻliq muammolarni hal etish uchun avvalo tayyorlanayotgan kadrlarni qatʼiy intizom, har bir ishga masʼuliyat bilan yondoshadigan, oʻz ustida doimiy ishlaydigan, boshqaruv va tashkilotchilik qobiliyati shakllangan holatda tayyorlash lozim. Shuni ham taʼkidlab oʻtish lozimki, turizm sohasida faoliyat koʻrsatayotgan har bir xodim zamon bilan hamnafas boʻlib, atrofdagi oʻzgarishlar va yangiliklarga mos tarzda oʻz ustida doimiy ishlab tursa, uning jamoasi ham shunga mos tarzda shakllanib boraveradi. Bu esa,

¹⁰⁸ Beknazarov F.A. "Oʻzbekistonda ziyorat turizmi imkoniyatlaridan foydalanish samaradorligini oshirish yoʻllari". Iqtisodiyot fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. Samarqand 2023 y.

jamoadagi muhitga, ta'lim-tarbiyaning rivojlanishga va ish unumdorligining oshishiga ijobiy ta'sirini ko'rsatadi.



9.1-rasm. Turizm sohasi uchun kadrlar tayyorlash tizimi yo'nalishlari¹⁰⁹

¹⁰⁹Beknazarov F.A. "O'zbekistonda ziyorat turizmi imkoniyatlaridan foydalanish samaradorligini oshirish yo'llari". Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertasiya. Samarqand 2023 y.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda aytish joyizki, har qanday soha va tarmoqlar kabi turizm sohasi, turizmning alohida turlari bo'yicha ham malakali kadrlarni tayyorlash jarayonini takomillashtirish lozim bo'lmoqda.

9.2. Halol standarti asosida faoliyat ko'rsatayotgan xodimlarga quyiladigan talablar

Ziyorat turizmi - bu turizmning an'anaviy ahamiyatiga ega bo'lgan o'ziga xos shakli bo'lib, turizmning bu turining shakllanish va rivojlanish jarayonlari qadim zamonlarga borib taqaladi. Bugungi kunda ziyorat turizmi uchun mutaxassislarning kasbiy tayyorgarligini o'rganish ushbu sohadagi muayyan muammolarni aniqlash imkonini berdi. Ma'lumki, turistlar va ziyoratchilar oqimining sezilarli darajada o'sishi kuzatilmoqda va bu sohada ularning ehtiyojlarini qondirish uchun zarur bo'lgan malakali mutaxassislarga ehtiyojni ham oshirib bormoqda. Shubhasiz, butun dunyodagi kabi O'zbekistonda ham ziyorat turizmini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan, ziyorat turizmining mahsulotni ichki va xalqaro bozorlarda taklif qiluvchi, ularning realizatsiyasini amalga oshiruvchi va targ'ib qiluvchi turoperatorlar, mehmonxona va shunga o'xshash joylashtirish vositalarida bevosita ziyoratchilar bilan muomalada bo'ldigan xodimlar va ularga qo'yiladigan talablar muhim rol o'ynaydi.

Halol turizm va dam olish - bu musulmonlarga islom normalariga muvofiq dam olish imkoniyatini beruvchi turizm turi. Halol turizm uchun turar joyga faqat alkogolsiz ichimliklar taklif qiladigan mehmonxonalar taqdim etiladi, hamda barcha taomlar halol standartiga javob beradi. Erkaklar va ayollar uchun alohida infratuzilma bilan jihozlangan: basseymlar, kurortlar, plyajlar va boshqalar. Ixtisoslashgan mehmonxonalar va Musulmonlar uchun kurortlar asosan Turkiyada joylashgan. Malayziya, BAA, Misr va boshqa ba'zi mamlakatlarda turizmning ushbu turi bo'yicha alohida takliflar mavjud. Sanab o'tilgan xususiyatlarga qo'shimcha ravishda, halol dam olish maskanlarida namoz vaqtlari e'lon qilinadi, hamda namozxonalar, hatto

ba'zilarida masjidlar ham mavjud. Mehmonlarga islom tarixiga oid joylarga maxsus ekskursiya dasturlari ham taklif etiladi. Kechki vaqtni maroqli o'tkazish uchun islom normalariga mos keluvchi ko'ngilochar tadbirlar tashkil etiladi.

Ko'pgina xalqaro mehmonxonalarda shariat qonunlari asosida so'yilgan hayvonlardan tayyorlanadigan va tarkibida islom dini taqiqlagan hech qanday qo'shimchalar, masalan, spirt bo'lmagan halol taomlar taqdim etiladi. Ammo hamma mehmonxonalarda ham erkaklar va ayollar uchun alohida joylar mavjud emas.

2007-yilda World Travel Marketda Euromonitor International marketing tashkiloti halol turizmning ulkan salohiyatini, ayniqsa Yaqin Sharqqa e'lon qildi. Hisobotda, shuningdek, yo'lovchilarga halol taomlar bilan ta'minlash, namoz vaqtlarini bildirish, o'rindiqli cho'ntaklarida Qur'on bo'lishi, erkak va ayollarni alohida bo'limlarga joylashtirish mumkin bo'lgan halol havo sayohati bozori uchun katta imkoniyatlar mavjudligi aytiladi. Mashhurlik ortib borayotganligi sababli, halol mehmonxonalar turli mamlakatlardan musulmon mijozlarga tarjima va xizmat ko'rsatishi mumkin bo'lgan tegishli mutaxassislarni yollashmoqda.¹¹⁰

O'zbekistonda "Halol" sertifikatlashtirish tizimini joriy etish uchun, avvalo, o'sha standartlar amalda joriy etilishi kerak. Ayni paytda O'zbekistonda 5ta "Halol" standarti qabul qilingan, deb xabar beradi "O'zstandart" agentligi rasmiy vakili. Joriy etilgan 5 ta "Halol" standarti yurtimizda ishlab chiqarilayotgan barcha mahsulot turlarini qamrab olmaydi. Shu tufayli, joriy etilgan standartlardan tashqari yana 8 ta standart loyiha sifatida ishlab chiqildi. Bu masalada Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo'yicha qo'mita, "O'zbekoziqovqat" XK, Sog'liqni saqlash vazirligi va manfaatdor tashkilotlar bilan hamkorlikda ishlar olib borilmoqda.

Din ishlari bo'yicha qo'mita laboratoriya sinov natijalari bilan tanishib chiqib, agar natijalar diniy tartibga mos kelsa, sertifikatni rasmiylashtirish bo'yicha xulosa taqdim etadi. Chunki, "Halol" standarti

¹¹⁰ https://uz.wikipedia.org/wiki/Halol_turizm

asosan mahsulotning o'zigagina emas, balki uni tayyorlash jarayoniga berilgan baho sifatida qayd etiladi. Albatta, mahsulot tarkibi va yetishtirish bosqichlariga alohida e'tibor qaratiladi, shuningdek chorva hayvonlarini so'yish, go'shtlarni saqlash va chiqindilardan asrash kabi masalalar ham diqqat markazda bo'ladi.¹¹¹

Ushbu kasbda qat'iy sertifikatlash shunchaki zarur, chunki menejerlar turistlar bilan xorijiy tillarda muloqot qilishadi bu esa turistlarga ma'lumot uzatishni nazorat qilishni qiyinlashtiradi. Turistlarning mamlakat haqidagi taassurotlari, uning an'analari, urf-odatlar va zamonaviy jamiyatning urf-odatlarini to'g'ri tushunishi, pirovardida, Gresiya iqtisodiyotiga qo'shadigan hissassi bevosita ziyorat turizmi menejerining professionalligi va ish sifatiga bog'liq. Shu munosabat bilan bugungi kunda Turizm vazirligi tomonidan yuqori saviyali mutaxassislar tayyorlashga qaratilgan ta'lim muassasalarini yangilash, barpo etish va rivojlantirish borasida katta ishlar amalga oshirilmoqda. Gresiya va xorijlik o'qituvchilarning kasbiy mahorati, yangi texnologiyalar – innovatsion o'quv qo'llanmalarini joriy etish samarasida turizm sohasida yuqori reytingga ega mutaxassislar tayyorlanayotgan yangi xususiy ta'lim muassasalari ochilmoqda.

Turizm sohasida kadrlar yakuniy mahsulotning eng muhim tarkibiy qismi, turistik korxonalarining raqobatdosh ustunliklarining asosiy resurslaridan biri hisoblanadi. Shu tufayli turistik korxona va tashkilotlarda xizmat ko'rsatish sifati xodimlarning egallagan malakasi, tajribasi va ularning onglilik darajasiga bog'liq.

Xizmat ko'rsatish sifatini saqlab qolish uchun ko'pgina turistik tashkilotlar xizmat ko'rsatish standartlarini - turistlarga xizmat ko'rsatishning majburiy qoidalarini ishlab chiqadilar, ular barcha operatsiyalar uchun belgilangan sifat darajasini kafolatlashga mo'ljallangan.

Turizm sohasi inson faoliyatining asosiy dinamik sohasi sifatida zamonaviy innovatsion iqtisodiyot va toboro globallashtayotgan dunyoning eng muhim tarmog'i hisoblanadi. Shu tufayli, professional

¹¹¹ <https://kun.uz/13585085#!>

kadrlar tayyorlash jarayonidagi ta'limning asosiy maqsadi bo'lajak mutaxassislarning ijtimoiy va kasbiy fazilatlarini shakllantirishdir. Turizm sohasidagi ta'lim o'quvchilarni milliy-ma'naviy qadriyatlar, xizmat ko'rsatish me'yorlari va shaxs xulq-atvori motivlari tizimini shakllantirish jihatdan boyitadi.

Tayanch so'z va iboralar: Mutaxassislar, kadrlar, Halol turizm, "Halol" standarti, "Halol" sertifikatlashtirish, "Halol" standarti asosidagi mahsulotlar.

Mavzuga doir savol va topshiriqlar:

1. Turizm xizmatlarini amalga oshiruvchi xodimlarga qo'yiladigan talablar nimalardan iborat?
2. Ziyorotgohlarda faoliyat ko'rsatayotgan xodimlarga qo'yiladigan talablarga izoh bering.
3. Halol turizm deganda nimani tushunasiz?
4. «Halol» standarti asosidagi mahsulotlarga tushuncha bering.
5. Halol standarti asosida faoliyat ko'rsatayotgan xodimlarga quyiladigan talablarga izoh bering.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. NORMATIV HUQUQIY HUJJATLAR VA METODOLOGIK AHAMIYATGA MOLIK ISHLAR

1.1. O'zbekiston Respublikasi Qonunlari

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.–T.: “O'zbekiston”, 2023.

2. O'zbekiston Respublikasining «Turizm to'g'risida»gi Qonuni. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 19.07.2019 y., 03/19/549/3446-son

1.2. O'zbekiston Respublikasining Prezidentining O'zbekistonda turizmni rivojlantirish to'g'risidagi Farmonlari, Qarorlari va asarlari

1.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevral, “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida”gi PF-4947-sonli Farmoni. //O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017-y., 6-son, 70-modda.

2.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 2-dekabrdagi “O'zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida”gi Farmoni.

3.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 3-fevraldagi “O'zbekiston Respublikasi turizm sohasini rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratish bo'yicha qo'shimcha tashkiliy chora-tadbirlari to'g'risida”gi Farmoni.

4.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 6-fevraldagi “Kirish turizmini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarori,

5.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 7-fevraldagi “Ichki turizmni jadal rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarori.

6.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-yanvardagi “O'zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi farmoni.

7.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-sonli Farmoni.

8.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 27-yanvardagi “Xizmatlar sohasini rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 104-son qarori.

9.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022 - 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi 60-son farmoni.

10.Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. – 488 b.

11.Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-J.– T.: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. – 592 b.

II. MONOGRAFIYA, DARSЛИKLAR VA O‘QUV QO‘LLANMA

1.Бабкин А.В. Специальные виды туризма. Ростов-на-Дону: Феникс, 2008.

2.Биржаков М.Б. Паломнический и религиозный туризм. "Туристские Фирмы", справочник/ М.Б.Биржаков; СПб.: ОЛБИС, 2011 - 354 с.

3.Биржаков, М.Б. Правовые основные и методы регулирования паломнического туризма. "Туристские Фирмы", справочник/ М.Б.Биржаков; СПб.: ОЛБИС, 2013. -412 с.

4.Boltabayev M.R., Tuxliyev I.S., Safarov B.Sh., Abduhamidov S.A. “Turizm: nazariya va amaliyot”. Darslik. T.: “Fan va texnologiya” 2018 y.

5.Hayitboyev R., Babayev F., Abduhamidov S.A. va b. O‘lkashunoslik. O‘quv qo‘llanma. S.: 2019 y.

6.Ibadullayev N.E., Hamitov M.X., Abduhamidov S.A. va b. Mintaqaviy turizm. O‘quv qo‘llanma. S.: 2020 y.-341 b.

7.Житенев С. Ю. Религиозное паломничество в христианстве, буддизме и мусульманстве: социокультурные, коммуникационные и цивилизационные аспекты. - М. :Индрик, 2012. - 263 с.

8.Христов Т.Т. Религиозный туризм. Учебное пособие, Издательство: Academia, 2013. - 288 с.

9.Очилдиев А. ва бошқалар. Диншунослик асослари. Ўқув кўлланма. Тошкент – 2013 й.

10.Pardayev M.Q., Atabayev R. Turistik resurslarni tahlil qilish va baholash. Samarqand, SamISI, 2006.-140 b.

11.Soliyev A.S., Usmonov M.R. Turizm geografiyasi. Samarqand: SamDU, – 2005. -131 b.

12.Tuxliyev I.S., Abduhamidov S.A. “Turizm: nazariya va amaliyot”. Darslik. T.: “Fan va texnologiya” 2021 y.

13.Тухлиев Н., Абдуллаева Т. Национальные модели развития туризма. - Т.: «O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi», 2006.- 424 с.

14.Tuxliyev I.S., Hayitboyev R., Safarov B.Sh., Tursunova G.R. “Turizm asoslari”. Darslik. T.: “Fan va texnologiya” 2014 y.-314 b.

15.X.M.Mamatqulov. Xizmat ko‘rsatish sohasiga oid atamalar va iboralar izohli lug‘ati. –Т.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2010. – 398 b.

16.Хошимов М.А. Религиозные памятники Центральной Азии. - Алматы. САГА, 2001. -237 с.

17.Hayitboyev R., Haydarov S.A., Abduhamidov S.A. va b. Turizm marshrutlarini ishlab chiqish texnologiyasi/ O‘quv qo‘llanma. S.: SamISI 2016.-179 b.

Dissertatsiya va dissertatsiya avtoreferatlari

1.Usmonov M.R. O‘zbekistonda turizmni rivojlantirishning mintaqaviy xususiyatlari (Samarqand viloyati misolida). Geografiya fan. nomzodi dis. avtoreferati. – Т.: O‘zMU, 2003. – 25 b.,

2.Ibadullayev N.E. Turistik resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish imkoniyatlari (Samarqand viloyati misolida). 08.00.05. iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya avtoreferati. Samarqand, SamISI, 2010.- 24 b.

3. Abduhamidov S.A. Mintaqaviy turizmning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. S.: 2021 y.

4. Beknazarov F.A. "O'zbekistonda ziyorat turizmi imkoniyatlaridan foydalanish samaradorligini oshirish yo'llari". Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. Samarqand 2023 y.

Ilmiy maqola va konferensiya tezislari

1. Винокуров М.А. Что такое туризм? // Известия Иркутской государственной экономической академии. – 2004. – № 3

2. Мазин К.А. Паломничество и религиозный туризм: сравнение сквозь призму тысячелетий // Современные проблемы сервиса и туризма. – 2009.

3. Байлагасов Л.В., Гоппа М.И. О классификации паломнического туризма // Международный научный журнал «Символ науки», - 2016, - №10.

4. Beknazarov F.A. Ziyorat turizmi tushunchasining mohiyati va uni rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari. "Servis" ilmiy-amaliy jurnali – 2019.

5. O'P. Jiyanov, Yu.R. Xudoynazarov "O'zbekiston-ziyosat turizm markazlaridan biri". Buyuk ipak yo'li chorrasida ziyosat turizmining renessansi (ilmiy maqolalar to'plami). S.: 2019 y.

6. Navruz-zoda Zebiniso (2020). Evaluation of Holy Places of the Regions for the Development of Pilgrimage Tourism.// Indonesian Journal of Law and Economics Review. Indonesia. IJLER 6 (0). doi:10.21070/ijler. 2020.V6.493 V6.493.

7. Aliyeva M.T. Malayziyada ziyosat turizmi rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari va uning tashkiliy mexanizmlari. "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali, №4, 2021 yil.

8. Xidirova G.R. Mintaqada ichki turizmni rivojlantirishning konseptual asoslari. "Iqtisodiyot va turizm" xalqaro va ilmiy innovatsion jurnali. №2(2). 2021.

9.Bozarov N. Ziyorat turizmi tarixi va uning turizm sohasida tutgan oʻrni. Academic Research in Enducational Sciences. Volume 3. Issue 12. 2022.

10.Beknazarov F.A. Samarqand viloyatining ziyorat turizmi resurslari va ulardan foydalanish samaradorligini oshirish imkoniyatlari. “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” (Economics and Innovative Technologies) ilmiy elektron jurnali 3/2022.

11.Xudoyarov A.A. Oʻzbekistonda ziyorat turizmining rivojlanish xususiyatlari va tendensiyalari. Iqtisodiyot va taʼlim. 2022 yil. 6-son.

12.Oʻralov Gʻ. Qashqadaryoda mustaqillik yillarida ziyorat turizmining rivojlanish jarayonlari. Konferensiyalar toʻplami. Toshkent 2022 y.

13.Kurbanova M.X. Ziyorat turizmiga ijtimoiy hodisa sifatida tarixiy-ilmiy yondashuv. Iqtisodiyot va innovasiyon texnologiyalar. № 00063. 1\2023.

14.Soxibova M.X. Ziyorat turizmi tizimining xususiyatlari va uning elementlari. “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” № 00070. 2\2024.

15.D.B.Uroqova va boshqalar. Yevropa mintaqasida ziyorat turizm rivojlanishining asosiy iqtisodiy koʻrsatkichlari. “Iqtisodiyot va zamonaviy texnologiya” onlayn ilmiy jurnal. 03 nashr: 12 (2024).

16.Global Muslim Travel Index 2018. Mastercard-Crescentrating 2018.

17.State of The Global Islamic Economy 2018/2019 Report, Thomson Reuters

18.Haj and Umrah: Developments and Opportunities Prepared by Thomson Reuters and Dinar Standard JANUARY 2017.

19.Megatrends underpinning tourism to 2020: Analysis of key drivers for change. P.24.

20.Haj and Umrah: Developments and Opportunities Prepared by Thomson Reuters and DinarStandard JANUARY 2017.

Internet maʼlumotlari

<http://www.sesric.org>

<http://www.twirpx.com>.
<http://www.intacadem.ru>.
<https://studopedia.ru>
<http://www.intacadem.ru>
<docs.cntd.ru>.
<https://orexka.com>
<https://lex.uz>.
<https://strategy.uz>.
<https://daryo.uz>.
<https://zamin.uz>.
<https://www.gazeta.uz>.
<https://tonkosti.ru>.
<https://novainfo.ru>.
<https://uza.uz>.
<http://excursovod-web.ru>.
<http://muslim.uz>.
<https://religions.uz>.
<https://uzbektourism.uz>.
<http://xs.uz>.
<https://islaminstitut.uz>.
<http://zarnews.uz>.
<https://azkurs.org>.
<https://uz.wikipedia.org>.
<http://synergy-journal.ru>.
<https://www.xabar.uz>.
<https://yuz.uz>.

MUNDARIJA

KIRISH	3
I BOB. ZIYORAT TURIZMI: TUSHUNCHASI, MOHIYATI, TARKIBI VA RIVOJLANISHINING ASOSIY JIHATLARI.....	5
1.1. Ziyorat turizmi fanining predmeti, uslublari va vazifalari	5
1.2. Ziyorat turizmi to‘g‘risida tushuncha.....	10
1.3. Ziyorat turizmi fanining maqsadi va vazifalari	16
Mavzuga doir savol va topshiriqlar:.....	19
II BOB.TURLI DINLARDA ZIYORAT TURIZMI ASOSINI TASHKIL ETUVCHI DINIY MAROSIMLAR	20
2.1. Dinlarning paydo bo‘lish tarixi	20
2.2. Xristian (katolik, provaslav va protestant) ziyorat bilan bog‘liq qoidalar	26
2.3.Yahudiy dinida ziyorat qilish bilan bog‘liq qoidalar	30
2.4. Buddizm dinida ziyorat qilish bilan bog‘liq qoidalar.....	31
Mavzuga doir savol va topshiriqlar:.....	33
III BOB. ISLOM DINIDA ZIYORAT TURIZMI ASOSINI TASHKIL ETUVCHI DINIY MAROSIMLAR	35
3.1.Islom dinidagi turli yondashuvlar, oqimlar va konfessiyalarning o‘ziga xos jihatlari.....	35
3.2. Islom dinida ziyorat qilish bilan bog‘liq qoidalar: haj va umra ziyorati, turli darajadagi ziyoratgohlarni ziyorat qilish	38
Mavzuga doir savol va topshiriqlar:.....	39
IV BOB. ZIYORAT TURIZMINING TASHKILIIY-XUQUQIY ASOSLARI	40
4.1. Ziyorat turizmining tashkiliy asoslari	40
4.2. Ziyorat turizmining xalqaro huquqiy asoslari	43
4.3. Ziyorat turizmining milliy huquqiy asoslari	49
4.4. O‘zbekiston Respublikasida ziyorat turizmini jadal rivojlantirishning me‘yoriy huquqiy jihatlari	53
Mavzuga doir savol va topshiriqlar:.....	59
V BOB. ZIYORAT TURIZMI INFRATUZILMASI	60
5.1. Ziyorat turizmi tarkibi va mohiyati	60

5.2. Ziyorat turizmida transport infratuzilmasining o‘ziga xos jihatlari	64
5.3. Ziyorat turizmida mehmonxona xo‘jaligi infratuzilmasining o‘ziga xos jihatlari	68
5.4. Ziyorat turizmida umumiy ovqatlanish infratuzilmasining o‘ziga xos jihatlari	73
5.5. Ziyorat turizmida qo‘shimcha xizmatlar ko‘rsatish infratuzilmasining o‘ziga xos jihatlari.....	75
Mavzuga doir savol va topshiriqlar:.....	79
VI BOB.TURLI MAMLAKATLARDA ZIYORAT TURIZMINI RIVOJLANTIRISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	80
6.1. Yevropada ziyorat turizmini rivojlantirishning o‘ziga xos jihatlari	80
6.2. Xitoyda ziyorat turizmini rivojlantirishning o‘ziga xos jihatlari ...	86
6.3. Hindistonda ziyorat turizmini rivojlantirishning o‘ziga xos jihatlari	93
6.4. Shimoliy va Janubiy Amerikada ziyorat turizmini rivojlantirishning o‘ziga xos jihatlari	97
6.5. Afrika mintaqasida ziyorat turizmini rivojlantirishning o‘ziga xos jihatlari	99
Mavzuga doir savol va topshiriqlar:.....	100
VII BOB. ISLOM MAMLAKATLARIDA ZIYORAT TURIZMINI RIVOJLANTIRISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI....	101
7.1. Fors ko‘rfazining arab mamlakatlarida ziyorat turizmini rivojlantirishning o‘ziga xos jihatlari	101
7.2. Saudiya Arabistonida ziyorat turizmini rivojlantirishning o‘ziga xos jihatlari	105
7.3. Malayziya, Singapur va Turkiyada ziyorat turizmini rivojlantirishning o‘ziga xos jihatlari	107
7.4. Markaziy Osiyo mintaqasida ziyorat turizmini rivojlantirishning o‘ziga xos jihatlari	116
Mavzuga doir savol va topshiriqlar:.....	119
VIII BOB.O‘ZBEKISTONDA ZIYORAT TURIZMI TURLARINI TASHKIL ETISHNING O‘ZIGA XOS TOMONLARI.....	120

8.1. Samarqandda ziyorat turizmini tashkil etishning o‘ziga xos tomonlari	120
8.2. Buxoroda ziyorat turizmini tashkil etishning o‘ziga xos tomonlari	124
8.3. Toshkentda ziyorat turizmini tashkil etishning o‘ziga xos tomonlari	129
8.4. Qashqadaryo vohasida ziyorat turizmini tashkil etishning o‘ziga xos tomonlari	132
8.5. Surxondaryo vohasida ziyorat turizmini tashkil etishning o‘ziga xos tomonlari	134
8.6. Farg‘ona vodiysida ziyorat turizmini tashkil etishning o‘ziga xos tomonlari	136
Mavzuga doir savol va topshiriqlar:.....	137
IX BOB. ZIYORAT TURIZMINI TASHKIL ETISH VA O‘TKAZISHDA MALAKALI KADRLARGA QUYILADIGAN TALABLAR.....	139
9.1. Ziyorotgohlarda faoliyat ko‘rsatayotgan xodimlarga qo‘yiladigan talablar.....	139
9.2. Halol standarti asosida faoliyat ko‘rsatayotgan xodimlarga quyiladigan talablar	143
Mavzuga doir savol va topshiriqlar:.....	146
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....	147

N.E. Ibadullayev
ZIYORAT TURIZMI

o'quv qo'llanma

Muharrir: Z.N. Bobodustov
Musahhih: M.O. Mardiyeva
Texnik muharrir: N. Ergashev

O'quv qo'llanma institut Kengashining 2025-yil 28-martdagi majlisda muhokama qilingan va nashrga tavsiya etilgan. (8-sonli majlis bayoni).

“STAP-SEL” MChJ nashriyoti, Samarqand - 2025

ISBN: 978-9910-702-83-9

Tasdiqnoma № 033337 (27.07.2022)
Nashrga ruxsat etildi: 28.03. 2025 y.
© “STAP-SEL” MChJ nashriyoti.



2025-yilda chop etildi.
Qog'oz bichimi A5, 60x841/16, Ofset qog'oz.
“Times New Roman” garnituras.
Nashr bosma tabog'i 9.75
Buyurtma № 0014A/25. Adadi 100 nusxa

Samarqand iqtisodiyot va servis institutining
matbaa bo'limida chop etildi.

LICENSE № 025316.

REESTR № X-119112.

Manzil: Samarqand shahar, Shoxrux ko'chasi 60-uy.

ISBN: 978-9910-702-83-9

